

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIV-IQTISODIV FAKULTETI

« IQTISODIVYOT » KAFEDRASI

HIMOYAGA RUXSAT ETILDI

Iqtisodiyot kafedra mudiri

i.f.n.,N.X.Bekmurodov

“ ____ ” _____ 2017 yil

Saydaliyev Rustamjon Chorshanbi o‘g‘lining
«Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va eksport tizimini
takomillashtirish» mavzusida
5230600- Moliya ta‘lim yo‘nalishi bakalavr darajasini
olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Himoyaga tavsiya etiladi”

Ilmiy rahbar:_____

O‘q. Yarmatov SH.CH.

“ ____ ” _____ 2017 yil

BAJARDI:

bitiruvchisi 4 kurs talabasi
Iqtisodiyot ta‘lim yo‘nalishi

Saydaliyev R.CH.

“ ____ ” _____ 2017 yil

Termiz 2017

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-BOB. Qishloq xo`jaligini rivojlantirish bosqichlari va modernizatsiyalash jarayonlarini rivojlantirish asoslari.	
1.1. Qishloq xo`jaligining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o`rni va ahamiyati...	10
1.2. Qishloq xo`jaligi mahsulotlari marketingi va uning o`ziga xos xususiyatlari..	23
1.3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo`jaligi tarmoqlari rivojlanishining tabiiy-iqtisodiy sharoitlari	28
2-BOB. Qishloq xo`jalik mahsulotlarini yetishtirish samaradorligini oshirish va qayta ishlash tizimini rivojlantirish.	
2.1. O`zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirilishini yanada takomillashtirish yo'llari	37
2.2. Qishloq xo`jalik mahsulotlari yetishtirishda fermer ho`jaliklarining o`rni...	46
2.3. Sabzavot va meva mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilishda investitsiyalarni jalb yetishning ahamiyatini oshirish	57
3. BOB. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida qishloq xo`jaligi tarmog'iga investitsiyalar jalb qilish.	
3.1. Qishloq xo`jalik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish va unga ta'sir etuvchi omillar. (Surxon fermer xo`jaligi misolida).....	68
3.2. Modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo`jalik mahsulotlarni qayta ishlash va eksport qilish tizimini rivojlantirishning	76
3.3. Sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash tizimini takomillashtirish yo`nalishlari va istiqbollari.....	92
Xulosa va takliflar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar.....	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda qishloq xo`jaligi respublikamiz iqtisodiyotining etakchi tarmoqi qisoblanib, mamlakatimiz aholisining 63 foizidan ko`proq`i qishloq joylarda istiqomat qiladi. YAlpi ichki mahsulotning 22 foizga yaqini, ish bilan band aholining 1/3 qismi, valyuta tushumlarining yarmidan ko`prog`i, ichki tovar aylanmasining 70 foizdan ortig`i ushbu sektor hissasiga to`g`ri keladi.

Mustaqillik yillarida respublikamiz qishloq xo`jaligida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohatlar natijasida qator muvaffaqiyatlarga erishildi. Bu, eng avvalo, bozor munosabatlarga o`tishning huquqiy asoslarining yaratilganligida, qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiharishda fermer ho`jaliklari ulushining oshayotganligida, qolaversa, qishloq xo`jaligi mahsuloti ishlab chiharish hajmining barqaror o`sib borayotganligida o`z aksini topadi.

Qishloq xo`jaligidagi muammolarni hal qilishning muhim omili va shart-sharoitlaridan biri, bu investitsiya faolligini yanada ko`chaytirishdan iboratdir. Qishloq xo`jaligida ishlab chiharilayotgan mahsulotlarni qayta ishlash, tayyor mahsulot sifatida eksport qilish uchun faqat institucional o`zgarishlarni amalga oshiribgina qolmay, balki bu sohaga keng hamrovli investitsiyalarni olib kirish lozim. Investitsiyalar qishloq xo`jaligini barharor rivojlantirishda muqim omil bo`lib, u kengaytirilgan takror ishlab chiharish asosini tashkil yetadi. Qishloq xo`jaligi sohasida samaradorlikka yerishish, meqnat unumdorligini oshirish, qo`l meqnatini qishartirish, mahsulot tannarhini kamaytirish, qishloq aholisi turmush darajasini yanada oshirishda, qolaversa, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va qishloq xo`jaligi mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatlarini oshirishda, mamlakatning oziq-ovqat ta`minotida investitsiyalarning o`rni va ahamiyati juda katta.

SHu bilan birga agrar sohani isloq qilish jarayonida yuzaga kelgan qator muammolar qishloq xo`jaligining barharor rivojlanishiga salbiy ta`sir ko`rsatmoqda. Er va suv resurslaridan foydalanish samaradorligining pastligi, qishloqda tez sur`atlarda o`sib borayotgan meqnat resurslarini ish bilan ta`minlashning talab darajasida emasligi, fermer ho`jaliklarining bozor

sharoitlariga moslashish jarayonlarining sust kechayotganligi, qayta ishlash sanoatining yahshi rivojlanmaganligi, eksport salohiyatining pastligi va boshhalar ana shunday muammolar jumlasidandir.

SHu munosabat bilan O`zbekiston Respublikasi birinchi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta`kidlaganidek, "... mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini tubdan hal yetish lozim. ... Bu ustuvor vazifani bajarish maqsadida fermer va deqqon ho`jaliklarini rivojlantirish orhali qishloqda yegalik tuyqusini qayta tiklash yuzasidan, hususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yuzasidan qabul qilgan harorlarimiz qayotda to`la ro`yobga chiqishi uchun barcha ishni qilishimiz lozim"¹.

Su o`rinda Mamlakatimiz prezidenti SH.Mirziyoev ta`kidlab o`tganidek, "...To'rtinchi vazifa – meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish. Bosh vazir o'rinbosari Z.Mirzaevga 15 kun muddatda o'tgan yili 650 million dollarlik meva-sabzavot eksport qilinmay qolgani sabablarini atroflicha tahlil qilib, aniq takliflar kiritish topshiriladi.

Bu borada mamlakatimizdagi meva-sabzavot yetishtirishga ixtisoslashgan 66 ta tumanning salohiyati va imkoniyatlarini ham so'zsiz hisobga olish zarur. Endi ushbu tumanlar hokimlari, ularning o'rinbosarlari va tumandagi barcha rahbarlar prognoz ko'rsatkichlariga erishish uchun to'g'ridan-to'g'ri javobgardir."²

So`nggi yillarda qishloq xo`jaligi rivojlanishida kuzatilayotgan salbiy natijalarni bartaraf yetish, ishlab chiharish samaradorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiharilayotgan mahsulotlarni nobud qilmasdan qayta ishlash, tayyor mahsulot ko`rinishida jaqon bozoriga chiharish va agrar sohada chuqur tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirishning respublikamiz iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga yega yekanligi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Jahon aholisining o'sib borishi va qishloq xo'jalik mahsulotlari bozoridagi raqobatning kuchayishi sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlashni ratsional tashkil qilish hamda sovitgichlarda saqlangan mahsulotlar, ayniqsa meva-

¹ Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda - T.: O`zbekiston, 1999. - 26 b.

² "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi» gazetasi. 14.01. 2017y.

sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini iste'molchilarga sifatli tarzda yetkazib berish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Birlashgan millatlar tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha qariyb 1,3 mlrd. tonna miqdoridagi salkam 1,0 trl. dollarlik oziq-ovqat mahsulotlari shu tariqa boy beriladi³.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va sotish xizmatlarini zamonaviy talablar asosida samarali rivojlantirishga, ichki iste'mol bozorini qish-bahor mavsumida barqaror ta'minlash va sohaning eksport imkoniyatini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada amalga oshirilgan dasturiy chora-tadbirlar bugungi kunda «yil davomida narxlarning mavsumiy keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymasdan, aholini asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash hamda ushbu mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish, narx-navo barqarorligini saqlash imkonini bermoqda»⁴. Ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlari kabi mahsulotlarning eksporti yo'lga qo'yilib, bu yo'nalishda sezilarli natijalarga erishildi. 2014 yil 7 iyunda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan «O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zahiralarini» mavzusidagi xalqaro konferentsiyada ta'kidlanganidek: «Hozirgi vaqtda biz umumiy qiymati qariyb 5 mlrd. dollar bo'lgan oziq-ovqat, birinchi navbatda, mevasabzavot mahsulotlarini eksport qilmoqdamiz. So'ngi uch yilda eksport qilinayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi 3 barobardan ziyod oshdi»⁵.

O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan birga ularni nobud qilmasdan saqlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yangi meva-sabzavot mahsulotlari, kartoshka, poliz mahsulotlari va uzum xarid qilish yuzasidan davlat buyurtmasi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida” 2016 yil 15 iyundagi 206-son Qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida Vazirlar Mahkamasining

³ Islom Karimovning 2014 yil 9 iyundagi «O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zahiralarini» mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutqi. // “Xalq so'zi” gazetasi, 2014 yil 15 iyun., www.press-service.uz/ru/news.

⁴ Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir”.//“Xalq so'zi” gazetasi. 2016 yil 16 yanvar – 2 bet.

⁵ Islom Karimovning 2014 yil 9 iyundagi «O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zahiralarini» mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutqi. // “Xalq so'zi” gazetasi, 2014 yil 15 iyun`. www.press-service.uz/ru/news.

2017 yil 12 maydagi 271-son Qarori,⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Meva-sabzavot, kartoshka, poliz mahsulotlari va uzumni xarid qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»⁷ 2017 yil 6 yanvardagi PQ-2717-son Qaroriga muvofiq, shuningdek zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida kontraktatsiya shartnomalarining tuzilishi va ularning bajarilishini hisobga olish va monitoringini olib borishning elektron tizimini ishlab chiqish va joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2015-2023 yillar mobaynida meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va saqlash bo'yicha infratuzilmani takomillashtirish uchun 1 mlrd. AQSh dollari, shu jumladan mahsulotlarni saqlash tizimini rivojlantirishga 260 mln. AQSh dollari miqdorida investitsiya sarflash rejalashtirilgan⁸.

Bugungi kunda jahon miqyosida qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va sotish sohalarini samarali rivojlantirish, sovitgichlarda saqlanadigan mahsulotlarning sifatligini ta'minlash yuzasidan maqsadli Bitiruv malakaviy ishlar keng miqyosda olib borilmoqda. Bu borada ichki va jahon bozorlaridagi kon'yunktura o'zgarishini inobatga olgan holda mahsulot ishlab chiqarish va saqlash parametrlarini optimallashtirish, saqlash va qayta ishlash korxonalarini yuqori sifatli xomashyo bilan uzluksiz ta'minlash, mavsumiy talablarni e'tiborga olgan holda aholiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini barqaror yetkazib berish, bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlarning turlarini kengaytirish, mahsulotlarni kichik va optimal hajmdagi sovitgichlarda sifatli saqlashni ta'minlash kabilar yuzasidan Bitiruv malakaviy ishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, mahsulotni saqlash va transportda tashishda tabiiy yo'qotish normativlarini hamda sohani samarali rivojlantirishga oid iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash va sotish xizmatlari samaradorligini baholashning integral ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, mahsulot sifatini saqlash jarayonini ratsional tashkil qilish va sarf-xarajatlarni

⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 12 maydagi 271-son Qarori

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 6 yanvardagi PQ-2717-son Qarori

⁸ www.nuz.uz

optimallashtirish, muzlatkichdan olingan meva-sabzavot mahsulotlarini chakana savdo korxonalarida saqlashning optimal sharoitlarini belgilash, avvaldan belgilangan parametrlar asosida mahsulotlarni saqlash optimal hajmining prognoz ko'rsatikichlarini asoslash hamda mahsulotlarni saqlash va sotish xizmatlari samaradorligini oshirishda sinergetik samaradorlik va klaster yondoshuvlarni samarali qo'llash yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar ko'lemi yanada kengaytirilmoqda. Shu jihatdan ham mazkur Bitiruv malakaviy ishi mavzusi o'zining dolzarbligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2016 yil 12 apreldagi «Meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini xarid qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-345-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 26 fevraldagi «2016-2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi 55-sonli Qarori, 2017-2021 yillarga muljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu Bitiruv malakaviy ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va sotish xizmatlari samaradorligini oshirish masalalari xorijlik olimlar A.I.Brestskiy, M.A.Vaxrushina, A.M.Gremonkov, G.N.Kabushinskaya,

S.M.Levko, Kassv Kubayo Seko, Sang Hyo Kim, Uest Lafayett, I.D.Mixalaki, G.N.Kabushinskaya, Osami Arakava, O.M.Petrushina⁹ ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, R.Oripov, I.Sulaymonov, E.Umirzoqov, G'.H.Qudratov, M.Q.Pardaev, K.B.Urazov, M.M.Muhammedov, Q.J.Mirzaev,

⁹Disser.tsutmb.ru., <http://www.dissercat.com>., <http://www.dissercat.com>., [dlin.rsl.ru/Coaderview](http://www.dissercat.com)., <http://pscgospace/cgiav/org>., <http://setd.ohiolink.edu>., Как торговаться на восточном базаре. Авт. – сост. А.И.Брестский. М.: АСТ; Мн.: Харвест, 2006. – 96 с., Бухгалтерский учет в сфере услуг. Учебник. М.А.Вахрушина, Т.П.Карпова, А.М.Петров и др.- М.: Рид Групп, 2011. – 576 с., <http://setd.ohiolink.edu>., <http://www.dissercat.com>.

I.S.Tuxliev, B.A.Abdukarimov, N.A.Komilova, I.S.Ochilov, J.R.Uraqov, B.Sh.Safarov, Yu.P.O'rinbaeva, Sh.A.Sultonov¹⁰ kabilarning ilmiy izlanishlarida xizmatlarning umumiy masalalari, meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va sotish xizmatlari samaradorligini oshirish bilan bog'liq muammolar yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: mahsulotlarni saqlash va sotish xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat:

- qishloq xo'jaligining o'ziga hos xususiyatlarini yoritib berish;
- mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan tarkibiy islohatlar yo'nalishlarini taqlil qilish;
- fermer ho'jaliklarini rivojlantirish agrar sohada tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirishning muhim omili yekanligini asoslab berish;
- qishloq xo'jaligida sabzavot mahsulotlari etishtirishni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini tahlil qilib berish;
- sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash soha rivojining muqim omillaridan biri yekanligini asoslab berish;
- qishloq ho'jalik mahsulotlari eksport salohiyatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni taqlil qilish;

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari: mahsulotlarni saqlash va sotish xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy-metodologik asoslarini zamonaviy talablar asosida tadqiq qilib, uni takomillashtirish, jumladan sohaga oid atama va tushunchalar mohiyatini yanada aniqlashtirish; jahon ilg'or tajribasi va mamlakatimizda mahsulotlarni saqlash va sotish bilan bog'liq xizmatlar masalalarini qiyosiy tadqiq etish va samaradorlikni oshirish bo'yicha tashkiliy-

¹⁰ Qudratov G.H., Abdukarimov B.A., Pardaev M.Q. va boshqalar. Savdo iqtisodiyoti muammolari. O'quv qo'llanma. – T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2016. – 508 betu, Oripov R va boshq. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi: Darslik.- T.: Mehnat, 1991. – 296 b., Abdukarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik. 2-nashr.– T.: ” IQTISOD-MOLIYA”, 2010. – 384 b., Abdukarimov B.A., Komilova N.A., Abdukarimov F.B. Aktual'nie voprosi razvitiya trgovli v Uzbekistane. Monografiya. – T.: “Iqtisodiyot”, 2010. – 96 b. ,Pardaev M.Q., Ochilov I.S. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llari. Monografiya. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2011. – 172 b., Pardaev M.Q., Mirzaev Q.J., Ochilov I.S. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. – 384 b.,Pardaev M.Q. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoining ayrim muammolari. – T.: “Navro'z” nashriyoti, 2014. – 264 bet., Uraqov J.R. Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini oshirish. Monografiya. – T.: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2013. – 127 bet., O'rinbaeva YU.P. Xizmat ko'rsatish sohasi va aholi turmush darajasi: o'zaro bog'liqligi va rivojlanish istiqblari. Monografiya. – T.: “Fan” nashriyoti, 2013. – 144 bet., Sultonov SH.A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: hududiy muammolar va yechimlar. Monografiya. – T.: “Navro'z” nashriyoti, 2013. – 7-19 betlar.

iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish; xo'jalik su'bektlari, fermer xo'jaliklari va dehqonning investitsiyasi va oladigan daromadlarining qancha davrda qoplanishini sarmoyalarni maqsadli yo'naltirish va samaradorlik ko'rsatkichlari negizida xarajatlarni optimallashtirish yo'llarini ishlab chiqish; mahsulotlarni saqlash va sotish bilan bog'liq xizmatlar samaradorligini ifodalovchi individual va integral ko'rsatkichlar tizimini va shular asosida kompleks ko'rsatkichni aniqlash usulini ishlab chiqish; mahsulotlarni saqlash va sotish bilan bog'liq xizmatlar samaradorligini oshirishning mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi o'ziga xos o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va ularning bugungi kundagi holatini tahlil qilgan holda tegishli taklif va tavsiyalarni asoslash; qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi hamda mahsulotlarni saqlash va ularni sotish xizmatlari samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan sohani samarali rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlarini asoslash.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti sifatida respublikaning mamlakatimiz viloyatlarida faoliyat ko'rsatayotgan meva-sabzovot mahsulotlarini saqlash va sotish xizmatlarini ko'rsatuvchi sub'ektlar olingan.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti mahsulotlarni saqlash va sotish xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Ishining tuzilishi. Kirish, uch bob, 7 bo'lim, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat.

Bitiruv malakaviy ishi yozishda O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Farmon va harorlar, respublikamiz prezidenti Islom Abduqanievich Karimovning asarlari, ma'ruzalari, ayniqsa "Jaon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf yetishning yo'llari va choralari" kitobidan keng foydalanildi. SHu bilan birga mavzuga doir ilmiy adabiyotlar, maqolalar, internet ma'lumotlari, Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi, iqtisodiyot boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalanib bitiruv malakaviy ishi keng yoritildi va tahlil qilib chiqildi.

1 BOB. Qishloq xo`jaligini rivojlantirish bosqichlari va modernizatsiyalash jarayonlarini rivojlantirish asoslari.

1.1. Qishloq xo`jaligining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o`rni va ahamiyati.

Qishloq xo`jaligi – O`zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog`i hisoblanadi. Bu tarmoq mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarini esa xomashyoga bo`lgan talabini qondiradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foiziga yaqini agrar sektor tarmoqlarida tayyorlanadi. qishloq xo`jaligi iste'mol bozoriga barcha turdagi oziq-ovqat mahsulotlari hamda paxtani qayta ishlash, yog`-moy sanoatiga xomashyo yetkazib berishi bilan birga, qishloq xo`jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati va boshqa sanoat tarmoqlari mahsulotlari uchun kafolatli bozor bo`lib ham hisoblanadi.

2015 yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining 16,6 foizi qishloq xo`jaligi hissasiga to`g`ri keldi. Shu jihatdan qishloq xo`jaligini rivojlantirish respublikamizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlaridan biri bo`lib kelmoqda.

Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.Karimov aytganlaridek, "...Mamlakatimiz qishloq xo`jaligida ham chuqur tarkibiy o`zgarishlar amalga oshirilmoqda. Murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, fermer va dehqonlarimizning fidokorona mehnati va omilkorligi tufayli o`tgan yili mo`l hosil yetishtirildi – 7 million 500 ming tonnadan ziyod g`alla, 3 million 350 ming tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi.

Ta`kidlash kerakki, bunday mo`l hosil asosan qishloq xo`jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish, seleksiya ishlarini yaxshilash, g`o`za va boshoqli don ekinlarining rayonlashtirilgan navlarini joriy qilish, zamonaviy agrotexnologiyalarni o`zlashtirish evaziga ta`minlandi.¹¹

Mamlakatimizda bug`doydan gektaridan o`rtacha 55 sentner hosil olingani, ayrim tumanlarda bu ko`rsatkich 60-77 sentnerni tashkil etgani, hech shubhasiz, fermerlarimizning ulkan yutug`idir.

¹¹ O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi (O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 2017 yil 6-fevral

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligining meva-sabzavotchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik va chorvachilik kabi tarmoqlari ham jadal sur‘atlarda rivojlandi. O‘tgan yili 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva yetishtirildi.

Qishloq xo‘jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari deb nomlangan 3 –yo‘nalishining 3.2 va 3.3 bandlarida alohida to‘xtalib o‘tilgan:

“3.2. Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

milliy iqtisodiyotning mutanosibli va barqarorligini ta‘minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko‘rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko‘paytirish;

ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

printsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;

ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rni bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish;

xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;

eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

paxta va boshqali don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;

fermer xo'jaliklari, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyoy, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish;

sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya ob'ektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish;

kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi selektsiya navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish.¹²

¹² Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда) 2017 йил 6-феврал.

O'tgan yili qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan 230 ta korxonalar, 77 ming 800 tonna sig'imga ega bo'lgan 114 ta yangi sovutish kamerasi tashkil etildi va modernizatsiya qilindi. Mamlakatimizda meva-sabzavotlarni saqlashning umumiy quvvati 832 ming tonnaga yetkazildi. Bu esa, yil davomida narxlarning mavsumiy keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymasdan, aholini asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, ushbu mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish, narx-navo barqarorligini saqlash imkonini bermoqda.¹³

Mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tarmog'i muhim ahamiyatga ega. Chunki respublikamiz aholisining 48,4 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi va ularning turmush farovonligi mazkur tarmoq rivoji bilan uzviy bog'liqdir. Bundan tashqari mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida hamqishloq xo'jaligi tarmog'i sezilarli salmoqqa ega.

Qishloq xo'jaligi tarmog'i mamlakatimiz agrosanoat majmuasining muhim bo'g'ini bo'lib, uning quyidagi ahamiyati mavjud:

Birinchi, u aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda mazkur tarmoqning o'rni beqiyosdir, chunki aholi iste'mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari asosan qishloq xo'jaligi tarmog'ida yetishtiriladi.

Ikkinchi, qishloq xo'jaligi yengil va oziq-ovqat sanoati uchun xom ashyoning asosiy qismini yetkazib beradi. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanish darajasi sanoat ushbu sohalarining ishlab chiqarish miqdori va samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi mamlakat og'ir sanoatining rivojlanish sur'atiga va darajasiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi tarmog'i yirik miqdorda ishlab chiqarish vositalarini iste'mol qilgani holda, qishloq xo'jalik texnikalari va melioratsiya mashinalari ishlab chiqaruvchilar hamda qishloq xo'jalik mashinasozligi, kimyo sanoati, ayniqsa mineral o'g'itlar

¹³ Karimov I.A. "2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir" Vazirlar Mahkamasidagi ma'ruzasi. // "Xalq so'zi" 2015 yil. 17 yanvar.

ishlab chiqarishga faol ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ketadigan moddiy xarajatlarning asosiy qismini sanoat tarmog'i yetkazib beradigan ishlab chiqarish vositalari tashkil qiladi (YoMM, ehtiyot qismlar, mineral o'g'it, omuxta yem va boshqalar).

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligi tarmog'i mehnat resurslarini ish bilan ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 50 foizga yaqini qishloq joylarda istiqomat qiladi. Aholini ish bilan ta'minlash, ularning turmush farovonligini oshirish ko'p jihatdan mazkur tarmoqda amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloqotlarning natijalariga bevosita bog'liqdir. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligida band bo'lganlarning jami mehnat resurslaridagi salmog'i pasaygan bo'lsada, ushbu tarmoq qishloq aholisini ish bilan ta'minlash va ularning turmush farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi roli yana Shu bilan aniqlanadiki, u mamlakatning iqtisodiy salohiyatini belgilab beruvchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda hamsezilarli salmoqqa ega. Bu tarmoqda mamlakat yalpi ichki mahsulotining salmoqli qismi yaratiladi. 2015 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 16,6 foizi qishloq xo'jaligi tarmog'ida yaratilgan. Kelajakda boshqa tarmoqlar izchil rivojlanishi natijasida qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi kamayishi mumkin. Lekin mamlakatimiz iqtisodiyotida mazkur tarmoqning o'рни va ahamiyati sezilarli darajada qolaveradi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari va ularni qayta ishlash hisobiga olingan mahsulotlar mamlakatimiz jami eksporti tarkibida sezilarli salmoqni egallaydi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlarni shakllantiradigan, huquqiy, tashqiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minlash imkoniyatini beradigan tadbirlar ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda. Bunda sohaga oid turli dasturlarning qabul qilinib, hayotga tatbiq etilishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijada qishloq xo'jaligining yuqori sur'atlarda rivojlanishini ta'minlash va shu orqali respublika iqtisodiyotini yuksaltirishga erishilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari mavjud:

a) qishloq xo‘jaligida tabiiy omillarning ta’siri kuchli. Tarmoqda ishlab chiqarish jarayoniga harorat, yog‘ingarchilik, shamol va boshqa tabiiy omillar o‘z ta’sirini o‘tkazadi;

b) qishloq xo‘jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Boshqa tarmoqlarga nisbatan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida yerning ahamiyati juda katta, chunki mazkur tarmoqda ishlab chiqarish jarayoni bevosita yerda amalga oshadi. yerga urug‘ sepiladi va yerda mahsulot yetishtiriladi. yerdan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud, ularni inkor etish yoki yetarlicha e’tibor bermaslik salbiy oqibatlarga olib keladi;

d) qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish juda keng maydonlarda amalga oshiriladi. Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarishni tashqil etishda ma’lum talablarni keltirib chiqaradi;

e) qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ishlab chiqarish mavsumiy xususiyatga ega. Mahsulot yetishtirishda o‘simliklar va chorva mollari ma’lum vegetatsion davrning o‘tishini taqozo etadi. Bu holat tarmoqda xarajatlar va faoliyat natijasida olinadigan daromadlar muddati o‘rtasidagi farqning katta bo‘lishiga olib keladi. Masalan, paxta yetishtirishda ishlab chiqarish jarayoni erta bahorda boshlanib, kuzda nihoyasiga yetadi. Bundan tashqari ishlab chiqarishning mavsumiyligi tarmoqda mavjud resurslardan yil davomida samarali foydalanishni tashqil etishni taqozo etadi. Qish oylarida mehnat resurslarini ish bilan ta’minlash uchun tarmoqda tadbirkorlikning boshqa shakllarini ham rivojlantirish talab etiladi;

f) ishlab chiqarish jarayonida tirik organizmlar ham mehnat vositalari sifatida qatnashadi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida mehnat qilayotgan mutaxassislar o‘simlik va hayvonlarning biologik hamda zoologik xususiyatlarini ham bilishi, ishlab chiqarish jarayonida ularni hisobga olishi talab qilinadi. Qishloq xo‘jaligida sarflanayotgan mehnatning samarasi ko‘p jihatdan o‘simlik va chorva mollarining biologik imkoniyatlariga bog‘liq;

g) qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotning bir qismi tarmoqning o‘zida urug‘lik, yem-xashak, oziq-ovqat va boshqa maqsadlarda ishlatiladi;

h) qishloq xo‘jalik mahsulotlarining ayrim turlarini uzoq muddat saqlash imkoniyatlari cheklangan va tashish uchun noqulaydir. Bu muammo qishloq xo‘jalik mahsulotlarining deyarli bir vaqtda pishib yetilishi oqibatida yanada chuqurlashadi. Bu o‘z navbatida yetishtirilgan mahsulotni nobud qilmaslik uchun tayyorlovchi, saqlovchi va qayta ishlovchilarning bir me‘yorda ishlashini, ma’lum davrda katta quvvatlarning bo‘lishini talab qiladi. Yilning qolgan davrlarida esa bu quvvatlarning nisbatan bo‘sh qolishi kuzatiladi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida turli xildagi mahsulotlar yetishtiriladi, ishlar, xizmatlar bajariladi va ular ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqsimlanadi, sotiladi. Mamlakatimiz miqyosida kechayotgan bu jarayonlar erkin bozor munosabatlari asosida amalga oshirilmoqda. Ularni nazariy va amaliy jihatdan talab darajasida hal etish uchun respublikamizda tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Tovar-pul munosabatlariga asoslangan erkin bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish sharoitida davlatning ko‘magida qishloq xo‘jaligida talabga javob beradigan, samarali huquqiy, tashqiliy-iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimi yaratilmoqda, ya’ni mulkchilikning turli shakllari barpo etilmoqda. Natijada erkin mulkiy munosabat vujudga kelmoqda, tadbirkorlikning turli shakllariga keng yo‘l ochib berish va ularni rivojlantirish yo‘lidan borilmoqda. Bundan tashqari yer-suv islohotlari amalga oshirilmoqda, tarmoqning cheklangan ishlab chiqarish resurslari (moddiy, kapital va mehnat)dan samarali foydalanish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish jarayonini takomillashtirish, foyda hajmini oshirish, investitsiyalarni keng jalb etish, ulardan samarali foydalanish, tarmoq ishlab chiqarishini maqsadga muvofiq joylashtirish, ixtisoslashtirish hamda agrosanoat integratsiyasini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar tizimi yaratilib, ular takomillashtirilmoqda va rivojlantirilmoqda. Yuqorida ta’kidlangan iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratishda xalqimiz hamda qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holda tabiiy va iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy kategoriyalar talablaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

Mustaqillik yillarida Prezidentimizning tashabbuslari va bevosita rahnomoligida qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha juda katta va arzigulik ishlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlarini, yangi texnikalarni va ilg'or texnologiyalarni joriy etish ishlari yildan-yilga jadallashib bormoqda. Cheklangan yer va suv resurslaridan, kapitaldan va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi yuksalmoqda. Qishloq xo'jaligida bosqichma-bosqich olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar o'z natijasini bermoqda.

Respublikamiz agrar tarmog'ida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida qishloq xo'jaligining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari barqaror o'sib bormoqda. O'tgan o'n yil davomida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'sish sur'atlari har yili o'rtacha 5 foizdan yuqori bo'ldi.

Mustaqillik yillarida muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari va bevosita rahnomoligida qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha juda katta va arzigulik ishlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlarini, yangi texnikalarni va ilg'or texnologiyalarni joriy etish ishlari yildan-yilga jadallashib bormoqda. Cheklangan yer va suv resurslaridan, kapitaldan va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi yuksalmoqda.

Respublikamiz agrar tarmog'ida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida qishloq xo'jaligining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari barqaror o'sib bormoqda.

2014 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000 yilga nisbatan 2,4 barobar ko'paydi. Faqat o'tgan yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,9 foizga, jumladan, dehqonchilik – 6,5 foizga, chorvachilik – 7,6 foizga o'sdi.

Aytish kerakki, izchil yuqori o'sish sur'atlari bilan birga, yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2000-yilda bu boradagi ko'rsatkich 30,1 foizni tashqil etgan bo'lsa, 2014 yilda faqatgina 15,3 foizni tashqil etdi.

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАРНИНГ НАТИЖАЛАРИ

- 2014 йилда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми 2000 йилга нисбатан 2,4 баробар кўпайди.
- 2014 йилда қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш 6,9 фоизга, жумладан деҳқончилик – 6,5 фоизга, чорвачилик – 7,6 фоизга ўсди.
- Тармоқнинг ЯИМдаги улуши 2000 йилдаги 30,1 фоиздан 2014 йилда 15,3 фоизга пасайди.
- пахтадан бўшаган 30 минг гектардан ортиқ суғориладиган ерда дон экинлари, сабзавот, картошка етиштириш йўлга қўйилди, боғ ва узумзорлар барпо этилди. Натижада 2012-2014 йилларда пахта етиштириш ҳажми сақланган ҳолда, сабзавот етиштириш 16,3 фоиз, поллиз экинлари 16,6 ва мева етиштириш қарийб 21 фоизга ўсди.



ҒАЛЛА
8 миллион 50
минг тонна



ПАХТА
3 миллион
400 миң
тоннадан
зىёд

**Қишлоқ хўжалиги
маҳсулотлари
етиштиришнинг кўпайиши,
2000 йилга нисбатан
баробар**




19

О‘тган 2005-2015 йиллар oralig‘ida qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining o‘rtacha yillik o‘shish sur‘atlari o‘shib borish dinamikasiga ega bo‘ldi. Xususan, bu ko‘rsatkich 2015 yilda 107,0 foizga teng bo‘ldi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotida qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti salmog‘ining 2005 yildagi 26,3 % dan 2015 yilda 16,6 % ga pasayishi ijobiy holdir. Bu holat mamlakat iqtisodiyotida industrial sanoat tarmoqlari va xizmatlarning jadal rivojlanib borayotganligi bilan izohlanadi.

1.1.2-chizma.

Respublikada qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, (% da)¹⁴



Buni avvalambor iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlarning, mamlakatimiz bir paytlardagi agrar respublikadan bosqichma-bosqich ravishda sanoati rivojlangan zamonaviy davlatga aylanib borayotganining yaqqol tasdig'i sifatida qabul qilishimiz darkor.


Mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligining asosiy tayanchi bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish, ishlab chiqarishga yangi va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ekin navlari va chorva mollari zotini yaxshilash, urug'chilik-seleksiya ishlarini tubdan yaxshilash borasida keng qamrovli, Shu bilan birga puxta o'ylangan ishlar amalga oshirildi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining oshishi faqat ekin maydonlarini kengaytirish evaziga emas, balki asosan intensiv rivojlanish, ya'ni ekinlar hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligini oshirish evaziga ta'minlanmoqda.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

1.1.3- chizma.

Respublika bo'yicha asosiy turdagi qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligining o'zgarishi dinamikasi, s/ga¹⁵



Manba: O'zbekiston respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari. Stat.uz

Mustaqillik yillarida asosiy turdagi ekinlarning hosildorligi muttasil o'sib borish sur'atiga ega bo'ldi. Xususan, 2015 yilda 1990 yilga nisbatan paxta hosildorligi gektariga 22,6 sentnerdan 26,6 sentnerga yoki 117,6 % ga, donli ekinlar hosildorligi 20,2 sentnerdan 55 sentnerga yoki 272,2 %ga, kartoshka hosildorligi 80,0 sentnerdan 215,2 sentnerga yoki 269,0 %ga, sabzavotlar hosildorligi 192,0 sentnerdan 264,5 sentnerga yoki 137,7 %ga va poliz hosildorligi 115,0 sentnerdan 198,2 sentnerga yoki 172,3 % ga oshgan.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga qaraganda 1990 yilda respublikamiz aholisi iste'moli uchun zarur bo'lgan g'allaning 82 foizi, go'sht mahsulotlarining 50 foizi, sut va sut mahsulotlarining 60 foizga yaqini, kartoshkaning 50 foizi, shakar va quruq sutning barchasi chetdan keltirilgan bo'lsa, hozirda mamlakatimizda oziq-ovqat masulotlari yetishtirishning barqarorligi hisobiga aholining asosiy iste'mol ma'sulotlariga bo'lgan ehtiyoji deyarli to'liq o'z ishlab chiqarishimiz hisobidan ta'minlanmoqda. Jumladan, agar 1991 yilda aholi jon boshiga hisoblaganda

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

me'yorga nisbatan yetishtirilgan mahsulot hajmi mevada 42,6 %ni, uzumda 93,8 %ni, kartoshkada 29,8 %ni tashqil etgan bo'lsa, 2015 yilga kelib bu ko'rsatkich mevada 129,7 %ni, uzumda 171,5 %ni, sabzavotda 244,2 %ni, kartoshkada 143,2 %ni va polizda 262,1 ni tashqil etdi. 2015 yilda 1991 yilga nisbatan meva ishlab chiqarish hajmi 304,5 %ga, uzum 182,7 %ga, sabzavot 198,9 %ga, kartoshka 479,4 %ga va poliz 129,5 %ga oshganligi bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilganini tasdiqlaydi.

1.1.1-jadval

O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi, kg

Mahsulotlar turi	Me'yor bo'yicha, kg	Haqiqatda, kg		1991 yilda me'yorga nisbatan, %da	2015 yilda	
		1991 yilda	2015 yilda		me'yorga nisbatan, %da	1991 yilga nisbatan, %da
Meva	56,4	24,0	73,1	42,6	129,7	304,5
Uzum	25,6	24,0	43,9	93,8	171,5	182,7
Sabzavot	113,0	138,6	275,7	122,6	243,9	198,9
Kartoshka	50,6	15,1	72,4	29,8	143,1	479,4
Poliz	19,3	39,0	50,5	202,1	261,6	129,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi.

Mustaqillik yillarida agrar sohada bosqichma-bosqich olib borilgan izchil islohotlar tufayli respublikamizda asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini iste'mol qilish miqdori ham barqaror o'sib bormoqda. Jumladan, 2015 yilda aholi jon boshiga go'sht ishlab chiqarish (so'yilgan vaznda) 39,2 kg.ni (talabga nisbatan 95,8 %), sut 261,5 kg.ni (talabga nisbatan 182,8 %), tuxum 142 donani (talabga nisbatan 118,4 %) tashqil etdi.

1.2 Qishloq xo'jaligi mahsulotlari marketingi va uning o'ziga xos xususiyatlari

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri- oziq-ovqat sanoatida bozor munosabatlarini shakllantirish, bosqichma- bosqich rivojlantirish bo'yicha chuqur iqtisodiy islohatlar amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 31 oktyabrdagi PQ–1633-son qarori bilan yangi yog'-moy va oziq-ovqat sanoati korxonalarini, shuningdek go'sht-sut, meva-sabzavot mahsulotlari va uzumni qayta ishlash korxonalarini barpo etish va ishlayotganlarini rekonstruktsiya va modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan 2017 — 2015 yillarda oziq-ovqat sanoatini kengaytirish va rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlanganligi, ular yuzasidan tarmoq jadvallari ishlab chiqilganligi hamda ularni ro'yobga chiqarish bo'yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi mamlakatimizni barcha xududlarida o'zining samarasini bermoqda.

Ichki iste'mol bozorini sifatli oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirishda quyidagi muammolar mavjud:

-qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash darajasi aholining va iqtisodiyot tarmoqlarining tayyor oziq-ovqat tovarlariga bo'lgan talabiga, mavjud imkoniyatlar va resurslarga mos kelmasligi;

- ko'pgina qayta ishlash korxonalarining ishlab turgan quvvatlari ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirib ketgan, ularni yangilash va modernizatsiyalash talab etiladi.

- ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat tovarlarining turlari cheklanib qolmoqda, mahsulot sifati oshib borayotgan talablarga javob bermaydi.

- qayta ishlash korxonalari uchun go'sht va sut yetkazib berayotgan dehqon va fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish, korxonalar-agrofimalarning o'z barqaror xom ashyo bazasini shakllantirish masalalari hal etilmasdan qolmoqda.

Yuqoridagi masallarni xal etishda marketing bugungi kun talabidan kelib chiqqan xolda yuqori jarajadagi marketing vositalarni qo'llashni talab etmoqda.

Mahalliy korxonalarda qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlashni yanada chuqur qayta ishlashni ta'minlash hamda shu asosda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshli, sifatli oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish va ularning turlarini kengaytirish maqsadida bir qator samarali ishlar amalga oshirilib, o'z navbatida rivojlanish strategiyalari ishlab chiqishni belgilab bermoqda

Oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishda fiziologik, tarixiy, milliy, xududiy, iqlim, intellektual xususiyatlarga asoslangan chegarasi mavjud bo'lib, bozorlarning mahsulotlar bilan to'ldirilishi natijasida axolining daromadlari o'sishi kuzatiladi va mahsulotlarga talabning ortiqcha namoyon bo'lmasligini ko'rsatadi. Natijada oziq-ovqat iste'moli uchun sarflangan xarajatlar ulushi kamayadi, daromadlar buyicha salbiy egiluvchanlik kuzatiladi va boshqa tovarlarga e'tibor qaratilib, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish rag'batlantiriladi. Shu sababli xam oziq-ovqat mahsulotlari elastikligi yuqori bo'lmagan.

Oziq-ovqat mahsulotlariga talab nisbatan sekin o'zgaradi va ko'plab omillar, ayrim xollarda umumiy yoki bir mahsulotga tegishli bo'lgan omillar asosida belgilanadi. Masalan, qishloq xo'jaligiga bo'lgan munosabat aholining, dexqon va fermer xo'jaliklariga bo'lgan munosabatlar asosida aniqlanadi. Axoli tomonidan xar doim iste'mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlariga talabning xam takror sodir bo'lishi kuzatiladi. Bu esa tovar ishlab chiqaruvchilar o'z tashabbuslari bilan xar doim mahsulot ishlab chiqarish uchun xarakat qilish bilan belgilanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlariga talab kam egiluvchanlikka egadir, ya'ni narx-navoning keskin kutarilishi, talab miqdorining keskin kamayishiga olib kelmaydi, shu bilan bir vaqtda sotuvchi daromadining ortib borish xolatiga ega bo'ladi. Oziq-ovqat mahsulotlarining taklifi narx-navoning o'zgarishiga xam bog'liq bo'lib, u xarakatchanlik, ya'ni tovar xajmining ko'payish yoki kamayish xususiyatiga ega.

Ayniqsa, o'simlik mahsulotlarida bu yaqqol seziladi, chorvachilik mahsulotlarida esa uzoq muddatli takror ishlab chiqarish bosqichlari mavjuddir.

Ayniqsa, dexqon xo'jaliklari egalari o'zlari yetishtirgan mahsulotlarining bozordagi konyunkturasi yaxshi bilganliklari tufayli, ulardan ayrimlarini ma'lum bir vaqtgacha, ya'ni narx-navoni ko'tarilishi davrigacha ushlab turishi mumkin va natijada yaxshi daromad olishga harakat qiladilar.

Oziq-ovqat mahsulotlari uchun xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri ishlab chiqarishda tabiiy-iqlim sharoitlari va yana boshqa sabablarga ko'ra mo'ljaldagidan ko'ra kamroq xosil olish xolatlarining sodir bo'lishidir. qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tabiiy ob-xavo sharoitlariga bog'liq. Xatto qishloq xo'jaligida eng jadal texnologiyalar qo'llovchi yuqori darajadagi agrar madaniyatga ega bo'lgan mamlakatlarda xam, mahsulot ishlab chiqarish xajmi kutilmagan natijalarni berishi mumkin. qur\oqchilik, suv toshqini, zararkunandalar, mollar va o'simliklarning kasallanishi agrar soxada sarflanadigan kapitalni ololmasligi kuzatilgan. Bunday sharoitda sotishdan kelgan daromad miqdori xam kamayishi mumkin.

Oziq-ovqat mahsulotlariga bozor talabi chegaralangan bo'lib, bozorning to'liq ta'minlanishigacha yetib borishi mumkin. Sanoat va boshqa nooziq-ovqat mahsulotlari cheklanmagan miqdorda iste'mol qilinsa, oziq- ovqat mahsulotlarini faqat ma'lum miqdorgacha iste'mol qilish mumkin, ya'ni foydalilik chegarasi kamayishi qonuni amal qiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlariga xos bo'lgan yuqoridagi kabi xususiyatlarni yana ko'plab aytib o'tish mumkin. Lekin, bizning fikrimizcha, qayd qilingan xolatlarda oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol bozorida sotilishi, axoli extiyojini qondirishda juda katta axamiyatga ega bo'lgan.

Keyingi paytlarda oziq-ovqat majmuasida sodir bo'ladigan bozor munosabatlarida oziq-ovqat mahsulotlari marketingi tushunchasi xam tez-tez ishlatilmoqda. Bunga e'tibor berilishining asosiy sabablaridan biri, axolining jami xarajatlari tarkibida oziq-ovqat xarajatlari salmoqli xissaga egadir. shuning uchun oziq-ovqat mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatda marketing majmuasidan foydalanish zarurligi xaqida nazariya va amaliyotda turli fikrlar bildirilmoqda.

Iqtisodchi-olimlardan J.Rodes oziq-ovqat mahsulotlari marketingi xaqida to'xtalib: «marketing - bu oziq-ovqat va texnika xom-ashyolarini fermer xo'jaligidan bevosita iste'molchigacha bo'lgan faol ish yuritish yoki ish bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlarni ko'plab oladigan xarakatlarning yig'indisidir» deb qarashi diqqatga sazovordir.

O'zbekiston sharoitida esa, oziq-ovqat mahsulotlarining axoliga yetkazib beriladigan qismining salmoqli xissasi savdo va u asosan iste'mol bozorlarida tashkil qilingan ayirboshlash zimmasiga tushishini xisobga olib, bu masalaga marketing nuqtai nazaridan yondashish jixatlari hozirgi zamon talablaridan kelib chiqadi. Chunki shu davrga qadar mavjud ilmiy izlanishlarda oziq-ovqat tovarlari bozori marketingi xaqida gapirilmagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuning uchun xam bu masalaga o'z e'tiborimizni qaratib, shuni ta'kidlaymizki, chakana savdo marketingi, u yoki bu xududda amalga oshiriladigan savdo-sotiq jarayonini yo'lga qo'yish, unga jalb qilingan va qilinadigan sub'ektlar qiziqishini o'ziga qaratgan xolda, bozor xududining obro'yini oshirishdan iboratdir.

Oziq-ovqat tovarlar bozoridagi marketing faoliyati iqtisodiyotning taqsimot funksiyasiga tegishli bo'lib, sotuvchilar va iste'molchilarga xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yadi, axolining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab-extiyojini qondiradi va uning bu funksiyasi uni boshqa ijtimoiy institutlardan ajratib, quyidagi ayrim xususiyatlar:

insonning xatti- xarakati ratsional bo'lib, aniq maqsadlar uchun yo'naltirilgan;

savdo jarayonida tomonlar o'zlari uchun eng maqbul bo'lgan yuqori darajadagi moddiy manfaatni ko'zlaydi;

ular mavjud bo'lgan ayirboshlash variantlari xaqida to'liq ma'lumotga egadir;

ayirboshlash jarayoni tashqi ta'sirlarga nisbatan bog'liq bo'lmasdan, eng muhimi, makon va zamondagi konyunktura darajasi va xokazolar bilan belgilanadi.

Oziq-ovqatlar assortiment guruhlari:

- don va don mahsulotlari;

- qandolat mahsulotlari;
- meva va sabzavotlar;
- lazziatli mahsulotlar;
- sut va sut mahsulotlari;
- go'sht va go'sht mahsulotlari;
- tuxum va tuxum mahsulotlari;
- baliq va baliq mahsulotlariga ajratishimiz mumkin.

Oziq-ovqat tovarlarini turkumlashda ularning har xil xususiyatlari hisobga olinadi:

paydo bo'lishi;

kimyoviy tarkibi;

xom ashyoning qayta ishlanganlik darajasi;

foydalanilishiga qarab va boshqalar.

Masalan, kelib chiqishiga qarab hamma oziq-ovqatlarni - o'simlik mahsulotlari yoki hayvon mahsulotlariga, kimyoviy tarkibi bo'yicha esa oqsilli, yog'li yoki uglevodga boy mahsulotlarga, qayta ishlanganligiga qarab esa xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlarga, ishlatilishiga qarab esa ozuqaviy hamda lazziatli mahsulotlarga bo'lish mumkin. Ammo oziq-ovqat mahsulotlarini bunday turkumlashda ham ayrim kamchiliklar mavjuddir. Masalan, hozirgi kunda ba'zi oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashda ham o'simlik, ham hayvon mahsulotlari ishlatiladi yoki bo'lmasa oqsilga boy mahsulotlar tarkibida yog'lar ham, uglevodlar ham ma'lum darajada uchraydi. Lazziatli mahsulotlar turkumiga kiradigan ba'zi tovarlar ozuqaviylik qiymatiga ham egadir.

Turlarga bo'lishda ularning kelib chiqishi va ishlab chiqarishdagi belgilari hisobga olinadi. Mahsulotlarni navlarga ajratish o'ziga xos jarayon hisoblanib, bu yerda asosiy talab davlat standarti tomonidan ko'rsatiladi va unga og'ishmay amal qilish talab qilinadi.

1.3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo'jaligi tarmoqlari rivojlanishining tabiiy-iqtisodiy sharoitlari

Qishloq xo'jaligining iqtisodiy sharoiti tahlil etilayotganida uning joylashgan yeri, tuman va viloyat markaziga, temir yo'l stantsiyasiga, mahsulot topshiriladigan va sotadigan omborga yaqin-uzoqligi e'tiborga olinadi. yer-suv, mehnat va moddiy-texnika resurslari, turarjoy, madaniy-maishiy binolar bilan ta'minlanganligi, ularning gazlashtirilganlik va telefonlashtirilganlik darajasi o'rganiladi. Chunki ayni shu omillar ko'p va arzon qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish imkonini beradi; shahar aholisining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga, jamoa, davlat, shirkat xo'jaliklarida sutchilik, mevachilik, uzumchilik va sabzavot yetishtirish tarmoqlarini rivojlantirishga sharoit yaratadi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirishda yuk tashish sharoitlari ham hisobga olinishi kerak. Ulov vositalari talab doirasida bo'lmasa, sut, sabzavot, kartoshka va sifati tez buziladigan boshqa mahsulotlarni o'z vaqtida manzilga yetkazib berish va sotish qiyinlashadi. Mahsulot sifati buzilishi natijasida korxonada iqtisodiy zarar ko'radi.

Dunyodagi industrial mamlakatlardagi iqtisodiy taraqqiyot zaminida, avvalo, mehnatni tashkil etish, uni korxonalariga foyda keltiradigan sohalarga yo'naltirish natijasida har bir korxonada va firma katta daromad olmoqda. Bir-biriga har tomonlama yordamlashadigan, psixologik, astrologik jihatlardan bir-biriga mos keladigan kishilarni tanlab olish natijasida tashkil etilgan jamoa doimo taraqqiyot sari intiladi, jamoa a'zolari tadbirkorni yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga joriy etish uchun yaqindan yordam beradi.

Har bir korxonada egasi korxonasining iqtisodiy faoliyati rivojini ta'minlash uchun ishlovchilarni tanlab olish orqali ularning har biriga bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab beradi, o'z navbatida, bajarilgan ishni qabul qilish tadbirkor zimmasiga tushadi.

Bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida mehnat unumdorligi yuqori

bo'lishini ta'minlash qishloq xo'jaligini rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Busiz tarmoqda mahsulot yetishtirishni ko'paytirishga, tannarxini arzonlashtirishga erishib bo'lmaydi. Mehnat unumdorligini oshirish uchun, avvalo, ichki xo'jalik ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish lozim. O'z xarajatlarini o'zi qoplash birlamchi ishlab chiqarish bo'limlari darajasida amalga oshirilishi zarur.

Keyingi yillarda, sohada mehnat intizomini mustahkamlash evaziga mehnatni turlicha tashkil etish, ish vaqtini behuda sarflamaslik, rejalashtirishni takomillashtirish, malaka oshirish kabi, umuman, mehnat va ishlab chiqarishga ijobiy ta'sir qiluvchi ko'plab samarali shakl va uslublar yuzaga keldi. Mehnatni samarali tashkil qilishga, tabiiyki, texnika va texnologik jarayonlarni takomillashtirmasdan turib erisha olmaymiz. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga faqat mehnatni tashkil qilishni ilmiy va amaliy natijalar asosida takomillashtirish evaziga erishamiz, deydigan olim va amaliyotchilar fikriga to'la qo'shilamiz.

Ma'lumki, totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik davri boshqaruv tizimi bir xo'jalikda mehnatni tashkil qilishning turli shakllarini joriy qilishni taqozo etdi. Korxonalar uchun mehnatni tashkil etishning ilg'or usullari, avvalo, ularning ixtisoslashishi, markazlashishi, rivojlanish yo'nalishlari, aholi punktlarining joylashishi, hududning xususiyatlari va texnika bilan qurollanganligi, qisqasi, mexnizatsiyalash darajasi bo'yicha tanlanadi. Bularning barchasi ishlab chiqarish shakllarini takomillashtirishga bevosita bog'liq.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotining shakllanishi va ASMning unga o'tishi sohada ishlab chiqarishni takomillashtirishni taqozo etdi. Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimi o'zini oqlamadi, aksincha, bozor iqtisodiyoti qishloq xo'jaligida mehnatning ijara shaklini yuzaga keltirdi. Amaldagi ishlab chiqarish shakllari mehnatkashlarni yer va ishlab chiqarishdan chetlashtirgan edi. Negaki, sho'ro davrida sohada iqtisodiy munosabatlar ularning faol, tadbirkorona faoliyatlarini rag'batlantira olmadi. Mehnatni tashkil qilishning ijara shakli hozirgi kunda respublikada mehnat ahlining erkin faoliyat yuritishi

uchun barcha imkoniyatlarni yaratdi. Dehqonlarning yer bilan tillashib ishlashini tiklay boshladi. Bu ijara munosabatlari mohiyatining asosidir.

Ijara shaklidagi ishlab chiqarish va boshqaruv tizimi qishloq xo'jaligi xodimlarining ijtimoiy sharoitlarini yaxshilaydi, shuningdek, erkinlik, tadbirkorlik va mulkka egalik tuyg'ularini shakllantiradi. Ishlab chiqarish samaradorligi korxonalarining o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlashi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ishchi o'rinlarining tarkibi va xususiyatini belgilash, qishloqlarda yashovchilar muammosini hal qilishga yordam beradi, bir so'z bilan aytganda, ijara shakli agrar sektorning ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatda qishloq xo'jaligi ob'ekt sifatida qator xususiyatlarga ega. Xususan, qishloq xo'jaligi mehnatida o'ziga xos ishlab chiqarish vositasi sifatida yerdan foydalaniladi, mehnat sifatiga alohida munosabat talab qilinadi. Qishloq xo'jaligida ishchi ish tajribasiga ega bo'lishi o'ta muhimdir. Agrar sektorning ikkinchi muhim xususiyati shundaki, uning ijtimoiy tarkibi o'ziga xos. Bu yerda bozor iqtisodiyoti sharoitida turli iqtisodiy munosabatlarga xos shakllardagi xo'jaliklar faoliyat yuritadi. Bunday sharoitda, ya'ni ishlab chiqarish va boshqaruv shakllari o'rtasidagi sog'lom muhit xo'jalikning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi. Sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimi bunday xususiyatlarni inobatga olmadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonidagi xo'jalik yuritish amaliyotida jamoa mulkchiligining yangi shakllari yuzaga keladi. Xususan, mulk davlat tasarrufidan chiqarilishi tufayli mulkchilikning turli shakllari shakllanib, samarali faoliyat yuritmoqda. Ijara mehnatni tashkil qilishning ilg'or shakllaridan biri ekanligi amalda tasdiqlandi. Bozor iqtisodiyoti davrida turli shakldagi mulkning bo'lishi tufayli jamiyatda ijtimoiy adolat tiklanadi, «har kimning qobiliyatiga yarasha, har kimning mehnatiga yarasha» tamoyili o'z qadriga ega bo'ladi.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti respublikamizni sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'taruvchi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari zarurligini, chunonchi, qishloq xo'jaligi va unga bog'liq tarmoqlarni ustuvor rivojlantirish, hozirgi bosqichda yerni sotishga yo'l qo'ymasdan, davlat

mulkchiligini saqlash kerakligini ta'kidlaganlar. Agrar islohotlarning dastlabki bosqichlarida Prezidentimiz qishloqda ishlab chiqarishning haqiqiy kooperativ shaklini tashkil qilish masalasini olg'a surmoqda.

Zarar ko'rayotgan davlat xo'jaliklari dastlab jamoa xo'jaliklariga aylantirildi. Hozirgi kunda bunday xo'jaliklar dehqon va fermer xo'jaliklari, kichik korxonalar, oilaviy pudrat va ijara jamoalariga asoslangan yirik kooperativ xo'jaliklarga aylantirilmoqda.

Zero I.A.Karimov qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohatlar va uning samarasi haqida o'z ma'ruzalarida to'xtalib o'tdi, "Qishloqlarimiz hayotida yuksak natijalarga erishishda, avvalo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy shakli sifatida fermerlikni yo'lga qo'yganimiz va uning rivoji uchun keng imkoniyatlar ochib berganimiz hal qiluvchi rol o'ynadi."¹⁶

Bugungi fermer xo'jaliklari samarali faoliyat yuritish uchun o'z ixtiyorida ijara asosidagi yetarlicha ekin maydonlariga ega bo'lgan, yuksak samarali zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, ilg'or texnologiyalarni puxta egallagan yirik xo'jaliklardir. Muxtasar aytganda, ular qishloqlarimizning tayanch ustunidir.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birga, ularni chuqur qayta ishlash, qurilish ishlarini amalga oshirish va qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarda samarali faoliyat ko'rsatmoqda va o'z istiqbolini topmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda bunday fermer xo'jaliklarining soni 18 mingdan ziyodni tashkil etmoqda.

YUrtimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning kelajagi haqida gapirganda, yer va suv resurslari bo'yicha imkoniyatlarimiz cheklanganini hisobga olib, bu borada yagona to'g'ri yo'l – qishloq xo'jaligini intensiv asosda rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash, selektsiya ishlarini chuqurlashtirish, yuksak samarali zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va suvdan oqilona foydalanish, eng muhimi – dehqon va fermerlarning dardi bilan yashash, desam, o'ylaymanki, barchangiz mening fikrimga qo'shilasiz.

Faqat yerga mehr, uning unumdorligini oshirish va birinchi navbatda dehqon

¹⁶ Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. Xalq so'zi gazetasi. 19.01.2014 y.

va fermerga doimiy e'tibor, ularning manfaati haqida g'amxo'rlik qilish – bu qishloqni va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish bo'yicha biz tanlagan yo'ldir.

2008 yildan boshlab mamlakatimizda qariyb 1 million 700 ming gektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi, yer osti suvlari yuqori bo'lgan maydonlar 415 ming gektarga yoki salkam 10 foizga qisqardi, kuchli va o'rtacha sho'rlangan maydonlar 113 ming gektarga kamaydi.

Xabaringiz bor, 2017-2017 yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar davlat dasturi qabul qilindi. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari, barcha manfaatdor idoralar, Fermerlar kengashi va avvalambor fermer xo'jaliklarining o'zi ushbu dasturda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlashi darkor va bu vazifalar amalga oshirilmoqda.

Bozor munosabatlarining hozirgi bosqichida, avvalo, barcha mavjud madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari insonning o'y-fikrlari, faoliyati, unga baxtiyor hayotni in'om etishga bo'ysundirilgan bo'lmog'i lozim. Qishloqda xizmat ko'rsatish madaniyatiga alohida e'tibor berish taqozo etiladi. Birinchidan, qishloqda ijtimoiy infratuzilma va uning ajralmas qismi – xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali aholining turli xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji qondirilsa, ikkinchidan, ortiqcha mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash muammosi hal qilinishiga yordam beradi. Bundan tashqari, shu sohada band aholi daromadlari hamda davlat xazinasi mablag'larining (soliqlar orqali) shakllanish darajasi ortadi.

Bugun rivojlangan mamlakatlar, jumladan, Xitoy tajribasi shuni ko'rsatayaptiki, aholining 80 %dan ko'prog'ini dehqonlar tashkil qiladigan xitoydek katta davlatda xalqning qornini to'q, ustini but qilish ancha mehnat talab qiladi. SHuning uchun ham, dastlab yerlar har bir oilaga uning jon soni yoki ishchi kuchiga qarab (pudratga) berildi. Dehqonchilik solig'i sifatida davlatga ma'lum

miqdorda mahsulot topshirilgandan tashqari, davlat u belgilagan baho bo'yicha muayyan miqdorda deqonchilik mahsulotini sotib olish vazifasini ham belgiladi, qolgan mahsulotni istagan yerda, istagan sub'ektga, istagan narxda sotish dehqonning ixtiyorida qoldirildi.

Keyinchalik sotib berish masalasini shartnoma bo'yicha (qancha bahoda, qancha miqdorda sotish va sotib olish) davlat bilan dehqon kelishadi. Umuman olganda, davlatning sotib olish bahosi shu vaqtdagi bozor bahosidan past bo'lmadi. Erlarning ijaraga berilishi, hosilning dehqon ixtiyorida bo'lishi va uni xohlagan joyda sotish erkinligi, bo'sh va tashlandiq yerlarni o'zlashtirganlardan soliq olmaslik yoki ularga kam soliq solish, foizsiz kredit berish, mablag' bilan ta'minlash kabi e'tiborli siyosat ishbiarmon dehqonlar uchun tashlandiq yerlar, tog' bag'ri, adirlar va jarliklardagi bo'sh yerlarni o'zlashtirish imkonini yaratdi. Ular yangi o'zlashtirilgan yerlarga turli ziroatlar (donli va boshqa) ekishdi, bog'lar barpo qilishdi, keyinchalik o'z xomashyolarini o'zlari qayta ishlaydigan bo'lishdi, sharoit talabiga ko'ra, bo'rdoqichilik bilan shug'ullanishdi, hunarmandlar shogird tayyorlashdi, hunarmandlik do'konlari ochildi, bozorlar barpo qilindi.

Qishloq tumanlari hokimiyatlari bunday ob'ektiv sharoitda oilaviy sulolalar asosida joyning aniq ahvoliga qarab, yangi kichik korxonalar tashkil qildi va ularni moddiy - ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatladi. Natijada, tegirmon o'rnida un zavodi, tikuvchilik shahobchasi o'rnida tikuvchilik fabrikasi, kosib do'koni o'rnida poyabzal fabrikasi, yog'ochsozlik tarmog'i o'rnida mebel zavodi qurila boshladi.

O'zbekiston ilg'or mamlakatlar qatoriga kirishi uchun ishlab chiqarish, xususan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining infratuzilmasini zamonaviy sanoat asosiga qurib, qayta ishlash sanoatini shakllantirishi lozim. Qishloqda sanoatlashgan mehnat ko'rinishiga o'tib, faqat dehqonchilik bilan bog'lanib qolmaslik, qishloq ijtimoiy-siyosiy rivojlanishining muhim sharti ekanligi anglab yetilmoqda, mehnat sohalariga, qishloq ijtimoiy muammolarini hal etishga nisbatan yangicha qarashlar shakllana boshladi.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi darajasining yuqori emasligi ijtimoiy taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bozor munosabatlari shahar va qishloqlar o'rtasidagi migratsiya jarayoniga ham ta'sir ko'rsatadi, chunki qishloqda xizmat ko'rsatish sohasining kam rivojlanganligi ko'pgina kishilarni, xususan, yoshlarni ish axtarib shaharga kelishi yoki ishlab qolishlariga sabab bo'lishi mumkin. Ish bilan ta'minlash sohasida shahar ma'lum ustunlikka ega, imkoniyatlari ko'proq.

Qishloq joylarida esa bugungi bozor munosabatlari yangi xo'jalik yuritishga o'tayotganligi bir tomondan, ishchi o'rinlarining qisqarishiga olib kelmoqda, ikkinchidan (mulk shaklining o'zgarishi, jumladan, shirkat xo'jaligiga aylanishi, sanatsiyaga tushishi, bankrotga uchrashi) esa, yangi mehnat tarmoqlari va xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish eng dolzarb vazifaga aylanmoqda. Qishloqla ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohaslarini rivojlantirishning turli shakllari har xil huquqiy asoslarda yaratilishi mumkin:

1. xo'jaliklararo o'zaro xizmat ko'rsatish tarmoqlari ma'lum sohada ixtisoslashishi;
2. yakka tartibda xizmat ko'rsatish sohalari vujudga kelishi;
3. shahar bilan qishloq o'rtasida o'zaro kelishuv asosida ma'lum sub'ektlar o'rtasida xizmat ko'rsatish sohaslarini yaratish kabilar odamlarni ish bilan ta'minlashning qo'shimcha imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Bu, ishlab chiqarish sohasida va ishlab chiqarishdan tashqaridagi sohalari – fan, madaniyat, sog'liqni saqlashda ham tatbiq etilishi mumkin. Mavjud imkoniyatlardan birgalikla foydalanish, ularni insonga xizmat ko'rsatish sohasiga qaratish kutilgan ijtimoiy-siyosiy natijani beradi.

Yangi ish joylarining mulk shakli, tarmoqlar va moliyaviy manbalari bo'yicha tahlili shundan dalolat bermoqdaki, ularni yaratishda ustuvorlik kichik va o'rta biznes, yakka tartibda mehnat faoliyati olib boruvchilar hamda dehqon xo'jaligini tashkil etuvchilar hissasiga to'g'ri kelmoqda va ular asosan aholining pul mablag'i va berilayotgan kreditlar hisobiga tashkil etilmoqda. Lekin ularning faoliyatida savdo vositachiligi ustunlik qilmoqda. Albatta, bunga yoshlar tajribasi,

malakasi kamligi uchun ishga joylasha olmayotgani sabab bo'lmoqda. Jamg'armasi yo'qligi (qishloq joylarda), ayrim kasblar uncha ahamiyatli emasligi, ishda qisqarish ko'pligi, zarur imkoniyatlarni yaratishga boshlang'ich start kapitali va malaka yetishmasligi bunday ishni boshlashga to'siq bo'layapti.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo'jalik korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish. Korxonalarda mehnatni tashkil etishda o'ta muhim ishlarni malakali mutaxassislar, ikkinchi darajali yumushlarni o'ta malakali ishlovchilarga topshirish, korxonada ishlovchilari orasidan nihoyatda iqtidorlilarini tanlab olib, kelajakda amalga oshiriladigan yangi faoliyatlar uchun tayyorlash zarurat hisoblanadi. Ishlovchilarga ularning faoliyati xarakteri, qobiliyatini hisobga olib, ish uchastkalarini taqsimlash lozim.

Mehnatni boshqarishda kichik korxonalarining nihoyatda qulayligi, jamoa a'zolari bir-birining malaka darajasidan yaxshi xabardorligi, ishlovchilar mehnatidan korxonada ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirib borishda foydalanish ayni muddao hisoblanadi. Ishlovchiga vazifa berilishi va o'z navbatida, undan to'liq bajarilgan ishni qabul qilish, shunga qarab mehnatga haq to'lash zarur.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda mehnat jamoasini nazorat qilish, ular mehnatining unumdorligini texnika yordamida oshirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. SHuningdek,bozor talabidan kelib chiqqan holda yangi mutaxassisliklar yuzaga keladi, eski mutaxassisliklarga esa ular – ma'naviy jihatdan hayotdan orqada qolganligi tufayli talab kamayib boradi, zamonaviy texnika, texnologiya taraqqiyoti ishlab chiqarish korxonalaridan ishlovchilarni yangi sohalarni egallashga har tomonlama safarbar etadi.

Korxonalarni boshqarish o'ziga xos muhim xususiyatlarga ega bo'lib, aslida ishlab chiqarishga tashkilotchilik qobiliyati bo'lganlarni, yuqori mehnat unumdorligi asosida ishlashga safarbar qila oladiganlarni korxonada rahbarlik lavozimiga qo'yish yaxshi natijalar beradi. Bu korxonalarda mehnat jarayonini to'g'ri tashkil etish, avvalo, korxonaning normal faoliyat ko'rsatishi uchun qancha miqdorda mehnat sarflash talab qilishini bilish kerak. Buning uchun u yoki bu

ishni bajarishga har bir ishchi sarflaydigan mehnat miqdorini aniqlab olish lozim. Bu o'z-o'zidan korxonalarda ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun ham, ishlovchilarga mehnat normalarini belgilashga ham e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi.

Mehnatning zamonaviy usullarini qo'llash, ishlab chiqarish jarayonini tahlil etib, elementlari bo'yicha taqsimlash, texnologik jarayonlarni bajarish, yangi loyihalarni ishlab chiqarishga joriy etish uchun normalar belgilash, mehnat sharoiti, ish joylarini ta'minlash, ish rejimi, dam olish kabi masalalarga e'tibor kuchaytirib borilgan korxonada yuqori mehnat unumdorligiga erishiladi.

Bozor iqtisodiga o'tish munosabati bilan agrar sohada va agrosanoat majmuining boshqa tarmoqlarida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish natijasida xo'jalik yuritishning turli shakllari paydo bo'ldi, ko'p ukladli iqtisodiyot shakllanib, erkinlashtirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bosqichiga kirdi. Mana shu o'zgarishlar mos ravishda agrosanoat majmui tarmoqlarini boshqarishda (ayniqsa, uning muhim tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligida) davr talabiga javob beradigan boshqarish uslublari, usullari va shakllaridan kengroq foydalanishga ob'ektiv zarurat borligini ko'rsatmoqda. Bu jarayonda, ayniqsa, boshqarish usullaridan (iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy-psixologik) foydalanishning oqilona birikmasini topish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo'jaligi korxonalarini boshqarishning zamonaviy usullaridan (tizimli va vaziyatli boshqaruv) foydalanib, uzoqni ko'ra bilish va xavf-xatarning oldini olish dasturlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan boshqarish ahamiyati oshib bormoqda. Moddiy, moliya va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash maqsadida boshqarishning barcha bosqichlarida indekativ rejalashtirish usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu usul istiqbolni aniqlash, turli maqsadlarga mo'jallangan har xil dasturlarni ishlab chiqish, agrosanoat majmui korxonalarining marketingga mo'ljallangan faoliyatini aniqlashga yordam beradi.

2. BOB. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish samaradorligini oshirish va qayta ishlash tizimini rivojlantirish.

2.1. O'zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirilishini yanada takomillashtirish yo'llari

Meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligining eng asosiy tarmoqlaridan hisoblanib, ushbu yo'nalishni rivojlantirishda bir qator ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlar to'g'risida»gi «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi, «2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi, «2012-2016 yillarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «2012-2016 yillarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni yanada modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturi to'g'risida»gi qarorlari, «2011-2015 yillar davrida meva-sabzavot mahsulotlarini saqlashning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari kabi huquqiy hujjatlar ushbu tarmoqni yanada isloh qilish va rivojlantirish uchun xizmat qilmoqda.

Qishloq xo'jaligini isloh etishda olib borilayotgan yo'nalishlardan biri sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash masalasidir. O'tgan yillarda bu borada amalga oshirilgan choralar natijasida 1 million 700 ming gektar sug'oriladigan yerning meliorativ holatini yaxshilanganligi, melioratsiya tadbirlari amalga oshirilgan ekin maydonlarida xosildorlik bir necha sentnerga oshgani bilan baholash mumkin.

Qishloq xo'jaligi yer fondini qo'llab-quvvatlash va sifatini yaxshilash, paxta ekiladigan yerlarni optimallashtirish, boshqoli don ekinlari, sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik uchun ajratilgan maydonlarni kengaytirish hisobidan ekin amyydonlari tarkibida o'zgarishlarni amalga oshirilgan islohotlarning yana bir

yo'nalishidir. Buning natijasida O'zbekistonning g'alla mustaqilligiga erishganligi, aholi jon boshiga asosiy oziq-ovqat mahsulotlari – go'sht, sut, tuxum va meva-sabzavot mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga erishganligi bilan to'liq ta'minlashga erishilganli bilan izohlash mumkin.

Mamlakatimiz kelgusidagi meva-sabzavot mahsulotlari etishtirish, qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha ulkan imkoniyatlar mavjud. O'zbekiston noyob tuproq-iqtim sharoiti, quyoshli kunlar bir yilda 320 kun bo'lishi, barcha to'rt faslining izchil almashinuvi keng turdagi yuqori sifatli meva va sabzavotlarning asosiy navlarini yetishtirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Ekin maydonlari tarkibi optimallashtirish natijasida, —Andijon, Kosonsoy, Chortoq, O'rta Chirchiq, O'zbekiston va Buvayda tumanlarida paxta ekin maydonlari qisman qisqartiriladi, Asaka, Yangiyo'l va Jomboy tumanlarida paxta ekishdan butunlay voz kechildi. Shu asosda paxtadan bo'shagan 30 ming gektardan ortiq sug'oriladigan yerdan don ekinlari, sabzavot, kartoshka yetishtirish yo'lga qo'yildi, bog' va uzumzorlar barpo etildi. Natijada 2012-2014 yillarda paxta yetishtirish hajmi saqlangan holda, sabzavot yetishtirish 16.3 foiz, poliz ekinlari 16.6 va meva yetishtirish qariyb 21 foizga o'sdi. 2017 yildan e'tiboran respublikamizning ko'plab tumanlarida paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib meva-sabzavot va poliz ekinlari maydonlarini kengaytirishga jiddiy ahamiyat qaratilmoqda.

O'zbekiston respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev 2016 yil yakunlariga bag'ishlangan ma'ruzasida qishloq xo'jaligidagi holatga alohida to'xtalib o'tdi.

“2016 yilda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni va tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tizimli ishlar davom ettirildi.

Shu bilan birga, 2016 yil uchun belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va ustuvor vazifalarni bajarishni ta'minlamagan ayrim rahbarlarga bugun hukumat majlisida alohida baho berishni zarur, deb hisoblayman.

Birinchi – bu yer maydonlarini optimallashtirishdagi kamchiliklar. Toshkent, Namangan, Jizzax, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida bu jarayon talab darajasida o'tkazilmagan. Xalq deputatlari tuman Kengashlari tomonidan fermer

xo'jaliklarini tashkil etish bo'yicha nomzodlar tanlashda jiddiy xatolarga yo'l qo'yilgan.

Ikkinchi – ayrim fermer xo'jaliklari yetarlicha aylanma mablag'lar, zarur texnika va boshqa moddiy-texnik resurslarga ega emas. Bu qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligiga, shartnoma majburiyatlari bajarilishiga va fermer xo'jaliklarining rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Uchinchi – ishlar yetarli darajada tashkil etilmagani va ayrim rahbarlarning, jumladan, Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax va Buxoro viloyatlari sobiq hokimlarining shaxsiy mas'uliyatsizligi sababli bir qator tumanlar va fermer xo'jaliklarida kutilgan darajada paxta hosili olinmadi.

Kosonsoy, Angor, Muzrabot, Qiziriq, Sherobod, Quyichirchiq, Qo'shtepa tumanlarida paxta sotish bo'yicha shartnoma majburiyatlari 60-65 foiz darajasida qolib ketgan. Zarbdor, Paxtakor, Arnasoy, Mirzaobod, Xovos, Sardoba, Guliston, Chust va Bekobod tumanlarida davlat zaxirasi uchun g'alla yetkazib berish majburiyatlari bajarilmagan.

Ana shu faktlarning har biri bo'yicha majlis bayonida printsipial va qat'iy baho berish zarur.

2017 yilda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, kompaniyalar va boshqa idoralar, shuningdek, barcha bo'g'indagi hokimliklar quyidagi strategik muhim vazifalarni amalga oshirishi shart:

birinchi – ekin maydonlari va ekinlar tarkibini optimallashtirish, ilg'or agrotexnologiyalarni joriy etish va hosildorlikni oshirish, meva-sabzavot va uzum yetishtirishni ko'paytirish;

ikkinchi – fermer xo'jaliklarining moliyaviy-iqtisodiy holatini mustahkamlash. Oxirgi 10 yil mobaynida mineral o'g'itlar, yoqilg'i-moylash materiallari va urug'lik narxining o'sishi bilan paxta xomashyosi va g'allani xarid qilish narxlari o'sishi o'rtasida keskin farq borligi kuzatilmoqda;

uchinchi – o'tgan yillarda Moliya vazirligi va uning huzuridagi Jamg'arma rahbariyati tomonidan shakllantirilgan, agrotexnika tadbirlarini moliyalashtirishda ijobiy natija bermayotgan va mutlaqo chala tizimga barham berish zarur. Necha

yildan beri savol beraman: agarki qishloq xo'jaligi mas'uliyatsizlarcha yondashuv asosida moliyalashtiriladigan bo'lsa, davlat xaridi uchun mahsulotni qanday yetishtirish mumkin? Bu savolga haligacha aniq javob yo'q. Nima sababdan? Joriy yilning 1 yanvar` holatiga ko'ra, Jamg'arma tomonidan fermer xo'jaliklariga 300 milliard so'm mablag' to'lab berilmagan. Tabiiy savol tug'iladi: agar fermer davlat oldida o'z majburiyatini bajargan bo'lsa, nega davlat va uning ba'zi bir rahbar xodimlari bu masalaga befarq va bee'tibor munosabatda bo'lmoqda? Kim bunga mas'ul? Kim shaxsan javob berishi zarur va shart?

to'rtinchi – oxirgi yillarda agrosanoat kompleksida tashkil etilgan yangi boshqaruv organlari faoliyatidagi bir qator muammolarni bartaraf etish yuzasidan qat'iy choralar ko'rishimiz zarur.

Ushbu tarmoqlarni modernizatsiya qilish va investitsiya loyihalarini amalga oshirish, jumladan, paxta xomashyosini qayta ishlash bo'yicha markazlarni tashkil etish bo'yicha ishlar o'ta qoniqarsiz yo'lga qo'yilgan.

Meva-sabzavotni qayta ishlash darajasi 20 foizga ham yetmaydi. Yangi texnologiya va standartlar o'ta sustkashlik bilan joriy etilmoqda.

Qo'shma korxonalarda ishlab chiqarish hajmi keskin pasaygan. Ana shu rahbarlarga nisbatan vaqt va ishonch zaxirasi tez vaqt ichida nihoyasiga yetadi. Ular bundan xulosa chiqarishi zarur.¹⁷

Su maqsadlar yo`lida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatimizda bir necha tumanlarni erkin iqtisodiy hududga aylantirish to`g`risida Farmonini imzoladi.¹⁸

Oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish maqsadida 2012-2015 yillarda jami 312 ta meva-sabzavot, go'sht va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida investitsiya loyihalarini amalga oshirish belgilab qo'yilgan edi. Shu jumladan, 169 ta yangi korxonani qurish va 143 mavjud korxonani rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish rejalashtirilgan edi. Ushbu qarorning ijrosi ta'minlanishi

¹⁷ "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi» gazetasi. 14.01.2017y.

¹⁸ "Urgub», G'ijduvon, Qo'qon va Hazorasp erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 12.01.2017

natijasida mamlakatimizda 63,1 ming tonna meva-sabzavot, 16,5 ming tonna go'sht mahsulotlari, 45,7 ming tonna sut mahsulotlarini qayta ishlash quvvatlari tashkil qilindi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni saqlash va logistika xizmatlarining zamonaviy tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Qishloq xo'jaligini isloh etish va modernizatsiya qilish, yerlarning meliorativ holatini va irrigatsiya tizimini yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va albatta mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga jahon bozoridagi talabni oshirish, ularni saqlash, logistikasining zamonaviy tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mamlakatimiz aholisini inson organizmiga zarur bo'lgan vitaminlarga boy, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va agrar tarmoqning yeksport salohiyatini oshirishda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan bog'dorchilik sohasining urni beqiyos. Ushbu imkoniyatlardan to'liq foydalanish bog'dorchilik sohasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini bilishni va ulardan samarali foydalanish tadbirlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu ko'p jihatdan mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, modniy manfaatdorlik masalasi va moddiy-texnik ta'minot, mahsulot sotish, borasidagi muammolarni hal etishga ham bog'liqdir. Ushbu sohalardagi muammolarni hal etish o'z o'rnida bog'dorchilik tarmog'i qanday o'ziga xosliklar bilan bog'liq holda rivojlanib borishi lozimligi bilini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 9 yanvardagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3709-sonli Farmoni va ushbu Farmonning ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 11 yanvardagi —Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida|| gi PQ-255-sonli qaroriga muvofiq meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida faoliyat yurituvchi shirkat xo'jaliklari o'rnida xususiy mulkdor hisoblangan fermer xo'jaliklari faoliyatini tashkil etish mexanizmi joriy etildi. Natijada oxirgi yillarga

kelib, fermer xo'jaliklari salmog'i meva yetishtirishda 18,5 foizdan 41,3 foizga ortgan. Biroq, bog'dorchilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklari hajmining nisbatan kichikligi va sonining ko'pligi esa, mahsulot tayyorlash, tashish, saqlash va sotish, moddiy ta'minot kabi masalalarni hal etishda o'ziga xos muammolarni yuzaga keltirmoqda. Aynan ushbu muammolarni hal etish uchun fermerlar, qayta ishlovchilar, savdo tarmog'i korxonalari tomonidan agrosanoat firmalari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlariga asosan mamlakatimizda meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar belgilandiki, uning natijasida 2010-2015 yillarda bog'zorlar 38,3 ming gektarga ko'paydi hamda axolini bog'dorchilik mahsulotlari bilan taminlashga imkoniyati oshishiga xizmat qilmoqda. Respublikamizning Samarqand, Farg'ona, Surxandaryo viloyatlarida bog'dorchilik maydonlari boshqa viloyatlarga nisbatan ko'proq bo'lib, tabiiy iqlim sharoitlari qulayligi bilan izoxlanadi.

Jumladan, joriy yillar davomida, respublikada bog'lar maydonlari ortib borgan. Bu ko'rsatkich 1991 yilda 140 ming tashkil etigan bo'lsa, 2000 yilda 139,2 gektarni 2013 yilga kelib esa 243,3 ming gektarga, 2015 yilda esa 254,6 ming gektarga yetgan. Bog'dorchilikda hosildorlik ham oshib borayotganligi, bu sohaga katta e'tibor berilayotganidan darak beradi. Respublika bo'yicha bog'dorchilik bo'yicha hosildorlik 1990 yildagi 36,3 sentnerdan 2000 yilda 56,8 sentnerga, 2012 yilda 92,5 sentnerga va 2013 yilda 97,8 sentnerga, 2014-yilda 104,7 va 2015 yilda esa 112,3 sentnerga yetgan.

Bog'dorchilik sohasining o'ziga oslik jihatlari shundaki, u nafaqat bog'dorchilik sohasidagi muammolarga bog'liq, balki bevosita fermer xo'jaliklari faoliyati bilan ham bog'liqdir. Bular:

- fermer xo'jaliklari hajmi kichikligi, yetishtiriladigan mahsulot miqdorining kamligi tashish va sotishga to'siq bo'lishi;
- bog'dorchilik sohasida faoliyat boshlash uchun yetarli darajada bilim, tajriba va mahorat talab etilishi;

- bog'dorchilik fermer xo'jaliklarining asosiy bozorlardan ancha (ayniqsa tog'li va tog'oldi hududlari) uzoqda joylashganligi;
- bog'dorchilik mahsulotlari yetishtirish agrotexnikasi va daraxtlarni parvarishlashni bir-biridan farqlanishi;
- bog'dorchilik mahsulotlari yetishtirishda mexanizatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati juda pastligi;
- bog'bonlar tajribalari va sirlarining asosan avlodan-avlodga o'tishi natijasida fermer xo'jaliklari oilaviy asosda bo'ladi;
- bog'dorchilikka kiritilgansarmoya faqat ma'lum muddatdan so'nggina qaytim beradi (meva daraxtlarini hosilga kirishi 3-5 yildan, 6-7 yilgacha bo'lgan oraliqni tashkil etadi);

Bog'dorchilik mahsulotlari yetishtirish sohasida fermer xo'jaliklarini rivojlantirishning muhim tashkiliy asoslaridan biri sifatida, shirkat xo'jaliklari o'rnida ixtisoslashgan bog'dorchilik fermer xo'jaliklari shakllanishi jarayonini ajratib ko'rsatish mumkin. Ushbu jarayonda fermer xo'jaliklari faoliyatida mulkiy munosabatlar shakllanib, qaror topmoqda.

Fermer xo'jaliklari faoliyatining tashkiliy asoslarini ikkita katta guruhga bo'lgan holda qarab chiqish mumkin. Bunda birinchi guruhdan, fermer xo'jaliklari faoliyatini yo'lga qo'yishga daxldor tashkiliy masalalar, ikkinchi guruhdan esa fermer xo'jaliklarining bog'dorchilik mahsulotlari yetishtirish va turli xizmatlardan foydalanishi bilan bog'liq bo'lgan faoliyatining zamonaviy texnologiyasi ishlab chiqish, yangi texnikalardan foydalanishni yo'lga qo'yish borasidagi tashkiliy masalalar joy olishi maqsadga muvofiq. Bu guruhga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ishlab chiqarish jarayonida mehnatni tashkil etishning (doimiy va mavsumiy mehnat resurslaridan foydalanishni tashkil etish) samarali shakl va usullaridan foydalanish;
- erga ishlov berish tadbirlarini o'z vaqtida va sifatli tashkil etish, xo'jaliklarning maxsus moddiy-texnik bazasini shakllantirish;

- mevali daraxtlarni parvarishlashning yangi va tejamkor texnologiyasini yaratishni amalga oshirish;

- hosilni turli zararli hashoratlar va kasalliklardan himoyalashning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish;

- hosilni yig'ishtirib olish, tayyorlash, qayta ishlash va uning bozor "nishopi"ni aniqlashning marketing elementlaridan foydalanish, savdo tizimiga chiqarish (saqlashga jo'natish) tadbirlarini tashkil etish kabi yirik tashkiliy tadbirlarga bo'lish mumkin. Shu bilan bir qatorda bog'dorchilikda yetishtirilgan mevalarni eksportga chiqarish ham fermer xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga asos bo'ladi.

Mevalar eksportini rivojlantirishda esa mahsulot sifati, tashqi ko'rinishini bozorga moslash, tannarxini pasaytirish borasida quyidagi muammolar o'z yechimini topishi lozim:

- mahsulot eksportini rag'batlantiruvchi soddalashgan tartib joriy etilishi va eksportga chiqayotgan fermerni transport krediti bilan ta'min etish mahsulotning xaridorgirligi darajasini oshirishga xizmat qiladi;

- meva yetishtirishda dehqon xo'jaliklari va xususiy tadbirkorlar hissasi kattaligi bois, mahsulotning «chegara oldi savdosi»ni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Bu kafolatli va aholi tomonidan mahsulot sotishda qulay bo'lib aholi daromadini oshirishda muhim manba hisoblanadi;

- mevani eksport qilishga mo'ljallangan maxsus transport vositalarining yetishmasligi sababli, qo'shni respublikalardan meva va sabzavotlarni tashishda foydalanish uchun jalb qilinadigan mexanizmlarning O'zbekistonga imtiyozli asosda kirishi va chiqishida mavsumiy imtiyozlar yaratilishi maqsadga muvofiq;

- qayta ishlovchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining monopol holatiga barham berish tadbirlarini joriy etish;

- yetishtirilgan mevalarning sifatini buzmasdan vaqtincha saqlashga mo'ljallangan katta hajmli sovitish jihozlari, mevalar sifatini buzmasdan tashish

imkonini beradigan transport vositalari va qadoqlash idishlari tayyorlashni yo'lga qo'yish;

- yuqori hosilli, kasallik va zararkunandalarga chidamli, noqulay tabiiy sharoitlarga bardoshli, bozor talabiga mos mahsulot beruvchi mevali daraxt navlarini joylashtirish;

- bog'dorchilikda sug'orish tizimini texnik jihatdan jihozlash bo'yicha investitsiya jalb qilishni rag'batlantirish; suv tanqisligi sharoitida sug'orish texnika va texnologiyalarini takomillashtirish, tog'li va tog'oldi hududlarida tomchilatib sug'orish usulini keng ko'lamda yo'lga qo'yish;

- mevali bog'larni oziqlantirishda hududning tuproq tarkibi, mevali daraxtlar turi va navlari, hosildorlik ko'rsatkichlari hisobga olingan holda mahalliy va mineral o'g'itlar bilan ta'min etish;

- bog'lar tarkibini bozor talabini hisobga olib optimallashtirish va fermer xo'jaliklarini bog'dorchilik texniklari bilan ta'minlash, mavjud texnikalarni ta'mirlash va ehtiyot qismlar ta'minoti masalalarini hal etish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar qatoriga kiradi.

Ta'kidlash joizki, respublikada yetishtirilayotgan mevalarning ko'p qismi xorijiy bozorlarga yetib bormasdan nobud bo'layotgan sharoitda, ichki bozorga import qilingan mevalar kirib kelishi bir tomondan raqobat muhitini yaratib ichki ishlab chiqaruvchilarni bozorga moslashishga majbur qilsa, ikkinchi tomondan import qilinayotgan mevalarning ta'mi respublikamizda yetishtirilgan mahsulotlardan ancha pastligi bog'bonlarimizning o'z mahsulotini iste'molchilarga yetkazib berish usullarini mukammal egallashini taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida fermer xo'jaliklarining daromadini oshirish bilan birga aholini vitaminlarga boy, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga ko'mak beradi.

2.2. Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda fermer ho'jaliklarining o'rni.

Fermer xo'jaligining asosiy vazifasi qishloq aholisini foydali mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish orqali ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanishga erishish hamda shu asosda eng kam sarf-harajat birligi evaziga mahsulot yetishtirishni har tomonlama ko'paytirishdan iborat.

SHuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6 oktyabrdagi "Fermer xo'jaliklari yer maydonlarini optimallashtirish to'g'risida"gi F-3077-sonli va 2009 yil 22 oktyabrdagi "Fermer xo'jaliklarining yer uchastkalari hajmlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-3287-sonli farmoyishlarining amalda ijrosini ta'minlash orqali fermer xo'jalilari faoliyatini samaradorligini yanada oshirish fermerlarning yerning haqiqiy egasi sifatida xolis va oshkora tan olish, ish asosda yer va boshqa resurslardan oqilona va samarali foydalanish, kelgusida hsildorlikni oshirish hamda xo'jaliklarning moliyaviy ahvolini qishloq xo'jalik daromadlarini o'sishni ta'minlashga qaratildi.

"Kichik hajmdagi yerga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari uchun tijorat banklaridan kredit va asosiy vositalarni lizingga olish muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Ba'zi hollarda bank lizing kompaniyalari asosiy vositalarni lizinga berish uchun xo'jalik yer maydonini kamida 40-50 gektar bo'lishini talab etmoqda. CHunki bunda kam hajmdagi yer maydoniga ega bo'lgan xo'jaliklar o'z faoliyatidan olingan sof daromad hisobiga lizing to'lovlarini to'lashga qiyinchilikka duch keladilar"¹⁹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 29 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi 1455-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan viloyat hokimining 2015 yil 10 yanvardagi № 5 sonli qaroriga muvofiq 2015 yilda viloyat iqtisodiyotiga moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan jalb etilgan kapital

¹⁹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: O'zbekiston. 2009

qo'yilmalar hajmi 655,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,2 foizga bajarilgan.

Viloyatda 2015 yilning yanvar-dekabr oyi davomida markazlashgan investitsiyalar jami 147,2 mlrd. so'mni tashkil etib, shundan Respublika byudjeti 78,3 mlrd. so'mni, byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari 28,9 mlrd. so'mni, chet el investitsiyalari va Davlat kafolati ostidagi kreditlar 39,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

SHuningdek, markazlashmagan investitsiyalar 508,2 mlrd. so'mni, ya'ni korxonalarining mablag'lari 196,4 mlrd. so'm, tijorat banklarining kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 85,4 mlrd. so'm, to'g'ridan-to'g'ri jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar 25,7 mlrd. so'm, aholi mablag'lari hisobidan 200,7 mlrd. so'mni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 29 dekabrda PQ-1455-sonli "2015 yilgi Davlat investitsiya dasturi to'g'risida"gi qarorining 7-bandi hamda Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 3 yanvardagi 14/02-1-98-sonli topshirig'iga muvofiq, Surxondaryo viloyatining 2015 yilgi Hududiy investitsiya dasturiga asosan joriy yilning yanvar-dekabr oylari uchun 62 ta loyiha doirasida jami 31062,5 ming dollar investitsiyalar jalb qilinishi belgilangan.

2015 yilning yakunida qo'shimcha taklif etilgan loyihalar bilan birga 85 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, 109 ta loyiha bo'yicha jami 46013,1 ming dollar investitsiya jalb etildi. Buning hisobiga 14,2 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 3462,6 ming dollarlik mahsulot eksport qilindi va 2211 ta qo'shimcha ishchi o'rni yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 19 avgustdagi 02-17-119-sonli bayonini ijrosini ta'minlash hamda 2015-2017 yillarda Surxondaryo viloyatining sanoat salohiyatini oshirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini va mineral xom-ashyoni sanoat yo'li bilan qayta ishlash, shu asosda yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi farovonligini yanada oshirish maqsadida Hududiy Dastur ishlab chiqildi.(12.10.2014 y. № 02-25-139).

Mazkur dasturga asosan 2014-2015 yillarda viloyatda jami 58 ta loyihalar amalga oshirilishi hisobiga jami 40,3 mlrd. so'm va 369,7 mln. dollar miqdorida investitsiyalar o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan.

2015 yil yakunida qiymati 39,7 mlrd. so'm va 49,1 mln. dollarga teng bo'lgan 47 ta loyiha amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, amalda o'tgan davr mobaynida qiymati 14,0 mlrd. so'm va 7,9 mln. dollar bo'lgan 41 ta loyiha (87,2 %) amalga oshirildi.

YAlpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda qishloq xo'jalik korxonalar ulushi 0,3 foizni, fermer xo'jaliklari ulushi 34,5 foizni va dehqon xo'jaliklari ulushi 64,2 foizni tashkil etdi.

Barcha toifadagi xo'jaliklarda qishloq xo'jalik ekinlari 116,1 ming gektarga ekilgan, shundan 1,0 ming gektari (0,8%) qishloq xo'jalik korxonalar ulushiga, 98,3 ming gektari (84,6 %) fermer xo'jaliklari ulushiga va 16,8 ming gektari (14,6%) dehqon xo'jaliklari ulushiga to'g'ri keladi.

Dehqonchilik tarmog'i bo'yicha qishloq xo'jaligida yalpi mahsulot ishlab chiqarish harakatdagi narxda 920,5 mlrd. so'm bo'lib, jumladan qishloq xo'jaligi korxonalar tomonidan 11,0 mlrd. so'm, fermer xo'jaliklari tomonidan 514,9 mlrd. so'm, dehqon xo'jaliklari tomonidan 394,5 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Sabzavot ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan barcha toifadagi xo'jaliklar hisobiga 53,7 ming tonnaga ko'paydi, ya'ni 2015 yilda 540,2 ming tonnaga yetkazildi, shundan 163,7 ming tonnasi umumiy sektorda, 376,5 ming tonnasi dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarildi. Bundan tashqari 101,5 ming tonna yoki o'tgan yilgi ko'rsatkichga nisbatan 110,0 foiz xo'l meva va 95,1 ming tonna uzum yetishtirildi.

Viloyatda joriy yilda jami 348 ming tonna paxta xom-ashyosi yig'ib terib olinib belgilangan topshiriqqa nisbatan 104,2 foizga bajarilishiga erishildi.

Viloyatda 2015 yilda 2984 ta fermer xo'jaliklari tomonidan 102,2 ming gektar shu jumladan, 98,0 ming gektar suvli maydonlarga boshhoqli don ekinlari ekilgan. Jumladan, 2015 yilda viloyatdagi g'alla yetishtiruvchi xo'jaliklar tomonidan 595,2 ming tonna boshhoqli don yetishtirilib, davlatga 245,5 ming tonna don sotildi.

2.2.1.-jadval. Qishloq xo'jaligining rivojlanishi ko'rsatkichlari

№ t/r	Ko'rsatkichlar nomlari	O'lchov birligi	2014 yil yakuni, haqiqatda	2015 yil yakuni		2014 yil yakuniga nisbatan %da
				prognoz	haqiqatda	
1	YAlpi qishloq xo'jaligi mahsuloti					
	Barcha toifadagi xo'jaliklar	mln.so'm	1253426,0	1331005,0	1598744,2	108,6
	b) -taqqoslama baxolarda	mln.so'm	1253426,0	1473875,0	1361017,6	127,5
	shundan: yalpi mahsulot					
1.1	Fermer xo'jaliklarida	mln.so'm	450948,8	495500,0	551331,5	122,3
1.2.	Dexkon xo'jaliklarida	mln.so'm	790295,6	978375,0	1025908,9	129,8
2.	Jami ekin maydoni	ming. ga	305,4	304,0	304,0	99,5
2.1.	Donli ekinlar maydoni	ming. ga	118,5	116,1	116,1	98,0
	YAlpi xosil	ming t	629,6	607,5	614,0	97,5
	Xosildorlik	ts/ga	51,3	52,2	53,0	103,3
2.3.	Paxta maydoni	ming. ga	118,9	118,9	119,0	100,1
	Fermer xo'jaliklarida	ming. ga	117,8	117,8	117,8	100,0
	YAlpi xosil	ming t.	335,6	335,6	348,9	104,0
	Hosildorlik	ts/ga	28,1	28,8	29,0	103,2
2.4.	Kartoshka	tonna.	127500,0	145200,0	145100,0	113,8
2.5	Sabzavot	tonna.	486452,0	510254,0	540157,0	111,0
2.6.	Poliz ekinlari	tonna.	113947,0	117,3	123562,0	108,4
3.	Meva	tonna.	92,3	100,6	101,5	110,0
4.	Uzum	tonna.	77,1	83,6	95,1	123,3
5	Gusht, tirik vaznda	tonna.	113,3	123,0	120,1	106,0
6	Sut	tonna.	508,2	541,2	567,6	111,7
7	Tuxum	mln.dona	156,1	170,0	171,7	110,0
8	Pilla	tonna	1489,9	1501,0	1501,0	100,7
9	Yirik shoxli qoramol	ming bosh	689,4	710,6	734,8	106,6
10	Fermer xo'jaliklar soni	birlik	4953,0	4996,0	5028,0	101,5
	Ularga birlashtirilgan yer maydoni	gektar	729012,0	727380,0	722552,0	99,1
	Ularda band bulgan aholi soni	kishi	145,7	154,0	136,5	93,7
	Hisobot davrida faoliyatini to'xtatilgan f/x soni	birlik	113,0		476,0	421,2

Manba: Surxondaryo viloyat iqtisodiyot boshqarmasi ma'lumotlari asosida.

CHorvachilik tarmog'i bo'yicha qishloq xo'jaligida yalpi mahsulot ishlab chiqarish harakatdagi narxda 678,3 mlrd. so'm bo'lib, jumladan qishloq xo'jaligi

korxonalari tomonidan 10,5 mlrd. so'm, fermer xo'jaliklari tomonidan 36,4 mlrd. so'm, dehqon xo'jaliklari tomonidan 631,4 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Barcha toifadagi xo'jaliklar hisobiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoramollar 106,6 foizni yoki 734,8 ming boshni, shu jumladan sigirlar 103,8 foizni yoki 315 ming boshni, qo'y va echkilar 104 foizni yoki 1768,7 ming boshni va parrandalar 118,9 foizni yoki 2352,5 ming boshni tashkil etdi.

Viloyatda 2015 yilda 3178 ta fermer xo'jaligi bilan 4622,4 mln. so'mlik 1470 tonna pilla yetishtirish belgilangan bo'lib, amalda 1501 tonna pilla yetishtirilib, topshiriq 102,1 foizga bajarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi "Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1047-sonli qarori (viloyat hokimining 03.02.2009y. №30 qarori)ga asosan 2015 yilda 1550 tonna quvvatga ega 8 ta sutni qayta ishlash korxonalari ishga tushirilishi belgilangan bo'lib, joriy yilda ularning barchasi amalga oshirildi. Xususan, Boysun tumanida 1 ta (Fayzramz f/x), Denov tumanida 2 ta ("CHag'aniyon barlos" n/x va "Ibroxim" f/x), Jarqo'rg'on tumanida 2 ta ("Ulug'bek" f/x va "Xamkon" f/x), Qiziriq tumanida 1 ta ("YUksalish nur jaxon" mchj), Uzun tumanida 1 ta ("Surxon sun milk" mchj) va Sariosiyo tumanida (Xabib ermaniy f/x) sutni qayta ishlash korxonasi ishga tushirildi.

2015 yilda 1050 tonna quvvatga ega 7 ta sutni qayta ishlash korxonalari ishga tushirilishi belgilangan bo'lib, yil yakuni bilan ularning barchasi amalga oshirildi. Xususan, SHERobod tumanida 1 ta (J.Toshpo'latov f/x), Denov tumanida 2 ta ("Surxonoziqovqatsanoat" A/J va "Ibroxim" f/x), Jarqo'rg'on tumanida 1 ta ("Doston Akbar kelajagi" x/k), Muzrobod tumanida 1 ta ("Lochin" mchj) Termiz tumanida 1 ta ("Navro'z" N/M) va Qumqo'rg'on tumanida 1 ta ("CHorvador" f/x) larida go'shtni qayta ishlash korxonasi ishga tushirildi.

Bundan tashqari viloyatda 2015 yilda yillik quvvati 1595 tonna bo'lgan 9 ta xom sutni qabul qilish punkti ishga tushirilishi belgilangan bo'lib, joriy yil yakunida barcha loyixalar amalga oshirildi. Xususan, Jarqo'rg'on tumanida 2 ta,

Denov tumanida 3 ta, Boysun tumanida 1 ta, Uzun tumanida 1 ta, Qiziriq tumanida 1 ta va Sariosiyo tumanida 1 ta xom sutni qabul qilish punkti ishga tushirildi.

Viloyat hokimligining 2015 yil 12 martdagi “2015 yilda viloyatda qoramolchilik, parrandachilik va asalarichilik tarmoqlarini rivojlantirish, ozuqa bazasini mustahkamlash, ozuqabop ekinlar urug’larini yetishtirish tizimini yaratish, servis xizmatlari ko’rsatish sifatini yaxshilash, chorva mollari mahsuldorligini oshirish va mahsulot ishlab chiqarish xajmlarini ko’paytirish to’g’risida”gi 39-sonli bayonnomasiga asosan joriy yilning o’tgan davri mobaynida ko’plab ishlar amalga oshirildi. Xususan, viloyatda joriy yilda 19 ta asalarichilik xo’jaliklari tashkil etilishi belgilangan bo’lib, yanvar-dekabr oylarida belgilangan topshiriq 100 foizga bajarilib 19 ta loyiha amalga oshirildi. Hozirgi kunda ularda 1010 ta asalari oilalari boqilib 28 ta yangi ish o’rinlari yaratildi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 7 apreldagi “2015-2017 yillar davrida meva-sabzavot mahsulotlarini saqlashning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi 105-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida viloyat hokimining 2015 yil 13 apreldagi 79-sonli qarori qabul qilindi.

Qarorga ko’ra viloyatda joriy yilda quvvati 6750 tonna bo’lgan, qiymati 7800 mln. so’m shundan 7050 mln. so’m bank kreditlari, hamda 750 mln. so’m tashabbuskor korxonalarining o’z mablag’lari hisobidan 4 ta yangi quriladigan va rekonstruktsiya qilinadigan loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirildi.

Manzili dasturga asosan Termiz tumani hududida 3000 tonna sig’imga ega 1 ta muzlatgich foydalanishga topshirildi ("UNIGREEN" MCHJ), 1 ta loyiha bo’yicha mahsulotlar saqlanib, xozirgi kunda eksportga chiqarilib boshlandi.

Termiz tumanidagi "UNIGREEN" MCHJ tomonidan 3000 tonnalik sig’im bo’yicha umumiy qiymati 3500 mln. so’mlik loyiha foydalanmasdan bo’sh turgan bino negizida tashkil etilib, Turkiya texnologiyasi asosida sovutgich va ombor jihozlari olib kelib o’rnatildi va Termiz tumani hokimining 22.08.2015 yildagi 537-sonli qaroriga asosan foydalanishga qabul qilindi. Yangi tashkil etilgan

mazkur sovitish omboriga bugungi kun holatida 1000 tonnaga yaqin qishloq xo'jaligi mahsulotlari saqlanib, eksportga chiqarilib boshlandi.

"UNIGREEN" MCHJ tomonidan umumiy qiymati 1650 ming AQSH dollariga teng bo'lgan 1 ming tonna xo'l meva va sabzavot mahsulotlari eksporti bo'yicha Norvegiya, Koreya, Afg'oniston respublikalari bilan shartnomalar tuzilgan.

2016 yilda Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligida yalpi mahsulot ishlab chiqarish harakatdagi narxda 2016,3 mlrd.so'm bo'lib, jumladan qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan 23,4 mlrd.so'm, fermer xo'jaliklari tomonidan 665,3 mlrd.so'm, dehqon xo'jaliklari tomonidan 1323,6 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxda 107,1 foizni tashkil etgan. (prognoz 106,2 %). Jami ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotining 1160,9 mlrd.so'mligi (58,9%) dehqonchilik va 851,4 mlrd.so'mligi (41,1%) chorvachilik mahsulotidan iborat bo'ldi.

YAlpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda qishloq xo'jalik korxonalarini ulushi 1,2 foizni, fermer xo'jaliklari ulushi 33,0 foizni va dehqon xo'jaliklari ulushi 65,8 foizni tashkil etdi.

Barcha toifadagi xo'jaliklarda qishloq xo'jalik ekinlari 308,4 ming gektarga ekilgan, shundan 15,5 ming gektari (5,1%) qishloq xo'jalik korxonalarini ulushiga, 248,9 ming gektari (80,9%) fermer xo'jaliklari ulushiga va 44 ming gektari (14%) dehqon xo'jaliklari ulushiga to'g'ri keladi.

Dehqonchilik tarmog'i bo'yicha qishloq xo'jaligida yalpi mahsulot ishlab chiqarish harakatdagi narxda 1223,5 mlrd.so'm bo'lib, jumladan qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan 12,0 mlrd.so'm, fermer xo'jaliklari tomonidan 640,7 mlrd.so'm, dehqon xo'jaliklari tomonidan 570,8 mlrd.so'mni tashkil etgan.

Barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 632,4 ming tonna don ishlab chiqarilib, 2015 yilning shu davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil etdi. Jami ishlab chiqarilgan donning 498,6 ming tonnasi umumiy sektorda va 133,7 ming tonnasi aholi xo'jaliklarida ishlab chiqarildi.

2.2.2.-jadval. Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligining rivojlanishi

№ t/r	Ko'rsatkichlar nomlari	O'lchov birligi	2015 y. yakuni, haqiqatda	2016 yil yakuni		2015 y. yakuniga nisbatan %da	2017 yil 1-chorak yakunida kutiladi	
				prognoz	haqiqatda		prognoz	2016 yil 1-chorakka nisb. o'sish sur'ati, %
1.	YAlpi q/ x mahsuloti							
	<u>Barcha toifadagi xo'jaliklar</u>							
	a) -joriy davrdagi amaliy baxoda	mln.so'm	1598744,2	1697866,0	2016278,6	125,9	193265,8	105,8
	shujumladan, Dexqonchilik mahsulotlari	mln.so'm	920454,8	935891,5	1160897,7	126,1	61168,8	105,7
	CHorvachilik mahsulotlari	mln.so'm	678289,4	761974,5	851380,9	125,5	132097,0	105,8
	b) -taqqoslama baxolarda	mln.so'm	1598744,2	1697852,3	1712694,7	107,1	150017,5	105,8
	shundan: yalpi mahsulot							
1.1	Fermer xo'jaliklarida		551331,5	472100	558155,1	101,2	16008,2	107,3
	- taqqoslama baxolarda	mln.so'm	551331,5	495500	684440,6	124,1	23850,9	107,3
	- joriy baxoda	mln.so'm						
1.2.	Dexqon xo'jaliklarida							
	- taqqoslama baxolarda	mln.so'm	1025908,9	844250	1132392,6	110,4	130377,5	105,0
	- joriy baxoda	mln.so'm	1025908,9	978375	1366128,1	133,2	165134,1	105,0
2.	Jami ekin maydoni							
	Barcha toifadagi xo'jaliklar	ming. ga	304	304	308,4	101,4		
	sh.j davlat sektorida							
	nodavlat sektorida							
	shundan q/x korxonalarida	ming. ga	12,9	12,9	15,5	120,2		
	Fermer xo'jaliklarida	ming. ga	247,4	247,4	248,9	100,6		
	Dexqon xo'jaliklarida	ming. ga	43,7	43,7	44,0	100,7		

Manba: Surxondaryo viloyat Iqtisodiyot boshqarmasi ma'lumotlari

2.2.3.-jadval. Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish ko'rsatkichlari

№ t/r	Ko'rsatkichlar nomlari	O'lchov birligi	2014 y. yakuni, haqiqatda	2015 yil yakuni		2014 y. yakuniga nisbatan % da
				prognoz	haqiqatda	
1.	Boshoqli ekinlar					
	Maydoni					
	Fermer xo'jaliklarida	ming. ga	98,3	98,3	98,2	99,9
	Dexqon xo'jaliklarida	ming. ga	16,6	16,6	17,9	107,8
	YAlpi xosil					
	Fermer xo'jaliklarida	ming t	475,6	475,5	487,7	102,5
	Dexqon xo'jaliklarida	ming t	116,6	116,6	119,0	102,1
	Xosildorlik					
	Fermer xo'jaliklarida	ts/ga	50	48,4	49,7	99,3
	Dexqon xo'jaliklarida	ts/ga	75,9	70,2	66,5	87,6
	Sotilishi					
	jami narxi	mln.so'm	31,4	23,8	31,4	100,0
	umumiy narxi	mln.so'm	60,1	70,2	60,1	100,0
2.7.	Kartoshka					
	Maydoni					
	Fermer xo'jaliklarida	gektar.	66	66	97,0	147,0
	Dexqon xo'jaliklarida	gektar.	9137	9137	9221,0	100,9
	YAlpi xosil					
	Fermer xo'jaliklarida	tonna.	6064	6480	7187,0	118,5
	Dexqon xo'jaliklarida	tonna.	138468	139945	151245,0	109,2
	Xosildorlik					
	Fermer xo'jaliklarida	ts/ga	918,8	125	740,9	80,6
	Dexqon xo'jaliklarida	ts/ga	151,5	165	164,0	108,3

Manba: Surxondaryo viloyat Iqtisodiyot boshqarmasi ma'lumotlari.

2016 yilda dehqon xo'jaliklari bilan birgalikda 159 ming tonna kartoshka ishlab chiqarildi, shundan 7,8 ming tonnasi umumiy sektorda, 151,2 ming tonnasi dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarildi, 2015 yilning shu davriga nisbatan viloyat bo'yicha 13,9 ming tonna kartoshka ko'p ishlab chiqarildi.

Sabzavot ishlab chiqarish 2015 yilning shu davriga nisbatan barcha toifadagi xo'jaliklar hisobiga 92,7 ming tonnaga ko'paydi, ya'ni 2016 yilda 632,9 ming tonnaga yetkazildi, shundan 169,2 ming tonnasi umumiy sektorda, 463,7 ming tonnasi dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarildi. Bundan tashqari 7,2 ming tonna yoki o'tgan yilgi ko'rsatkichga nisbatan 107,1 foiz xo'l meva va 103,2 ming tonna uzum yetishtirildi.

Viloyatda joriy yilning yakunida jami 338,8 ming tonna paxta xom-ashyosi yig'ib terib olinib belgilangan topshiriqqa nisbatan 101,1 foizga bajarilishiga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 31 oktyabrdagi "Respublikada 2016-2017 yillarda oziq-ovqat sanoati korxonalarini boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1633-sonli qarori (*viloyat hokimining 10.11.2015y. №216 qarori*) ijrosi.

Qarorga asosan 2016 yilda 3900 tonna quvvatga ega 3 ta sutni, 3 ta go'shtni va 1 ta meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini yangidan qurish hamda rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish hisobiga 1 ta go'shtni va 1 ta sutni qayta ishlash tsexlari ishga tushirilishi belgilangan.

2016 yilda mavjud meva-sabzavot, uzum, go'sht va sut mahsulotlarini qayta ishlovchi yangi qurilish hamda rekonstruktsiya va modernizatsiya qilinadigan korxonalar manzilli dasturiga muvofiq viloyatda 9 ta loyiha amalga oshirilishi belgilangan.

Meva-sabzavot hamda uzumni qayta ishlash.

1) Termiz tumani "Umarjon" xususiy korxonasi tomonidan jami 250 mln. so'm mablag' hisobiga (yillik quvvati 400 tonna) bo'lgan loyiha 2016 yilning 4-choragida ishga tushirilishi belgilangan bo'lib, loyiha hisobot davrining sentyabr oyida ishga tushirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 15 dekabrda 01-03-35-46-sonli yig'ilish bayoni hamda viloyat hokimining 2016 yil 31 martdagi "Viloyatida 2016 yilda qoramolchilik, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 69-sonli qaroriga asosan jami 263 ta loyiha amalga oshirilishi belgilangan bo'lib ushbu loyihalar to'liq amalga oshirildi jumladan:

Dasturga asosan 2016 yilda viloyatda 61 ta loyihalar bo'yicha parrandachilik xo'jaliklari tashkil etilishi (38 ta parrandachilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklari hamda tashkilot va idoralar tomonidan 23 ta loyiha) belgilangan.

Hozirgi kunda Dasturda belgilangan jami loyihadan 568,4 ming bosh parranda boqish tashkil qilinib, shundan 38 ta parrandachilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklarida 381,2 ming bosh hamda 23 ta tashkilot va idoralar tomonidan 187,2 ming bosh parranda tashkil qilindi.

Viloyatda joriy yilda jami 204 gektar maydonga intensiv bog'lar tashkil etilishi rejalashtirilgan bo'lib, amalda 158 gektar (77%) maydonga intensiv bog'lar tashkil etildi. (112 ga Turkiya, 46 ga Serbiya) Jumladan, viloyatda 2016 yil yakunida 13 ta tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan Turkiya davlati tajribasi asosida karlik va yarim karlik bog'larni tashkil etish bo'yicha shartnomalar imzolandi. SHartnomalarga asosan viloyatning 13 ta tumanlarda jami 38 gektar karlik va 120 gektar maydonga yarim karlik bog'lar tashkil etilib, 137 ming dona karlik va 28,5 ming dona yarim karlik ko'chatlari olib kelinib ekildi. Hozirgi kunda ularni parvarishlash bo'yicha barcha sharoitlar yaratilgan.

2.3. Sabzavot va meva mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilishda investitsiyalarni jalb yetishning ahamiyatini oshirish

Mamlakatimiz iqtisodiyotida agrar soha muhim ahamiyatga ega ekanligini inobatga olgan holda qishloq xo`jaligi sohasida meqnat unumdorligini oshirish, mahsulot tannarhini kamaytirish, yuqori samaradorlikka yerishish va qishloq aholisi turmush darajasini oshirishda moliyaviy mablaqlarning tutgan muqim o`rni tarmoqqa investiyalar jalb yetishni taqozo yetadi. Bizningcha, investitsiyalarni samarali joylashtirish quyidagi muammolarni hal yetishga hizmat qiladi:

- qishloq joylarda kichik ishlab chiharish shahobchalari quriladi. Bu o`z navbatida qishloqda qo`shimcha ish joylarini tashkil yetadi va deqqonchilik madaniyatini oshiradi;

- investitsiyalarni jalb yetish orhali qishloq xo`jaligida zamonaviy texnika va texnologiyalar parki ko`payib, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va tayyor mahsulot yaratish imkoniyati kengayadi;

horijiy investitsiyalarni jalb yetish qisobiga qurilgan korhonalarda import o`rnini qoplovchi va eksportga mo`ljallangan tovarlar ishlab chiharish uchun imkoniyat yaratiladi;

- soliq to`lovchilar soni ko`payib, mahalliy va respublika byudjetining daromadi oshadi;

- qishloq joylarda yangi korhonalalar tashkil yetilishi yesa infratuzilmaning qo`shimcha shahobchalari paydo bo`lishiga olib keladi;

- qishloq xo`jaligi mahsulotlarini eksport qilish valyuta zahiralarini mamlakatning o`zida qolishini ta`minlab, ularni boshqa tadbirlarga sarflash imkoniyatini yaratadi.

Davlatning ma`lum darajada investitsiyani jalb yetishdagi o`rni saqlanib qolgan qolda, asosiy ye`tiborni moliyalashtirishning nodavlat usullarini keng qo`llashga haratish talab qilinadi. Ayniqsa, bank va moliya tizimini ho`jaliklar manfaatini ye`tiborga olgan qolda isloq qilish, barcha kredit turlariga keng yo`l ochib berish, fermerlarga dastlabki kapitalni tashkil yetishda mikro kreditlar

tizimini ustuvor rivojlantirish, moliyaviy barqarorlikka yerishish orqali ho`jaliklar o`z mablag`laridan foydalanishiga qulay imkoniyatlar yaratish lozim.

Iqtisodiyotni modernizatciyalash bosqichida horijiy tadbirkorlar uchun qishloq xo`jaligining eng jozibador tarmoqi meva-sabzavot ishlab chiharish sohasi qisoblanadi. Meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiharish va eksport qilish bo`yicha mamlakatimiz boy tajribaga yega. 2014 yilda respublikamizda 9,3 mln. tonna yangi uzilgan meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiharildi. Jami oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashda meva-sabzavotchilik majmuasining ulushi 30 foizni tashkil yetdi.

Meva-sabzavotchilik sohasida kiritilayotgan horijiy investitsiyalar miqdori yildan-yilga oshib bormoqda. Ushbu sohada 2001 yilda 6,97 mln. AQSH dollari miqdorida horij investitsiyalari va kreditlari jalb qilingan bo`lsa, 2014 yilga kelib bu ko`rsatkich 81,9 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan. YA`ni, shu davr mobaynida 75,0 mln. AQSH dollariga oshgan.

Qishloq xo`jaligiga horijiy investitsiyalarning barcha shakllarini faol jalb qilishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- investitsiyalashga ta`sir yetuvchi omillarni muvofiqlashtirgan qolda qulay investicion muqitni yaratish;
- horijiy investitsiyalarni jalb yetish bo`yicha hududlarning reyting ko`rsatkichlarini qisobga olish;
- investitsiyalar miqdorida bank kreditlari salmoq`ini oshirish maqsadida bu borada belgilangan imtiyozlarni qayta ko`rib chiqish;
- horijiy investitsiyalarni jalb yetuvchi ho`jalik sub`ektlarida mulk qiymatidan to`lanadigan imtiyozli soliq stavkasini o`rnatish orhali ularning mol-mulkini qisqa muddatda qayta baqolashga qiziqtirish;
- horijiy investitsiyalarni jalb yetuvchi hamda shu asosda tovar eksport qilishni ko`paytiruvchi korxonalar uchun imtiyozlarni kengaytirish;
- halqaro moliya institutlarining respublikamizda ochgan kredit liniyalaridan to`la-to`kis foydalanishni ta`minlash;

- mahalliy "mas`ul" muassasalarning horijiy investitsiyalarini hududlarga jalb qilishdagi faolligini oshirish;

Horijiy investitsiyalar uchun qisob va qisobot tizimi samaradorligini oshirish kabi qo`shimcha tadbirlarni amalga oshirish zarur. O`z navbatida qishloq xo`jaligini rivojlantirishda ichki investitsiyalar faoliyatini ham keskin oshirish iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichining asosiy talabi bo`lmoqi zarur. Bugungi kunda respublikamiz fermerlarida ichki investitsiyalarni jalb qilish orhali samarali faoliyat yuritish bo`yicha ijobiy tajribalar to`plangan.

Mustaqillik yillarida o`tkazilgan agrar islohotlar davomida qishloqda yangi ho`jalik tuzilmasi shakllandi. YEski tizimdagi davlat va jamoa ho`jaliklari o`rniga, bozor munosabatlariga mos keladigan va qishloq xo`jaligi tarmoqida bozorning ob`ektiv qonunlaridan biri bo`lgan raqobatchilik muhitini tashkil yetish uchun qishloq xo`jaligida teng huquqlarga yega bo`lgan fermer va deqqon ho`jaliklari tashkil yetildi. Ushbu sub`ektlar ko`magida keyingi yillarda bir qator iqtisodiy va miqdoriy yutuqlarga yerishildi. Masalan, viloyatimiz bo`yicha etishtirilayotgan qishloq xo`jaligi mahsulotlari hajmining o`sish sur`ati o`tgan yillardagiga nisbatan 2014 moliya yilida 104,2 %, 2015 yilda yesa 106,1 %ga ortdi. Usimlik mahsulotlari etishtirish avvalgi yildagiga nisbatan 2014 yilda 106,5 %ga ko`paygan bo`lsa, 2015 yilda yesa 110,1 %ga oshgan. 2014 yilda 101,9 % va 2015 yilda 102,0 % ko`p chorvachilik mahsulotlari etishtirilgan.

Umuman mamlakatimizda qishloq xo`jaligi mahsulotlari iste`molimiz uchun zarur bo`lganidan ortiq etishtirilmoqda. SHunday yekan, iste`moldan ziyod mahsulotlarni horijiy mamlakatlarga eksport qilishni tashkil yetish va keskin rivojlantirish darkor.

Viloyatimizda o`ziga hos shunday qishloq xo`jaligi mahsulotlari etishtiriladiki, ularni qayta ishlash juda mushkul. qovun, tarvuz, sabzi, piyoz va sarimsoqpiyoz shunday mahsulotlar sirasiga kiradi. Bularni uzoq muddat saqlash imkoniyati ham o`ta cheklangan. SHu bois, bunday mahsulotlarning iste`molchilarini horijdan topish lozim. Aks holda ular boy beriladi.

Nazarimizda, bunday nohush vaziyatdan chiqishning asosiy yo`llaridan biri qishloq xo`jaligi mahsulotlari sotuvi (realizatsiyasi)ning boshqarish jarayonlarini takomillashtirish va qishloq xo`jaligi tarmoqiga investitsiyalar (mahalliy va horijiy)ni jalb yetishni jadallashtirishdir.

Fikrimizcha, qovun, tarvuz, pomidor mahsulotlari ayni pishgan paytda shimoli harbdan joylashgan MDH davlatlari yohud ularning mintahalari bilan hokimliklarimiz yoki ularning ishonchli vakillari to`g`ridan-to`g`ri shartnomalar asosida mamlakatimizdan jo`natilgan qishloq xo`jaligi mahsulotlarini bizda tanqis bo`lgan kurilish yoki texnika vositalariga ayirboshlashni yo`lga qo`yishlari kerak. SHunday qilinsa, viloyatda etishtirilayotgan ortiqcha qishloq xo`jaligi mahsulotlarini samarali realizatsiya qilib, milliy iqtisodiyot uchun zarur bo`lgan tanqis hom ashyo yoki materiallar va boshqa vositalarni horijdan olib kelish tartibli tashkil yetiladi. Bundan asosan iste`molchi naf ko`radi.

Bizningcha, investitsiyalarni samarali joylashtirish qo`yidagi muammolarni hal yetishga xizmat kiladi:

- to`g`ri investitsiyalarni jalb yetish qishloq xo`jaligi tarmoqi va hududida zamonaviy texnika va texnologiyalar parki ko`payishiga olib keladi. Pirovardida, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini kayta ishlab, tayyor mahsulot ishlab chiharish imkoniyati kengayadi;

- horijiy investitsiyalarni jalb yetish hisobiga qurilgan korxonalar tufayli import o`rmini bosib, eksportga mo`ljallangan tovarlar ishlab chiharish uchun qulaylik yaratiladi.

- qishloq joylarda yangi korxonalar tashkil yetilishi yesa infratuzilmaning qo`shimcha shahobchalari paydo bo`lishiga olib keladi;

- qishloq xo`jaligi mahsulotlarini eksport qilish valyuta zahiralari mamlakatning o`zida qolishini ta`minlab, ularni jamiyat uchun o`ta zarur bo`lgan boshqa tadbirlarga sarflash imkoniyatini yaratadi.

Hullas, viloyatimizda qishloq xo`jaligini yanada rivojlantirish uchun yuqorida zikr yetilgan muammolarni bartaraf yetishga ye`tiborni kuchaytirish

zarur. Bu qishloq aholisining turmush darajasi va hayot farovonligi yanada oshishiga ijobiy ta'sir yetadi.

Viloyat iqtisodiyotiga jalb yetilgan jami investitsiyalar hajmida qishloq xo'jaligi tarmoqiga jalb qilingan investitsiyalar ulushi juda yuqori deb bo'lmaydi. Lekin, bir qator omillar mavjudki, ularga asoslangan qolda viloyat qishloq xo'jaligi investitsiyalarni yo'naltirish uchun qulay tarmoq degan hulosaga kelish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimiz korxonalariga chet yel investorlarini keng ko'lamda jalb qilinishi, hususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilishi va mahalliy hom-ashyo resurslaridan unumli foydalanish bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida amalga oshirilmoqda. Ayni kunda ushbu sohalarning rivojlanishi va muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy buqin mahalliy hom - ashyoni qayta ishlovchi tarmoqlar qisoblanib, bu tarmoqlarni rivojlantirishga keng shart-sharoit yaratilmoqda.

Qishloq xo'jaligida qayta ishlab chiharish salohiyatini taqlil qilib ko'radigan bo'lsak, mahsulotlarni qayta ishlashda nodavlat sektorining ulushi 99 foizni tashkil yetadi. Agrosanoat majmuasida yesa aholini meqnatga layoqatli qismining 44 foizdan ko'proq'i band bo'lib, qishloq xo'jaligi sektori O'zbekiston aholisi uchun zarur bo'lgan oziq - ovqat mahsulotlarini qayta ishlab chiqish imkonini beradi.

Viloyatda horijiy investitsiyalarni jalb yetish borasidagi ishlarni maqtanib ayta olmaymiz. Jumladan, 2015 yilda 77 ta investicion loyiha rejalashtirilgan bo'lib, shundan 18 ta (14 foiz) loyiha amalga oshirildi. Mazkur loyihalar doirasida 24 mln. 299 ming AQSH dollaridan ortiq horijiy investitsiyalar jalb yetilgan bo'lib, 25820 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Qo'shma korxonalarining tashqi savdo aylanmasi 25 mln. 97 ming AQSH dollarini tashkil yetib, 2014 yilga nisbatan 1,6 barobarga o'sdi. Ularning eksport hajmi yesa 20 mln. 748 ming AQSH dollarini tashkil yetib, 46,1 foizga o'sganligi kuzatildi. Ammo bu Surxondaryoning dotaciyadan chiqib ketishi uchun etarli emas.

To'g'ridan - to'g'ri horijiy investitsiyalarni jalb qilinishi yevaziga Termiz shaqridagi Surhon zavodi bazasida paxta ip kalavasi va trikotaj mahsulotlarini

ishlab chiharuvchi "SHindong-Spinning Termiz" korhonasini modernizatsiya qilish loyihalarini o`zlashtirish niqoyasiga etmoqda. Jarqo`rqon tumanida yesa yiliga 1000 tonna ip kalavasi ishlab chiharuvchi yana bir korhona ishlab chiharishga tayyor.

Joriy yilda yana bir qo`shma korhonani ishga tushirish yevaziga yiliga 3000 tonna meva-sabzavotni qayta ishlash imkoniyati paydo bo`ladi. Bunning yevaziga 518 ta yangi ish o`rinlari yaratiladi. SHuningdek, 3 ta loyiqani amalga oshirish qisobiga 2 ming tonna go`sht va sut mahsulotlari qayta ishlanadi.

Bozor munosabatlari har bir ishlab chiharuvchidan qishloq ho`jalik mahsulotlari ishlab chiharish hajmini ko`paytirish, ishlab chiharilayotgan mahsulotning raqobat-bardoshligini ta`minlash, uni qayta ishlash tizimini yo`lga qo`yish va tarmoq sama-radorligini oshirishni pirovard maqsadi qilib belgilashni talab yetady. Bugungi kunda agrar sohada asosiy qishloq xo`jaligi mahsuloti etishtiruvchi sifatida shakllanayotgan fermer ho`jaliklarining aksariyat qismida sohani samarali yuritish va rivojlantirish uchun moliyaviy mablaqlarning etishmasligi kuzatilmokda. Ushbu masalani hal yetishning asosiy yo`nalishlaridan biri sohaga kiritilayotgan investitsiya mablaqlari hajmini oshirish, ko`lamini kengaytirish qisoblanadi.

Davlat buyurtmasi asosida qishloq xo`jaligi mahsulotlari etishtirayotgan korhonalarga imtiyozli kreditlar ajratish tartibi joriy yetilgan bo`lib, bu etishtirilayotgan mahsulotni harid qilishni to`liq kafolatlaydi. Lekin, davlat buyurtmasiga kirmagan, ammo horijga eksport qilish imkoniyati yuqori bo`lgan meva-sabzavotchilik mahsulotlari etishtirishni ham imtiyozli kreditlar bilan ta`minlash, sohaga investitsiyalar jalb yetish ko`lamini kengaytirish davr talabi qisoblanadi. CHunki, aksariyat meva-sabzavotchilikka ihtisoslashgan fermer ho`jaliklari O`zbekiston Prezidentining 2013 yil 9 yanvardagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to`g`risida" farmoniga asosan yangidan tashkil yetilganligi sababli, ho`jalikni samarali yuritish uchun etarli mablaqqa yega emas va moliyaviy ko`makka muhtoj, ikkinchidan, ko`pgina mevali bog` va tokzorlar ma`naviy

jiqatdan eskirgan bo`lib, ularni yangilash yoki to`ldirish talab yetiladi. Uchinchidan, soha hususiyatlarini inobatga olgan qolda tarmoqqa hizmat qiluvchi infratuzilma sub`ektlari qanuzgacha taraqqiy yetmagan va etarli darajada jiqozlanmagan.

Tadqiqotlarning ko`rsatishicha, investorlar tomonidan qishloq ho`jalik sohasiga, jumladan meva-sabzavotchilik tarmoqiga bevosita investitsiyalarning sust kelishiga asosiy sabab tarmoqning ishlab chiharish jarayoni bilan boq`liq tavakkalchilik havfining yuqoriligi qisoblanadi. Bunday tavakkalchilik havflari tarkibiga iqlim sharoitining yomonlashuvi, hizmat ko`rsatuvchi tashkilotning o`z majburiyatini bajarmasligi, asosiy jamharmalar: homashyo, yelektr quvvati, hizmat ko`rsatishning etishmasligi kabilar kiradi.

Hozirda investorlar ye`tiborini jalb yetishning turli vosita va yo`nalishlari mavjud. Birinchidan, tarmoqning barharorligi ya`ni muntazam yuqori qosildorlikni ta`minlagan qolda ishlab chiharishni yuritish, ikkinchidan, tovarning raqobatbardoshligi shular jumlasidandir. SHunday qolatda investor tavakkalchilik havfi kamligini qisobga olgan qolda tarmoq rivojlanishi uchun hissa qo`shadi. CHunki investor, avvalo, o`z mablaqi qanchalik darajada foyda keltirishi uchun ishonch qosil qilishi muqim ahamiyatga yega.

Raqobatbardosh mahsulot etishtirishni ta`minlash uchun davlat tomonidan meva-sabzavot maqsulbtlarini qayta ishlaydigan korhonalarni qayta jiqozlash ishlariga ye`tibor haratish hamda ularga.ichki va tashqi investitsiyalar jalb yetishda yanada qulayroq muqit yaratish, imtiyozlar berish zarur. SHu bois, yangidan tashkil yetilgan fermer ho`jaliklariga mulkni garovga qo`yish sharti bilan banklardan kredit olishga imkoniyatlar va sharoitlarini kengaytirish va shu asosda, ular tomonidan etishtiriladigan qosilni yoki umuman ekin maydonini garovga qo`ygan qolda kreditlash tizimini kengroq yo`lga qo`yish maqsadga muvofikdir.

Investitsiyalar jalb yetish qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlab, tayyor mahsulot yaratishga yo`l ochadi, yangi ish o`rinlari yaratiladi. YUrtimizda etishtiriladigan shirindan-shakar mevalarni qayta ishlangan qolda chet yelga eksport qilishga imkon beradi. Ayniqsa, uzoq muddat saqlash imkonini

bermaydigan mevalar, sabzavotlar va poliz ekinlari (turli mevalar, pomidor, tarvuz va qovun, uzum va boshhalar)ni qishloq joylarining o`zida qayta ishlash, konservalashni yo`lga qo`ysak, qanchadan-qancha qishloq ho`jalik mahsulotlarining bequda zoe bo`lishi va transport mablaqlari isrofining oldini olgan bo`lardik.

Viloyatda etishtiriladigan qorako`l terilaridan tayyor po`stin, meva va sabzavotlardan sharbat, konserva, pastalar ishlab chiharish imkoniyatlari serob. SHuningdek, go`sht va sut mahsulotlaridan chet yel standartlariga mos kolbasa, pishloq va boshqa mahsulotlar ishlab chiharish imkoniyatlari bor. SHuningdek, paxta tolasini tayyor mahsulotga aylantirib, yeks-port qilinganda iqtisodiy samarani 6-7 barobar ko`paytirish yeqtimoli mavjud.

SHunday yekan, bugungi kunning eng dolzarb iqtisodiy vazifalaridan biri bu, qishloq ho`jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar ochish uchun investitsiyalar jalb yetishdir.

Amalga oshirilgan islohatlar natijasida, ya`ni deqqon, fermer va shahsiy tomarqa ho`jaliklariga er maydonlari ajratishning keskin ko`paytirilishi yevaziga o`lkamizda halla, kartoshka, meva-sabzavot, go`sht va sut kabi qishloq xo`jaligi mahsulotlarini etishtirish hajmi sezilarli darajada ortdi. qozirgi kunga kelib, oziq-ovqat mahsulotlari importini 3 baravar kamaytirishga yerishildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi "Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiharishni kengaytirish va ichki bozorni to`ldirish yuzasidan qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida"gi Pq-1047-sonli harorining ijrosini ta`minlash maqsadida Surxondaryo viloyatida ham muqim tadbirlar ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilayapti.

Keyingi yillarda qishloq ho`jalik mahsulotlarini etishtirish samaradorligi va salmoq`ining oshishi natijasida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo`lgan yeqtijoyini qondirishga yerishilmoqda. Viloyatda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini etishtirish bilan bir qatorda eksport qilishga ham aloqida ye`tibor haratilib kelinayapti.

Viloyatda meva-sabzavot, kartoshka, poliz va uzum mahsulotlari ishlab chiharish, aholi iste`moli, eksport bo`yicha ko`rsatkichlarga ye`tibor qaratamiz.

Viloyatda 2015 yilda deqqon ho`jaliklari bilan birgalikda 105,9 ming tonna kartoshka ishlab chiharilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 109,7 foizga yoki 9 ming 400 tonna kartoshka ko`p ishlab chiharildi. Sabzavot ishlab chiharish yil yakunida 369183 tonnaga etkazildi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilning mos davriga nisbatan barcha toifadagi ho`jaliklar qisobiga 19485 tonnaga ko`paydi. SHundan, 89927 ming tonnasi umumiy sektorda, 279256 tonnasi deqqon ho`jaliklarida ishlab chiharildi.

2.3.1.-jadval

Surxondaryo viloyati bo`yicha meva-sabzavot, kartoshka, poliz va uzum mahsulotlari ishlab chiharish hamda aholi iste`moli bo`yicha 2015 yilgi ma`lumot²⁰ (ming tonna)

Maqsu- lot turi	Ishlab chiharish			Uruqlik uchun			Qayta ishlash			Eksport			Aholi iste`moli		
	prognoz	haqiqat	%	prognoz	haqiqat	%	prognoz	haqiqat	%	prognoz	haqiqat	%	prognoz	haqiqat	%
Sabza-vot	348,5	369,2	105,9	5,3	5,4	102,3	0,2	0,2	111	52,0	17,1	32,8	291,0	346,5	119,1
Poliz	85,6	93,2	109	1,6	1,6	100,6	0,2	0,2	100	1,0	0	0	82,8	91,4	110,5
Kartosh- ka	120	105,9	88,3	25,6	27,4	107	0	0	0	0	0	0	94,4	78,5	83,2
Meva	93,1	77,5	83,3	0	0	0	0,7	0,7	100,7	1,4	0	0	91,0	76,8	84,4
Uzum	62,2	46,1	74	0	0	0	17,2	5,3	30,8	3,5	0,01	0,4	41,5	40,7	98,1
Jami	709,4	691,9	97,5	32,5	34,4	105,9	18,3	6,4	35,1	57,9	17,1	29,5	600,7	634,0	105,5

Poliz mahsulotlari ishlab chiharish ham viloyat bo`yicha o`tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori bo`lib, 93275 tonnaga etkazildi.

²⁰ Manba: Surxondaryo viloyat Statistika boshqarmasi ma`lumotlari asosida ishlab chiqilgan

2015 yilda viloyatda 62200 tonna uzum va 93100 tonna meva etishtirilishi rejasi belgilangan edi, ammo qish oylarida kunlarning sovuq kelib uzum va mevazorlarni sovuq urishi natijasida qosildorlik pasayib amalda 46029 tonna uzum hamda, 77523 tonna meva etishtirilib, topshiriq 74,0% uzum, 83,3 % ga meva bajarildi.

2015 yilda viloyatda kartoshka ishlab chihari 111,2 ming tonnani tashkil yetdi va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 105,0 foiz bo'ldi. Sabzavot mahsulotlari yesa 425 ming tonnani tashkil yetgani qolda 2014 yilga nisbatan 115,1 foiz o'sishga yerishildi.

2.3.2.-jadval

Surxondaryo viloyati bo'yicha meva-sabzavot, kartoshka, poliz va uzum mahsulotlari ishlab chihari to'g'risida ma'lumot²¹

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2014 yil qaqiqatda	2015 yil		2014 yilga nisbatan %da
				prognoz	qaqiqatda	
	Kartoshka	ming t	105,9	114,0	111,2	105,0
	Sabzavot	ming t	369,2	388,0	425,0	115,1
	Poliz ekinlari	ming t	93,3	94,5	102,8	110,2
	Meva	ming t	77,5	83,5	84,1	108,5
	Uzum	ming t	46,0	63,7	67,5	146,7
	Jami	ming t	691,9	743,7	790,6	114,2

Huddi shu tarzda poliz ekinlari, meva, uzum etishtirishda ham mos ravishda 110,2%, 108,5% va 146,7 foiz o'sish sur'atiga yerishildi. Umumiy qolatda ushbu mahsulotlar bo'yicha 2015 yilda kutilganidek 743,7 ming tonna mahsulot o'rniga 790,6 ming tonna mahsulot etishtirildi.

Qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish uchun nafaqat hom ashyo etishtirish, balki eksport salohiyatini ham oshirib borish zarur. Buning uchun ayniqsa etishtirilayotgan hom-ashyoni qayta ishlash, tayyor

²¹ Manba: Surxondaryo viloyat Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida

mahsulot qoliga keltirish va eksportbop tovarlar ishlab chiharish aloqida ahamiyatga yega.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo`llab-quvvatlash, ularning barharor ishlashini ta`minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to`g`risida"gi PF-4058-sonli Farmoni ham bu yo`lda keng imkoniyatlar yeshigini ochib beradi.

2015 yilda Surxondaryo viloyatida qishloq xo`jaligi mahsulotlari eksporti 190741,2 ming AQSH dollarini tashkil yetdi va rejaga nisbatan 104,7 foiz, 2008 yilga nisbatan yesa o`shish sur`ati 100,7 foiz ko`rsatkichga yerishildi. Eksport hajmining oshishida ayniqsa paxta tolasi (126,9 %), yenergiya resurslari (129,3 %) va hizmatlar (149,6 %) asosiy o`rinni tashkil qildi. Viloyat qishloq xo`jaligida meva-sabzavot, poliz ekinlari etishtirish ko`rsatkichi yahshi bo`lsada bu tur mahsulotlarni eksport qilish darajasi ancha past. Masalan, 2015 yilda oziq-ovqat mahsulotlari eksporti 14996,7 ming AQSH dollariga teng bo`lib, bu ko`rsatkich rejaga nisbatan 36,2 foizni tashkil yetdi.

Viloyat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo`lgan talabini qondirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 60 dan ziyod issiqhonalar tashkil yetish uchun tijorat banklari tomonidan 2,0 mlrd so`m atrofida imtiyozli kredit ajratildi. Mamlakatimizda jaqon standartlariga to`liq javob bera oladigan, eksportbop qishloq qo`jalik mahsulotlari etishtirish, qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiharishni yanada takomillashtirish uchun qishloq xo`jaligiga chet yel investitsiyalarini jalb yetish ko`lamini oshirish talab yetiladi. CHet yel investitsiyalari jalb qilish orhali qishloq joylarga meva-sabzavot, go`sht va sut mahsulotlarini qayta ishlovchi yangi zamonaviy texnika, uskuna va texnologiyalar kirib kelishi va ko`plab qayta ishlash va ishlab chiharish korhonalari tashkil yetilishiga zamin yaratadi. Bu yesa o`z navbatida bo`sh ishchi kuchini ish bilan ta`minlash, yangidan-yangi sifatli, raqobatbardosh, zamon talablariga javob beradigan tovarlar, qishloq ho`jalik mahsulotlarini ishlab chiharish imkoniyatini yaratadi.

3. BOB. Iqtisodiyotini modernizatsiyalash jarayonida qishloq xo'jaligi tarmog'iga investitsiyalar jalb qilish.

3.1. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish va unga ta'sir etuvchi omillar. (Surxon fermer xo'jaligi misolida)

Qishloq xo'jalik tarmog'ining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyatini inobatga olgan holda uni rivojlantirib borish lozim. Yetishtirilayotgan mahsulotlar samaradorligini yuksaltirish uchun esa ishlab chiqarish va boshqarish xarajatlari tejalishini ta'minlaydigan tadbirlarni oqilona amalga oshirish zarur. Buning uchun mehnatni tashkil etishning bozor iqtisodiyoti talablariga mos shakllarini tatbiq qilish, ishlab chiqarish, hosilni yig'ishtirib olish, saqlash jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, ishlab chiqarish vositalaridan to'liq va samarali foydalanish, zamonaviy texnika, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ishchi-xizmatchilarning moddiy va ma'naviy rag'batlantirilishini izchillik bilan amalga oshirish kerak.

Dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish, uning samaradorligini yuksaltirish maqsadida xo'jaliklarda faoliyat ko'rsatayotgan barcha a'zolarining ishlab chiqarishga bo'lgan munosabatlarini bozor talablari asosida tubdan o'zgartirish lozim. Ya'ni, ular mahsulot yetishtirish, yig'ishtirib olish, saqlash va sotish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni vaqtida, oqilona amalga oshirishdan moddiy manfaatdor bo'lishlari kerak.

Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklarining zamonaviy talablarga javob beradigan moddiy-texnika bazasini bosqichma-bosqich rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Chorva mollari bosh sonini ko'paytirish va ularning mahsuldorlik darajasini oshirishga e'tibor berish kerak. Chorvachilik bino-inshootlarini fan-texnika yutuqlarini e'tiborga olgan holda moslashtirishga, tegishli vositalar bilan ta'minlanishiga, chorva hayvonlari yaxshi parvarishlanib, sifatli mahsulot yetishtirishda yangi texnikalar, ilg'or texnologiyalar joriy etilishiga erishish lozim. Shundagina tarmoqda ishlab

chiqarish jarayonlari mexanizatsiyalashtirilib, mehnat unumdorligining oshishi ta'minlanadi. Naslchilik ishlarini rivojlantirib, sermahsul chorva zotlarini yaratib, ular ishlab chiqarishga tezroq tatbiq etilishini ta'minlash, bunda zotli, sermahsul chorva hayvonlarini sotib olish ham kutilgan natijaga erishish imkoniyatini kengaytiradi. Hozirgi vaqtda hukumatimiz tomonidan naslchilikni rivojlantirishga va fermer xo'jaliklarining yuqori mahsuldorlik darajasiga ega naslli chorva mollarini chetdan (Gollandiya) keltirishlariga ko'mak berilmoqda.

Chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlash uchun yem-xashak yetishtiriladigan maydonlarni kengaytirib, ekinlarni almashlab ekishni rivojlantirish lozim. Bunda yem-xashak ekinlari ekiladigan maydonlarning suv ta'minotiga, meliorativ holatini yaxshilashga hamda mahalliy va mineral o'g'itlardan talab darajasida foydalanishga alohida ahamiyat berish zarur. Bu masalani hal etish uchun qayta ishlash sanoati korxonalarida ishlab chiqariladigan to'yimli ozuqa moddalari talab darajasida olinishini, chorva hayvonlariga ozuqani ilmiy asoslangan ratsion asosida vaqtda berilishini ham tashkil etish zarur. Bu masalaning dolzarbligini e'tiborga olib, respublika hukumati xo'jaliklarga iqtisodiy jihatdan ko'maklashish yo'llarini, mexanizmlarini ishlab chiqqan. Jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar ajratish, shu maqsadda chetdan moddiy-texnika resurslarini keltirishda bojxona to'lovlaridan ozod etish va boshqa chora-tadbirlar belgilangan.

Bu jarayonda chet el investitsiyalari jalb etilishiga alohida e'tibor berish zarur. Chunki hozirgi davrda bu boradagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish borasida ayrim kamchiliklar mavjud.

Ta'kidlangan barcha masalalarning ijobiy hal etilishi tarmoqda faoliyat ko'rsatayotgan ishchi-xizmatchilarning bilimiga, tajribasiga va moddiy rag'batlantirilishiga bevosita bog'liq. Shunday ekan, bu masalalarni hal etish mexanizmlarini, yo'llarini yanada rivojlantirish zarur. Ishchi-xizmatchilarning ish haqlarini vaqtda berish hamda ularni yetishtirgan mahsulotlari miqdori va sifatini e'tiborga olgan holda rag'batlantirishning samarali usulini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishda xo'jalik yuritish shakllari o'rtasida raqobat muhitini yaratish lozim. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlari yetishtirishning asosan dehqon xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ayrim salbiy holatlarni ham keltirib chiqaradi. Jumladan:

- chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni davlat tomonidan tartibga solib borish imkoniyatlari cheklanadi;
- ishlarning mexanizatsiyalashganlik darajasi juda past bo'ladi va bu o'z navbatida yetishtirilayotgan mahsulotlar tannarxining yuqori bo'lishiga olib keladi;
- fan yutuqlarini tarmoqqa qo'llash imkoniyatlari cheklanadi;
- zooveterinariya tadbirlarini amalga oshirish darajasi pasayadi;
- chorvachilik mahsulotlari narxini nazorat qilish imkoniyati cheklanadi;
- qish noqulay kelganda chorva mollarining nobud bo'lishiga olib keladi;
- mustahkam ozuqa bazasini tayyorlash imkoniyatlari cheklangan bo'ladi;
- tarmoqqa xorij taajribasi va xorijiy investitsiyalarni kiritish imkoniyatlari past bo'ladi;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar bilan iqtisodiy aloqalarni o'rnatishda qiyinchiliklar yuzaga keladi va hokazo.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni xo'jalik yuritish shakllari bo'yicha takomillashtirib borish lozim.

Mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan, sanoatning ko'pgina sohalarini esa xam ashyo bilan ta'minlashda qishloq xo'jaligi tarmog'ining o'rni katta. Mamlakatimizda qishloq tarmoqlarini rivojlantirish, ularning samaradorligini yuksaltirish uchun huquqiy, tashkiliy, texnologik hamda iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, tarmoqda iqtisodiy islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Barcha sohada bo'lgani singari, bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo'jaligida ham tadbirkorlik faoliyatiga e'tibor berish va unga keng imkoniyatlar yaratib berish taqozo etiladi. Agrar sohada iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib, qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritish va mulkchilik shakllari bozor munosabatlariga moslashib bormoqda.

Termiz tumanidagi «Surxon» fermer xo`jaligi Termiz tumani xokimining 2006 yil 24 yanvardagi 212-sonli Qarori asosida tashkil etilgan. «Surxon» fermer xo`jaligining umumiy yer maydoni 73,1 gektar bo`lib, shundan 61,3 gektari suvli ekin maydoni, 3,3 gektar tutzorlar, 0,1 gektar qurilish bilan band yerlar, 1,5 gektar ariq-zovurlar bilan band yerlar, 0,7 gektar yo`llar, 3,8 gektar bo`z yerlar, 2,4 gektar boshqa yerlarni tashkil etadi. Mazkur fermer xo`jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug`ullanuvchi, mustaqil xo`jalik yurituvchi sub'ektdir.

«Surxon» fermer xo`jaligining ixtisoslashuvi paxtachilik va g`allachilikdir. Mazkur fermer xo`jaligining ustav fondi 4200000 so`m etib belgilangan.

Puxta o`ylangan dastur asosida 2008 yildan boshlab o`tkazilayotgan maqbullashtirish jarayoni natijalariga ko`ra fermer xo`jaliklarining yer maydonlari hajmi maqbullashtirilmoqda.

Bu jarayonda fermer xo`jaliklarining iqtisodiy samaradorligini o`stirishga imkon yaratuvchi quyidagi omillar e'tiborga olindi:

fermer xo`jaliklari ixtiyorida bo`lgan yer maydonlaridan yaxlit konturlarda, yagona tartibda maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash;

fermer xo`jaliklarining qaysi sohaga ixtisoslashgani va mamlakatimizning turli hududlaridagi aholi zichligini e'tiborga olish;

suv va boshqa moddiy resurslarni tejaydigan yangi agrotexnologiyalarni qo`llashga qulay sharoit yaratish;

yiriklashtirilgan fermer xo`jaliklarining kompleks mexanizatsiyalashuv borasidagi moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish;

zarar bilan ishlayotgan va o`zini oqlamayotgan kichik fermer xo`jaliklarining faoliyatiga barham berish.

Amalga oshirilgan maqbullashtirish jarayoni natijasida, 2013 yil yakuniga ko`ra, respublikamizdagi fermer xo`jaliklarining soni 215 776 tadan 66134 taga yoki 69,4 foizga kamaytirildi, bunda bir fermer xo`jaligiga to`g`ri keladigan o`rtacha yer maydoni hajmini 27,4 gektardan 80,1 gektargacha ko`paytirishga

erishildi. O`rtacha bir fermer xo`jaligiga to`g`ri keladigan yer maydonini tarmoqlar bo`yicha olib qaraydigan bo`lsak, bu ko`rsatkich paxtachilik va g`allachilikda 106,3 gektarga, sabzavotchilik va polizchilikda 23,5 gektarga, bog`dorchilik va uzumchilikda 13,1 gektarga, chorvachilikda 205 gektarga teng bo`lmoqda.

Keyingi yillarda fermer xo`jaliklarini moliyaviy qo`llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga e'tibor berilmoqda. O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun yetishtirilayotgan qishloq xo`jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitob qilish jamg`armasi ma'lumotlariga ko`ra, 2003-2011 yillarda respublikamizda davlat ehtiyojlari uchun paxta xomashyosi va g`alla yetishtiruvchi qishloq xo`jaligi korxonalariga ajratilayotgan imtiyozli kreditlar qiymati 2003 yildagi 309,1 milliard so`mdan 2015 yilda 1 998,8 milliard so`mga oshdi.

Tijorat banklari tomonidan fermer xo`jaliklariga ajratilayotgan imtiyozli kreditlarning yillik foiz stavkasi tijorat kreditlari foiz stavkasidan 2-3 barobar past bo`lmoqda. Bu esa o`z navbatida fermer xo`jaliklari faoliyatini davlat tomonidan iqtisodiy rag`batlantirish va qo`llab-quvvatlash siyosatining natijasidir va fermerlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi.

«Surxon» fermer xo`jaligining sug`oriladigan yerlari 61,3 gektar bo`lib, unga quyidagi ekinlar ekilgan: paxta ekin maydoni – 32,0 gektar, g`alla ekin maydoni – 26,0 gektar, tutzorlar – 3,3 gektar.

«Surxon» fermer xo`jaligida ekin turlari va ulardan olingan hosil to`g`risidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan kurinib turibdiki, fermer xo`jaligida asosan paxta va g`alla yetishtiriladi. Ushbu ekin turlari bo`yicha ekin maydoni tarkibida jiddiy o`zgarishlar so`nggi yillarda kuzatilmagan. Ekin turlari hosildorligi esa o`shish tendentsiyasiga ega. Fermer xo`jaligida tutzorlar ham mavjudligi sababli pilla ham yetishtiriladi. Pillaning har qutisidan olingan pilla miqdori ham o`shish tendentsiyasiga ega bo`lgan.

3.1.1-jadval

«Surxon» fermer xo`jaligida ekin turlari va ulardan olingan hosil to`grisidagi ma'lumotlar

№	Ekin turi	2014 yil		2015 yil		2016 yil	
		Ekin maydoni, ga	Hosil-dorlik, ts/ga	Ekin maydoni, ga	Hosil-dorlik, ts/ga	Ekin maydoni, ga	Hosil-dorlik, ts/ga
1.	Paxta	32,0	30,0	31,5	34,5	32,0	34,0
2.	G`alla	26,0	28,0	26,5	30,0	26,0	30,0
3.	Pilla	5 quti	54 kg	6 quti	56 kg	6 quti	56 kg

Fermer xo`jaliklari faoliyatida moddiy-texnika bazasining o`rni katta. Fermer xo`jaliklarining moddiy-texnika bazasi qanchalik mustahkam bo`lsa, unda mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish imkoniyatlari yuqori bo`ladi. oshirish uchun zarur bo`ladigan mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi.

3.1.2-jadval.

Termiz tumanidagi «Surxon» fermer xo`jaligining qishloq xo`jalik texnikalari to`g`risidagi ma'lumot

Texnikalar nomi	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil
Traktorlar, jami	1	1	2	2	2	3	3
Haydov traktorlari	-	-	1	1	1	1	1
Chopiq traktorlari	1	1	1	1	1	2	2
Traktor tirkamalari	1	1	1	1	1	2	2
Kultivatorlar	1	1	1	1	1	1	2
Pluglar	-	-	1	1	1	1	1
Don o`rish kombaynlari:	-	-	-	1	1	1	1

Shu nuqtai nazardan, fermer xo`jaliklarida moddiy texnika bazasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Fermer xo`jaliklarining moddiy-texnika bazasi tarkibida qishloq xo`jalik texnikalari, turli agrotexnik tadbirlarni amalga

Ushbu jadval ma'lumotlaridan kurinib turibdiki, Termiz tumanidagi «Surxon» fermer xo`jaligida qishloq xo`jaligi texnikalari soni keyingi yillarda usish tendentsiyasiga ega. Ayniqsa 2015 yildan fermer xo`jaligida qishloq xo`jaligi texnikasini ko`paytirishga alohida e'tibor qaratila boshlandi.

Termiz tumanidagi «Surxon» fermer xo`jaligining 2016 yildagi ishlab chiqarish xarajatlari to`qrisidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko`rinib turibdiki, Termiz tumanidagi «Surxon» fermer xo`jaligining ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida yuqori salmoqni YMM xarajatlari va ijtimoiy ajratmalari bilan meqnat haqi xarajatlari yuqori salmoqni egallagan.

3.1.3-jadval.

Termiz tumanidagi «Surxon» fermer xo`jaligining ishlab chiqarish xarajatlari to`g`risidagi ma'lumot, 2016 yil qolatiga

№	Xarajat turlari	Jami xarajat ming so`m	Jamiga nisbatan foizda
1	Mehnat haqi, ijtimoiy ajratmalari bilan	98747	33
3	Amortizatsiya	6204	2
4	Ish xizmatlar	7432	2
5	YMM	110369	37
7	Ug`itlar	22750	8
8	Urug`lik	30600	10
9	Yer solig`i	1350	1
10	Umum ishlab chiqarish xarajati	7313	2
11	Boshqa xarajatlar	928	1
	JAMI	295544	100

Bundan tashqari, urug` va o`g`it xarajatlari ham sezilarli salmoqni egallagan. Fermer xo`jaligida mahsulot tannarxini yanada pasaytirish uchun ilmiy asoslangan me'yorlar bo`yicha xom ashyo va materiallar xarajatlarini tejash maqsadga muvofiq.

Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlil qilishda rentabellik darajasi eng asosiy ko`rsatkich hisoblanadi. Rentabellik darajasiga qarab korxonada qilingan xarajatlarning samaradorligi aniqlanadi.

Termiz tumanidagi «Surxon» fermer xo`jaligining moliyaviy natijalari to`g`risidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko`rinib turibdiki, Termiz tumanidagi «Surxon» fermer xo`jaligining moliyaviy natijalari 2016 yilda 2015 yilga nisbatan pasaygan. Ya'ni 2016 yilda rentabellik darajasi 2,6 punktga pasaygan. Mazkur holat ishlab chiqarish xarajatlari o`shishiga nisbatan fermer xo`jaligining olgan sof foydasi o`shishining orqada qolganligi bilan izohlanadi.

3.1.4-jadval.

Termiz tumanidagi «Surxon» fermer xo`jaligining moliyaviy natijalari to`g`risidagi ma'lumot

№	Ko`rsatkichlar	2014 yil	2015 yil	2016 yil
1.	Jami xarajatlar, ming so`m	187520	213568	295544
2.	Sof foyda, ming so`m	23753	28541	31853
3.	Rentabellik darajasi, foizda	12,6	13,3	10,7

Fermer xo`jaligini yanada rivojlantirish uchun ishlab chiqarish xarajatlarini tejash va sof foyda summasini oshirishga erishish lozim. Shunda fermer xo`jaligida qilinayotgan xarajatlar samaradorligi ortadi.

3.2. Modernizatsilash sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlarni qayta ishlash va eksport qilish tizimini rivojlantirish.

Qishloq xo'jaligidagi muammolarni hal qilishning muhim omili va shart-sharoitlaridan biri, bu investitsiya faolligini yanada kuchaytirishdan iboratdir. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni qayta ishlash, tayyor mahsulot sifatida eksport qilish uchun faqat institutsional o'zgarishlarni amalga oshiribgina qolmay, balki bu sohaga keng qamrovli investitsiyalarni olib kirish lozim. Investitsiyalar qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda muhim omil bo'lib, u kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosini tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi sohasida samaradorlikka erishish, mehnat unumdorligini oshirish, qo'l mehnatini qisqartirish, mahsulot tannarhini kamaytirish, qishloq aholisi turmush darajasini yanada oshirishda, qolaversa, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatlarini oshirishda, mamlakatning oziq-ovqat ta'minotida investitsiyalarning o'rnini va ahamiyati juda katta.

Zero mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Ana shu vazifalarni amalga oshirishda 2016-yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturining hayotga tatbiq etilishi o'ta muhim o'rin tutadi. Nega deganda, bu dastur sanoatda, butun iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarning eng muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

2016-yil uchun belgilangan, umumiy qiymati 5 milliard dollardan ziyod bo'lgan 164 ta yirik investitsiya loyihasini belgilangan muddatlarda so'zsiz ishga tushirishni ta'minlash bo'yicha zarur chora-tadbirlarni kechiktirmasdan amalga oshirish lozim..."²²

Mamlakatimiz uchun asosiy vazifa – ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, doimiy ravishda ichki imkoniyat va zaxiralarni

²² Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir." Xalq so'zi. 17.01.2016

izlab topish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirishdan iborat.

Shu borada ichki imkoniyat va zaxiralarimizni ishga solishning eng muhim yo'nalishi bizning zaminimizdagi boy mineral xomashyo va o'simlik dunyosi resurslarini chuqur qayta ishlashni bosqichma-bosqich oshirib borish, shuningdek, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishning hajmi va turini kengaytirishdan iborat bo'lishi kerak.

Boshqacha aytganda, xomashyoni jahon bozorida talab katta bo'lgan mahsulotga aylantirish uchun qayta ishlashning 3-4 bosqichli tizimiga o'tishimiz zarur. Bu tizimning ma'no-mohiyati shundan iboratki, u birinchi bosqichda xomashyoni dastlabki qayta ishlash, ya'ni yarim fabrikatlar tayyorlash, keyingi bosqichda sanoat asosida ishlab chiqarish uchun tayyor materiallarga aylantirish, uchinchi, yakuniy bosqichda esa iste'mol uchun tayyor mahsulot ishlab chiqarishni nazarda tutadi.

Bu boradagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda har bir turdagi birlamchi xomashyo, ya'ni yarim fabrikatlarni chuqur qayta ishlashdan tortib, uni iste'mol uchun tayyor mahsulotga aylantirishgacha bo'lgan yakuniy bosqichga qadar butun ishlab chiqarish jarayonini kuzatib borish zarurati paydo bo'lmoqda.

Muxtasar aytganda, ishlab chiqarishni tashkil etishning butun jarayonini – xomashyoni chuqur qayta ishlashdan toki uni tayyor mahsulotga aylantirishgacha bo'lgan yo'lini – siklini, sarflangan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi va nechog'liq o'zini qoplashini asoslab bergan holda, prognoz qilishni ta'minlash darkor.

Zamonaviy texnologiyalar asosida paxta tolasini va meva-sabzavot mahsulotlarini chuqur qayta ishlash tashqi va ichki bozorda talab yuqori bo'lgan tayyor, ekologik toza to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2030-yilda 5,6-marta, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash hajmini esa 5,7 karra oshirish imkonini beradi.

Bu yo'lda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hisobidan sanoatni jadal rivojlantirish va yalpi ichki mahsulotda uning ulushini 2015-yildagi 33,5

foizdan 40 foizga yetkazish, qishloq xo‘jaligi ulushini esa 16,6 foizdan 8-10 foizga kamaytirish, energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish evaziga yalpi ichki mahsulot uchun sarflanadigan energiya hajmini taxminan 2 barobar qisqartirishga erishmog‘imiz kerak.

Qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish 2016-yil va yaqin istiqbolga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturimizning prinsipial muhim yo‘nalishidir.

Aytish kerakki, mazkur tarmoqda xo‘jalik yuritishning fermerlik tizimiga o‘tilishi munosabati bilan fermerlar uchun ijara mulki huquqi asosida ajratiladigan yer maydonlarini optimallashtirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Bu tadbirni amalga oshirish, birinchi navbatda, sug‘oriladigan dehqonchilik sharoitida, suv taqchilligi va yerlarning aksariyat qismi kuchli sho‘rlangan bir vaziyatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va qishloq tumanlarida ekin maydonlari amalda tuproq unumdorligi va yer boniteti bo‘yicha keskin farq qilishi bilan bog‘liq.

Turli mintaqalarda tashkil qilingan fermer xo‘jaliklarining to‘plagan rivojlanish tajribasi, samaradorligi va rentabelligini hisobga olgan holda, ularni oqilona va qulay miqdordagi yer uchastkalari bilan ta‘minlash uchun qattiq ish olib borishga to‘g‘ri keldi.

Shu borada yer maydonlari hajmini aniqlashda subyektiv yondashuvlarga yo‘l qo‘ymaslik va bunday holatlarning oldini olishda ana shu o‘ta muhim ishni amalga oshirish mas‘uliyati deputatlar korpusi, Fermerlar kengashi va jamoatchilik zimmasiga yuklatilgani hal qiluvchi omil bo‘ldi.

Er maydonlarining optimallashtirilishi natijasida 17 ming 500 dan ortiq yangi fermer xo‘jaligi va 250 mingdan ziyod ish o‘rni tashkil etildi. Toshkent, Jizzax, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo, Farg‘ona, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida eng ko‘p fermer xo‘jaliklari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Fermer xo‘jaligini yuritish uchun yer maydonlari ajratish va taqsimlashning yangi mexanizmi joriy etildi. Unga muvofiq, qarorni tuman hokimi emas, balki Fermerlar kengashi va Yer uchastkalari taqdim etish masalalarini ko‘rib chiqish komissiyasi xulosasi bo‘yicha xalq deputatlari tuman kengashlari qabul qilmoqda.

Yana bir o‘ta dolzarb va uzoqni ko‘zlagan masalaga alohida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Bu o‘rinda 2020-yilgacha paxta xomashyosini yetishtirish va uni davlat tomonidan xarid qilish hajmini 3 million 350 ming tonnadan 3 million tonnaga bosqichma-bosqich qisqartirish haqida so‘z bormoqda.

Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatmoqdaki, shunday hajmdagi yetishtiriladigan paxta hosili, bir tomondan, xomashyoni o‘zimizda chuqur qayta ishlashni inobatga oladigan bo‘lsak, avvalo, to‘qimachilik va yengil sanoatning ana shu xomashyoga bo‘lgan ehtiyojini nafaqat to‘la ta‘minlaydi, balki O‘zbekistonning jahon bozoriga paxta tolasi va undan tayyorlanadigan mahsulotlar yetkazib beradigan mamlakat sifatidagi mustahkam mavqeini saqlab qolish imkonini ham beradi.

Paxta yetishtirish hajmini 350 ming tonnaga qisqartirish hisobidan 170 ming 500 gektar sug‘oriladigan yer paxtadan bo‘shaydi. Bu jarayonda, albatta, avvalo mamlakatimiz bo‘yicha paxta hosildorligi gektaridan o‘rtacha 26,1 sentnerni tashkil etib turgan bir paytda hosildorligi 12-15 sentnerdan oshmaydigan past bonitetli yerlarni paxtadan bo‘shatishga e‘tibor qaratiladi. Asosan sho‘rlangan, shuningdek, paxta yetishtirishga yaroqsiz bo‘lgan tog‘oldi yerlariga g‘o‘za ekilmaydi.

Bunday qarorga kelishimizning yana bir sababi borki, u ham bo‘lsa, so‘nggi yillarda jahon bozorida paxta tolasining narxi va unga bo‘lgan talabning keskin pasayib ketishi bilan bog‘liqdir.

Paxtadan bo‘shagan ekin maydonlarida avvalo, sabzavot va kartoshka, shular qatorida ozuqa ekinlari, yog‘- moy olinadigan va boshqa o‘simliklar ekiladi, bog‘ va uzumzorlar barpo etiladi.

Ekin maydonlarining optimallashtirilishi va zamonaviy agrotexnologiyalarning joriy etilishi natijasida 2020-yilda boshqoli don

yetishtirishni 16,4 foizga oshirib, uning hajmini 8 million 500 ming tonnaga yetkazish, kartoshka yetishtirishni 35 foizga, sabzavotni 30 foizga, meva va uzumni 21,5 foiz, go'sht yetishtirishni 26,2 foizga, sutni 47,3 foiz, tuxumni – 74,5 foizga ko'paytirish, baliq yetishtirishni 2,5-martaga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Ayni paytda ana shu turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish hajmi sezilarli darajada ortishini ham hisobga olish zarur.

Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish so'nggi yillar davomida o'sish ko'rsatkichlariga ega bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligi sohasida qiymati 51,9 mlrd so'm mablag' xisobiga 623 ta loyiha amalga oshirilib, 4312 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Ushbu loyihalarni amalga oshirish maqsadida tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligi soxasiga 23 mlrd so'mlik kredit mablag'lari moliyalashtirildi.

Viloyatda 2014 yilda 3323537,9 mln. so'mlik yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarildi va o'tgan yilga nisbatan 121,3 foizni tashkil etdi.

Hududiy ichki mahsulot bo'yicha 540699,4 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi va o'tgan yilga nisbatan 114 foizni tashkil etdi.

SHundan 354862,7 mln so'mlik oziq - ovqat mahsulotlari, 136662,7 sımmlık nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Viloyatda sunggi yillarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ammo bu ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning juda kam qismini tashkil etmoqda. SHu sababli yoz oylarida narxlar arzon bo'lgani holda qish mavsumida keskin kutarilib ketishi kuzatilmoqda.

Ushbu muammolarning oldini olish uchun yirik sovutgichli omborxonalar qurish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Bu kabi faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektlariga xorijiy va ichki investitsiyalarni jalb qilish, imtiyozli kreditlar berish, yangi zamonaviy texnologiyalarni olib kelish va foydalanida imtiyozlar berish muhim ahamiyatga ega.

Surxondaryo viloyatida 2016 yil yakunida ishbilarmonlik muhitining holati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasini baholash natijalarini har bir tuman kesimida chuqur tahlil qilish, past ko'rsatkichlarga olib kelgan omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rish, viloyatda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash bo'yicha mahsus dastur ishlab chiqish va amalga oshirish talab etiladi.

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini mavjud bo'lmagan yuqorida keltirilgan tumanlarda joriy yil yakuniga qadar qayta ishlash korxonalarini tashkil etish;

- har bir tumanda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarining faoliyat ko'rsatmaslik hamda to'liq quvvatda ishlamaslik sabablarini o'rganib chiqish va ularning faoliyatini tiklash va to'liq quvvat bilan ishlashini ta'minlashga qaratilgan choralarini amalga oshirish;

- 2017 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturida belgilangan qishloq xo'jaligi bo'yicha loyihalarni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash, xususan qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha 555 ta loyihani amalga oshirish uchun belgilangan 37 mlrd.so'm miqdoridagi tijorat banklari kredit mablag'larini o'z vaqtida ajratish choralarini ko'rish;

- qish-bahor mavsumida aholining qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish uchun zarur omborxonalar va muzlatgich sig'imginlarini yaratish bo'yicha manzilli dastur parametrlarini bajarilishini ta'minlash talab etiladi.

Bizningcha, qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni samarali joylashtirish quyidagi muammolarni hal yetishga hizmat qiladi:

- qishloq joylarda kichik ishlab chiharish shaxobchalari quriladi. Bu o'z navbatida qishloqda qo'shimcha ish joylarini tashkil etadi va deqqonchilik madaniyatini oshiradi;

- investitsiyalarni jalb yetish orqali qishloq xo'jaligida zamonaviy texnika va texnologiyalar parki ko'payib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va tayyor mahsulot yaratish imkoniyati kengayadi;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish valyuta zahiralarini mamlakatning o'zida qolishini ta'minlab, ularni boshqa tadbirlarga sarflash imkoniyatini yaratadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda samarali natijalarga erishish barobarida ularni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish avvalo, mahsulotlarning nobud bo'lishining oldini olishga va tayyor mahsulotlarni eksportga chiqarish imkoniyatlarini oshiradi. Bu esa o'z navbatida davlatimiz o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi, aholi daromadlarining oshishi va turmush darajasining yaxshilanishiga zamin yaratadi.

Mustaqillik yillarida respublikamiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohatlar natijasida qator muvaffaqiyatlarga erishildi. Bu, eng avvalo, bozor munosabatlariga o'tishning huquqiy asoslarining yaratilganligida, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda fermer ho'jaliklari ulushining oshayotganligida, qolaversa, qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sib borayotganligida o'z aksini topadi.

Qishloq xo'jaligidagi muammolarni hal qilishning muhim omili va shart-sharoitlaridan biri, bu investitsiya faolligini yanada kuchaytirishdan iboratdir. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni qayta ishlash, tayyor mahsulot sifatida eksport qilish uchun faqat institutsional o'zgarishlarni amalga oshiribgina qolmay, balki bu sohaga keng qamrovli investitsiyalarni olib kirish lozim. Investitsiyalar qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda muhim omil bo'lib, u kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosini tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi sohasida samaradorlikka erishish, mehnat unumdorligini oshirish, qo'l mehnatini qisqartirish, mahsulot tannarhini kamaytirish, qishloq aholisi turmush darajasini yanada oshirishda, qolaversa, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatlarini oshirishda, mamlakatning oziq-ovqat ta'minotida investitsiyalarning o'rni va ahamiyati juda katta.

Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish so'nggi yillar davomida o'sish ko'rsatkichlariga ega bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligi sohasida meqnat unumdorligini oshirish, mahsulot tannarhini kamaytirish, yuqori samaradorlikka yerishish va qishloq aholisi turmush darajasini oshirishda qayta ishlash sanoatini kiritishning tutgan muhim o'zni tarmoqqa investiyalar jalb yetishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlardan asosiy maqsad halqimizning turmush faravonligini yaxshilash va daromadlarini oshirib borishdan iborat. Iqtisodiyotimizda agrar soha asosiy o'rinni egallashini inobatga olgan holda qishloq xo'jaligiga sanoatni yanada chuqurroq olib kirish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va dunyoga tayyor mahsulot yetkazib beruvchi davlatlar qatoridan joy egallashimiz zarur.

Bizningcha, qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni samarali joylashtirish quyidagi muammolarni hal yetishga hizmat qiladi:

- qishloq joylarda kichik ishlab chiqarish shahobchalari quriladi. Bu o'z navbatida qishloqda qo'shimcha ish joylarini tashkil etadi va deqqonchilik madaniyatini oshiradi;

- investitsiyalarni jalb yetish orqali qishloq xo'jaligida zamonaviy texnika va texnologiyalar parki ko'payib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va tayyor mahsulot yaratish imkoniyati kengayadi;

- horijiy investitsiyalarni jalb yetish qisobiga qurilgan korxonalarda import o'rmini qoplovchi va eksportga mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqarish uchun imkoniyat yaratiladi;

- qishloq joylarda yangi korxonalar tashkil yetilishi yesa infratuzilmaning qo'shimcha shahobchalari paydo bo'lishiga olib keladi;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish valyuta zahiralarini mamlakatning o'zida qolishini ta'minlab, ularni boshqa tadbirlarga sarflash imkoniyatini yaratadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda samarali natijalarga erishish barobarida ularni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish avvalo, mahsulotlarning nobud bo'lishining oldini olishga va tayyor mahsulotlarni eksportga chiqarish imkoniyatlarini oshiradi. Bu esa o'z navbatida davlatimiz o'z oldiga qo'ygan

asosiy maqsadi, aholi daromadlarining oshishi va turmush darajasining yaxshilanishiga zamin yaratadi.

Viloyatda faoliyat yuritayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalarining quvvatlari yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini viloyat aholisi ehtiyojlari uchun va qisman eksport qilish maqsadida qayta ishlash uchun yetarli emas. SHu sababli viloyatga qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash natijasida olinadigan sanoat mahsulotlari qisman mamlakatimizning boshqa mintaqalaridan import qilinadi. Vaholanki viloyatda mavjud qulay tabiiy-iqlim sharoitlari sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'p miqdorda ishlab chiqarish imkonini beradi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hamda dehqonlarning o'zlari yetishtirgan mahsulotlarini sotishdan oladigan daromadlarini oshirish uchun qayta ishlovchi korxonalar va dehqon xo'jaliklari orasida iqtisodiy munosabatlarni tashkil etish mexanizmini ishlab chiqish lozim. Bunda dehqon xo'jaliklari va sanoat korxonalari o'rtasida bir martalik emas, balki doimiy iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishga erishish lozim.

Meva, uzum, sabzavot, poliz va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklari hukumatimiz tomonidan yaratib berilgan imtiyozlardan unumli foydalangan holda o'zlari yetishtiradigan mahsulotlarini qayta ishlashni kengaytirishlari lozim. Bunda mahsulot pishib yetilganda o'zlarida yetishtirilgan va ushbu hududda yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash maqsadida zamonaviy texnologik liniyalarni olib kelib o'rnatish va unda tayyor sanoat ishlab chiqarishlari lozim. SHu orqali o'z daromadlari ko'payishiga va shu bilan birga aholini ish bilan ta'minlashga erishadilar. Bitta fermerning iqtisodiy qudrati zamonaviy texnologiyalarni olib kelishga yetmagan holatlarda agrofirmalar tashkil etish orqali mazkur faoliyatni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, eksport salohiyati va samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi:

- qayta ishlash sanoati korxonalaridagi eskirgan asosiy vositalarni zamonaviy chet el asbob-uskunalari bilan yangilash, moderinizatsiyalash;
- tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur minitexnologiyalarni olib kelish va ularga servis xizmati ko'rsatuvchi tizimni barpo qilish;
- oziq-ovqat sanoati uchun xom ashyo yetkazib berishni takomillashtirish va bunda mahsulot yetkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli shartnomaviy munosabatlarni yo'lga qo'yish mexanizmini takomillashtirib borish;
- qishloq xo'jalik mahsuloti yetkazib beruvchi fermer va dehqon xo'jaliklarini bo'naklash mexanizmini yanada takomillashtirish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlashni yo'lga qo'yish uchun zarur infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish;
- agrofimlar tashkil etgan holda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashni kengaytirish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga e'tiborni kuchaytirish;
- oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, konservalar, meva sharbatlari ishlab chiqarishga asosiy o'rin ajratish va bu sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb etish lozim.

Umuman mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari iste'molimiz uchun zarur bo'lganidan ortiq yetishtirilmoqda. SHunday ekan, iste'moldan ziyod mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilishni tashkil etish va keskin rivojlantirish darkor.

Viloyatimizda o'ziga xos shunday qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladiki, ularni qayta ishlash juda mushkul. Qovun, tarvuz, sabzi, piyoz va sarimsoqpiyoz shunday mahsulotlar sirasiga kiradi. Bularni uzoq muddat saqlash imkoniyati ham o'ta cheklangan. SHu bois, bunday mahsulotlarning iste'molchilarini xorijdan topish lozim. Aks xolda ular boy beriladi.

Nazarimizda, bunday noxush vaziyatdan chiqishning asosiy yo'llaridan biri qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotuvi (realizatsiyasi)ning boshqarish jarayonlarini takomillashtirish va qishloq xo'jaligi tarmog'iga investitsiyalar (maxalliy va xorijiy)ni jalb etishni jadallashtirishdir.

Etishtirilayotgan paxta, pilla va meva kabi mahsulotlarni o'zimizda qayta ishlab, tayyor mahsulot xoliga keltirishni jadallashtirish, qishloq joylardagi ayrim muammolar bartaraf etilishiga imkoniyat yaratadi. Bu boradagi maqsadga erishish uchun qishloq xo'jaligiga jalb etilayotgan investitsiyalarni keskin ko'paytirish kerak.

Bizningcha, investitsiyalarni samarali joylashtirish qo'yidagi muammolarni xal etishga xizmat kiladi:

- qishloq joylarda kichik ishlab chiqarish shaxobchalari kuriladi. Bu, uz navbatida, qishloqda kushimcha ish joylarini tashkil etish bilan bir katorda dexkonchilik madaniyatini xam oshiradi;

- to'g'ri investitsiyalarni jalb etish qishloq xo'jaligi tarmog'i va xududida zamonaviy texnika va texnologiyalar parki ko'payishiga olib keladi. Pirovardida, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kayta ishlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati kengayadi;

- xorijiy investitsiyalarni jalb etish xisobiga qurilgan korxonalar tufayli import o'rnini bosib, eksportga mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqarish uchun qulaylik yaratiladi.

- soliq to'lovchilar soni xam ko'payib, maxalliy va respublika byudjetining daromadi oshadi.

- qishloq joylarda yangi korxonalar tashkil etilishi esa infratuzilmaning qo'shimcha shaxobchalari paydo bo'lishiga olib keladi;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish valyuta zaxiralari mamlakatning o'zida qolishini ta'minlab, ularni jamiyat uchun o'ta zarur bo'lgan boshqa tadbirlarga sarflash imkoniyatini yaratadi.

Xullas, viloyatimizda qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish uchun yuqorida zikr etilgan muammolarni bartaraf etishga e'tiborni kuchaytirish zarur. Bu qishloq axolisining turmush darajasi va xayot farovonligi yanada oshishiga ijobiy ta'sir etadi.

Viloyat iqtisodiyotiga jalb etilgan jami investitsiyalar hajmida qishloq xo'jaligi tarmog'iga jalb qilingan investitsiyalar ulushi juda yuqori deb bo'lmaydi. Lekin, bir qator omillar mavjudki, ularga asoslangan holda viloyat qishloq xo'jaligi investitsiyalarni yo'naltirish uchun qulay tarmoq degan xulosaga kelish mumkin.

Viloyatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda quyidagi yo'nalishlarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish zarur, ya'ni:

- ishlab chiqarish munosabatlari;
- yer munosabatlari va yerdan foydalanish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish, tayyorlov tizimlari;
- qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarini kreditlash tizimi va baholarni tartibga solish;
- moliyaviy operatsiyalarni erkinlashtirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini taqsimlash va boshqalar.

YUqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, viloyat iqtisodiyoti agrar tarmog'iga investitsiyalarni jalb etish muhim strategik ahamiyatga ega. Chunki, viloyatimiz hududida subtropik mevalarni, ertapishar meva-sabzavotlarni yetishtirish imkoni mavjud. Bu esa viloyatimizning ushbu mahsulotlarni yetishtirishda boshqa hududlardan ustunligini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligida qayta ishlab chiqarish salohiyatini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, mahsulotlarni qayta ishlashda nodavlat sektorining ulushi 99 foizni tashkil etadi. Agrosanoat majmuasida esa aholini mehnatga layoqatli qismining 44 foizdan ko'prog'i band bo'lib, qishloq xo'jaligi sektori O'zbekiston aholisi uchun zarur bo'lgan oziq - ovqat mahsulotlarini qayta ishlab chiqish imkonini beradi.

Bozor munosabatlari har bir ishlab chiqaruvchidan qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobat-bardoshligini ta'minlash, uni qayta ishlash tizimini yo'lga qo'yish va tarmoq sama-radorligini oshirishni pirovard maqsadi qilib belgilashni talab etady. Bugungi kunda agrar sohada asosiy qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiruvchi sifatida shakllanayotgan fermer xo'jaliklarining aksariyat qismida sohani samarali yuritish va rivojlantirish uchun moliyaviy mablag'larning yetishmasligi kuzatilmokda. Ushbu masalani hal etishning asosiy yo'nalishlaridan biri sohaga kiritilayotgan investitsiya mablag'lari hajmini oshirish, ko'lamini kengaytirish hisoblanadi.

Davlat buyurtmasi asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirayotgan korxonalariga imtiyozli kreditlar ajratish tartibi joriy etilgan bo'lib, bu yetishtirilayotgan mahsulotni xarid qilishni to'liq kafolatlaydi. Lekin, davlat buyurtmasiga kirmagan, ammo xorijga eksport qilish imkoniyati yuqori bo'lgan meva-sabzavotchilik mahsulotlari yetishtirishni ham imtiyozli kreditlar bilan ta'minlash, sohaga investitsiyalar jalb etish ko'lamini kengaytirish davr talabi hisoblanadi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, investorlar tomonidan qishloq xo'jalik sohasiga, jumladan meva-sabzavotchilik tarmog'iga bevosita investitsiyalarning sust kelishiga asosiy sabab tarmoqning ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq tavakkalchilik xavfining yuqoriligi hisoblanadi. Bunday tavakkalchilik xavflari tarkibiga iqlim sharoitining yomonlashuvi, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning o'z majburiyatini bajarmasligi, asosiy jamg'armalar: xomashyo, elektr quvvati, xizmat ko'rsatishning yetishmasligi kabilar kiradi.

Raqobatbardosh mahsulot yetishtirishni ta'minlash uchun davlat tomonidan meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalarni qayta jihozlash ishlariga e'tibor qaratish hamda ularga ichki va tashqi investitsiyalar jalb etishda yanada qulayroq muhit yaratish, imtiyozlar berish zarur. Shu bois, yangidan tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga mulkni garovga qo'yish sharti bilan banklardan kredit olishga imkoniyatlar va sharoitlarini kengaytirish va shu asosda, ular tomonidan yetishtiriladigan hosilni yoki umuman ekin maydonini garovga qo'yan holda kreditlash tizimini kengroq yo'lga qo'yish maqsadga muvofikdir.

Investitsiyalar jalb etish qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlab, tayyor mahsulot yaratishga yo'l ochadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi. YUrtimizda yetishtiriladigan shirindan-shakar mevalarni qayta ishlangan holda chet elga eksport qilishga imkon beradi. Ayniqsa, uzoq muddat saqlash imkonini bermaydigan mevalar, sabzavotlar va poliz ekinlari (turli mevalar, pomidor, tarvuz va qovun, uzum va boshqalar)ni qishloq joylarining o'zida qayta ishlash, konservalashni yo'lga qo'ysak, qanchadan-qancha qishloq xo'jalik

mahsulotlarining behuda zoe bo'lishi va transport mablag'lari isrofining oldini olgan bo'lardik.

SHunday ekan, bugungi kunning eng dolzarb iqtisodiy vazifalaridan biri bu, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar ochish uchun investitsiyalar jalb etishdir.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida, ya'ni dehqon, fermer va shaxsiy tomarqa xo'jaliklariga yer maydonlari ajratishning keskin ko'paytirilishi evaziga o'lkamizda g'alla, kartoshka, meva-sabzavot, go'sht va sut kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmi sezilarli darajada ortdi. Hozirgi kunga kelib, oziq-ovqat mahsulotlari importini 3 baravar kamaytirishga erishildi.

Keyingi yillarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish samaradorligi va salmog'ining oshishi natijasida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga erishilmoqda. Viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan bir qatorda eksport qilishga ham alohida e'tibor qaratilib kelinayapti.

Respublikamiz hukumati tomonidan mamlakatimizda chorvachilikning parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik kabi tarmoqlarini rivojlantirish borasida ham maqsadli dasturlar ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi xalqimizning chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini barqaror qondirishga muhim hissa qo'shishi shubhasiz.

qishloq xo'jaligining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarga e'tibor berish lozim:

1) qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotini ko'paytirish va uning sifatini yaxshilash tadbirlari:

ekinlarning serhosil navlarini, chorva hayvonlarining esa sermahsul zotlarini yaratish, ularni ishlab chiqarishga joriy etilishini ta'minlash;

yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv ta'minoti tadbirlarini rivojlantirish, sug'orishning tejamkor usullarini joriy etish;

chorva hayvonlarini sifatli ozuqa bilan ta'minlash va oziqlantirishni talab darajasida amalga oshirish;

ekologiyani e'tiborga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlarida mahalliy va mineral o'g'itlardan hamda kimyoviy vositalardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni talab darajasida ta'minlash;

mahsulotlarning sifatini, ularni tashish va saqlash jarayonlarini yaxshilash tadbirlarini tezkorlik bilan amalga oshirish va boshqalar.

2) qishloq xo'jaligida moddiy, mehnat va pul xarajatlari tejalisini ta'minlovchi tadbirlar:

ishlab chiqarishni samarali joylashtirish, ixtisoslashtirish va tashkil etishni jadallashtirish;

yangi texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, mavjud ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish natijasida ish jarayonlarini to'liq mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish va elektrlashtirish;

ishchi-xizmatchilarni rag'batlantirish tizimini rivojlantirish;

davr hamda moliyaviy faoliyat xarajatlarini tejash va boshqalar.

3) Bozor iqtisodiyoti munosabatlarini qishloq xo'jaligiga joriy etishni erkinlashtirish va jadallashtirish tadbirlari:

sanoat hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari baholari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, sotish jarayonini erkinlashtirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik turlarini rivojlantirish;

investitsiyalar jalb etilishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish;

qishloq xo'jaligida infratuzilma sohalarini rivojlantirish;

qishloq xo'jaligiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni jadallashtirish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xorijiy mamlakatlarga eksport qilishni qo'llab-quvvatlash va hokazo.

Bu tadbirlar, avvalo yetishtiriladigan mahsulotlar miqdorini talab darajasida ko'paytirishga va ularning sifatini yaxshilashga qaratilgan bo'lishi zarur. Mahsulotlar miqdori ekin maydonlarini kengaytirish hamda ularning hosildorligini oshirish hisobiga ko'paytirilishi mumkin. Ekin maydonlarini ko'paytirish uchun

yangi yerlarni o`zlashtirish talab etiladi, lekin buning imkoniyatlari cheklangan. Shuning uchun asosiy e'tiborni ekinlarning hosildorligini oshirishga qaratish zarur. Buning uchun ekinlarning yangi, serhosil, tezpishar navlarini yaratish, irrigatsiya va melioratsiya inshootlari holatini yaxshilash, agrotexnik tadbirlarni o`z vaqtida amalga oshirish natijasida tuproqning unumdorligi oshishini ta'minlash lozim. Shu bilan birgalikda ekinlarni almashlab ekishni ilmiy asoslangan holda keng joriy etish maqsadga muvofiq. Alohida e'tibor ishchi-xizmatchilarni moddiy va ma'naviy rag`batlantirishga qaratilishi zarur.

Yuqoridagilar bilan birga ishlab chiqarish, davr hamda moliyaviy xarajatlarni tejab amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi texnika, ilg`or texnologiyalarni hayotga joriy etish natijasida mehnat xarajatlari kamayishiga erishish mumkin. Bu jarayon ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, agrosanoat integratsiyasining rivojlantirilishi bilan bevosita bog`liqdir. Chorva hayvonlari mahsuldorligini ham oshirish lozim, buning uchun naslchilik ishlarini rivojlantirish zarur. Chorva hayvonlarini to`yimli ozuqa bilan ta'minlashga erishish maqsadga muvofiqdir. Bu tarmoqda ham barcha xarajatlarni tejash bilan bog`liq bo`lgan tadbirlar sifatli amalga oshirilishini ta'minlash zarur.

Korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda iqtisodchi kadrlarning ham o`rni bor. Eng avvalo, ular yil boshida korxonaning biznes rejasini mukammal tuzishlari va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalangan holda korxonaning xo`jalik faoliyatini tahlil qilib borishi lozim. Amalga oshirilgan tahlil natijasida korxonada samaradorlikni oshirish borasida yo`l qo`yilayotgan kamchiliklarni o`z vaqtida aniqlash va uni bartaraf etish bo`yicha takliflarni ishlab chiqib, korxonada rahbariyatiga taqdim etishi lozim.

Yalpi foydaning ko`payishi mahsulotlarni sotish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlarni tejatlashini ham taqozo etadi. Shuning uchun mahsulotlarni sotish bilan bog`liq bo`lgan jarayonlarni takomillashtirish lozim. Yuqorida ta'kidlangan tadbirlarni amalga oshirish qishloq xo`jaligi tarmoqining iqtisodiy samaradorligi oshishini ta'minlaydi.

3.3. Sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash tizimini takomillashtirish yo'nalishlari va istiqbollari

Bozor sharoitida boqdorchilik mahsulotlari ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish, eng avvalo mahsulot etishtiruvchi fermerga o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun yerkin iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish, hususiy tarmoqqa xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish, fermerning mulkdor sifatidagi maqomini amalda ta'minlash talab yetiladi. Ammo, shu bilan birgalikda ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish nafaqat ushbu vaziyatlar mavjudligi bilan, balki ko'p jihatdan etishtirilgan mahsulotni sotish uchun sharoitlarning mavjudligi bilan ham belgilanadi.

Mavjud vaziyatni taqlil qiladigan bo'lsak, bugungi kunda fermer ho'jaliklari tomonidan etishtirilgan paxta, halla va pilla uyushgan qolda sotib olinayotgan bo'lsa, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ayniqsa, boqdorchilik mahsulotlari asosiy qismi deqqon bozorlari orhali iste'molchilarga etib bormoqda. Ammo, ushbu tizimda boqdorchilik mahsulotlari etishtiruvchi fermer ho'jaliklari bugungi kunda ko'plab qiyinchiliklar yevaziga mahsulotning iste'molchigacha bo'lgan harakatini ta'min yetmoqda. Mahsulotni iste'molchiga etkazish jarayonida, qayta ishlash va tayyorlov korhonalari salmoq'i hamon juda past darajada qolmoqda. Mahsulot etishtiruvchi deqqonning mahsulotini sotish uchun bozorlarga kirib borishi, transport tizimini tashkil yetishi, tara-qadoqlash materiallari harid qilishi kabi muammolar tufayli yanada qiyinlashib boradi.

Qayta ishlovchi va tayyorlovchi soha tashkilotlari tomonidan bozorga taklif yetilayotgan boqdorchilik mahsulotlari sifati, tashqi ko'rinishi va baqolari iste'molchi talabiga javob berishida, mahsulot sifatining tehnik va tehnologik, sanitariya me'yorlariga, iste'molchilar didiga javob berishi katta ahamiyatga yega. Ammo, qayta ishlash va tayyorlovchi soha tashkilotlari faoliyati fermer manfaatini ham ye'tiborga olgan qolda tashkil yetilgandagina, mahsulot etishtiruvchi va mahsulotning keyingi harakatini ta'min yetuvchi tayyorlovchi, qayta ishlovchi bo'qinlar manfaatlari uyqunligi ta'min yetilgandagina kutilgan natijaga yerishish mumkin bo'ladi.

Ushbu vazifani tashkil yetishda meva - sabzavotchilik yo`nalishidagi agrosanoat firmalari doirasida qayta ishlash korhonalari va tayyorlov tizimi boqdorchilik mahsulotlarini nafaqat qabul qilishi va o`z vaqtida qaqini to`lashi, balki ho`jalikka uni tashishda, ishlab chiharishni tashkil qilishda, bo`nak to`lashda har tomonlama yordam berishi lozim.

Ayniqsa agrosanoat firmalari ning fermer ho`jaliklari bilan o`z vaqtida shartnomalar tuzishi, mahsulotlarni sotib olishi, barcha mahsulotlarni shartnomada ko`zda tutilgan muddatlarda qabul qilib olishi, fermerlarni idishlar va qadoqlash materiallari bilan ta`minlash vazifasini sifatli amalga oshirishi lozimligi bugungi kunda yanada dolzarblashmoqda.

Agrosanoat firmalari doirasida qaqiqiy bozor tamoyillarini joriy yetish, mahsulot etishtiruvchi, qayta ishlovchi, tayyorlovchi, savdo sohasi kohonalari manfaatlarini mutanosib ta`min yetishda samarali bozor mehanizmi shakllanishi sekin kechmoqda. Boqdorchilik mahsulotlariga narh shakllanishida qayta ishlash sohasi korhonalarining ustivor ta`siri va ma`muriy usullar unsurlari saqlanib qolmoqda. Bunday qolatlarga nafaqat sub`ektiv sabablar, mutahassilarning bozorga doir bilimlar etishmasligi, tashkiliy ishlarning sustligi balki, agrosanoat firmalari shakllanishi va o`tish davrining qiyinchiliklari ham sabab bo`lmoqda.

Mamlakatimizda meva, uzum, sabzavot mahsulotlarini ko`plab etishtirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Etishtirilayotgan boqdorchilik va sabzavot mahsulotlari hajmi ichki bozor talabiga nisbatan ancha ortiq bo`lib, bu bozorda mahsulot baqosining deqqon uchun zararli nuqtaga yaqinlashib qolishiga olib keladi. SHuning uchun ham boqdorchilik uchun yil yahshi kelgan davrlarda etishtirgan mahsulotlarni yangi uzilgan qolda yoki qayta ishlangan qolatda respulikadan tashhariga olib chiqib sotishning samarali mehanizmini yaratish qozirgi kunda katta ahamiyatga yega bo`lgan masalalardan biri qisoblanadi.

Mustaqillik yillarida respublikamiz qishloq xo`jaligida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohatlar natijasida qator muvaffaqiyatlarga erishildi. Bu, eng avvalo, bozor munosabatlariga o`tishning huquqiy asoslarining yaratilganligida, qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiharishda fermer

ho'jaliklari ulushining oshayotganligida, qolaversa, qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sib borayotganligida o'z aksini topadi.

Qishloq xo'jaligidagi muammolarni hal qilishning muhim omili va shart-sharoitlaridan biri, bu investitsiya faolligini yanada kuchaytirishdan iboratdir. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni qayta ishlash, tayyor mahsulot sifatida eksport qilish uchun faqat institutsional o'zgarishlarni amalga oshiribgina qolmay, balki bu sohaga keng qamrovli investitsiyalarni olib kirish lozim. Investitsiyalar qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda muhim omil bo'lib, u kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosini tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi sohasida samaradorlikka erishish, mehnat unumdorligini oshirish, qo'l mehnatini qisqartirish, mahsulot tannarhini kamaytirish, qishloq aholisi turmush darajasini yanada oshirishda, qolaversa, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatlarini oshirishda, mamlakatning oziq-ovqat ta'minotida investitsiyalarning o'rni va ahamiyati juda katta.

Zero mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "O'tgan yilda iqtisodiyotimizga 11 milliard 700 million dollar miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi yoki bu boradagi ko'rsatkich 2015 yilga nisbatan 14 foizga o'sdi. Jami investitsiyalarning 22 foizdan yoki 2 milliard 500 million dollardan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ularning 79 foizdan ko'prog'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

E'tiborga sazovor tomoni shuki, jami investitsiyalarning qariyb 74 foizi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirildi."²³

Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish so'nggi yillar davomida o'sish ko'rsatkichlariga ega bo'lmoqda.

Hukumat harorlari asosida yangidan tashkil yetilgan meva - sabzavotchilik agrosanoat firmalari bugungi kunda jiqozlangan zamonaviy meva-sabzavot

²³ Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi//Xalq so'zi, 2013 yil 19 yanvar

mahsulotlarini saqlashga mo`ljallangan omborhonalarni barpo yetish imkoniyatiga yega bo`lishmoqda. Chunki aksariyat ko`pchilik agrosanoat firmalari ga fermer ho`jaliklarining ulushli mulki sifatida sobiq shirkat ho`jaliklari balansida bo`lgan meva sabzavot mahsulotlarini saqlash omborhonalari o`tkazib berilgan. Agrosanoat firmalarining bunday imkoniyatidan foydalanishda zamonaviy texnologiya va jihozlar sotib olishda davlatning moliyaviy va tashkiliy-iqtisodiy ko`magi juda zarur.

Bunda mavjud sharoitlarni qisobga oladigan bo`lsak, real moliyalashtirish manbalari sifatida mahsulotlarni saqlash tizimini rivojlantirishdan bevosita manfaatdor bo`lgan ishlab chiqarish va xizmatlar ko`rsatish sohalari mablaqlari, davlatning maqsadli imtiyozli kredit mablaqlari, tijorat banklari va boshqa moliyaviy institutlar mablaqlari, lizing kompaniyalari mablaqlar va qomiy tashkilotlar (turli grantlar ko`rinishidagi) tomonidan ajratiladigan mablaqlarni ko`rsatib o`tish mumkin. Turli tashkilotlar va turli mulkchilik shaklida tashkil yetilgan boqdorchilik mahsulotlarini saqlash tizimi ayni paytda kompleks tarzda o`z ichiga mahsulotlarni saralash, (qadoqlash) idishlarga joylash va sifatini nazorat qilish jarayonini ham olishi lozim. Chunki mahsulotni saqlash bilan boq`liq bo`lgan ushbu jarayonlarni aloqida-alloqida amalga oshirish mumkin bo`lsada, amalda ular bir-biri bilan boq`liq va biri ikkinchisini taqozo qiladi. Jumladan, saqlashga qo`yilayotgan olmalarni tashqitomondan mehanik ta`sirlarga uchramanganligi, katta-kichikligi, rangi, pishib etilishi darajasi bo`yicha saralash maqsadga muvofiq, chunki shunday qilinganda, keyingi bosqichlarda bozorga chiqarish yoki transportlarga ortish jarayonida kamroq mehnat talab yetadi va mahsulot mehanik ta`sirlarga kamroq uchrab sifatini kamroq yo`qotadi. Istiqbolda boqdorchilik mahsulotlarini saqlash tizimini kengaytirishning quyidagi yo`nalishlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq:

-mevalarni bino ichida qavo oqimi boshhariladigan, sun`iy sovutiladigan, harorat va namlik darajasi komp`yuter tizimi orhali nazorat qilinadigan yirik jamdagi omborhonalarni barpo yetish;

-uzoqroq vaqt saqlash imkonini beradigan mevalarni tartibga solinadigan gazli muqitda poliyetilen niqoblardan foydalanib, mahsulot sifatini nazorat qilish imkonini beruvchi omborhonalarni barpo qilish;

Bizningcha, qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni samarali joylashtirish quyidagi muammolarni hal qilishga xizmat qiladi:

- investitsiyalarni jalb qilish orqali qishloq xo'jaligida zamonaviy texnika va texnologiyalar parki ko'payib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va tayyor mahsulot yaratish imkoniyati kengayadi;

- horijiy investitsiyalarni jalb qilish qisobiga qurilgan korxonalarda import o'rnini qoplovchi va eksportga mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqarish uchun imkoniyat yaratiladi;

- qishloq joylarda yangi korxonalar tashkil etilishi yasa infratuzilmaning qo'shimcha shahobchalari paydo bo'lishiga olib keladi;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish valyuta zahiralarini mamlakatning o'zida qolishini ta'minlab, ularni boshqa tadbirlarga sarflash imkoniyatini yaratadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda samarali natijalarga erishish barobarida ularni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish avvalo, mahsulotlarning nobud bo'lishining oldini olishga va tayyor mahsulotlarni eksportga chiqarish imkoniyatlarini oshiradi. Bu esa o'z navbatida davlatimiz o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi, aholi daromadlarining oshishi va turmush darajasining yaxshilanishiga zamin yaratadi.

Aholi iste'moli uchun zarur bo'ladigan oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizga yaqini agrosanoat kompleksi tarmoqlarida tayyorlanadi. Agrosanoat majmuasining asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, ularni tayyorlash, qayta ishlash hamda iste'molchilarga yetkazib berish tizimining maqsadga muvofiq, bir me'yorda barqaror ishlashini ta'minlash, pirovardida mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilishdan iboratdir. Bu majmua tarkibiga kiruvchi tarmoqlar yagona bir tizimni tashkil etgan holda mutunosib ishlashi pirovard natijaning yaxshi bo'lishini

ta'minlaydi. SHuning uchun ham qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalarini rivojlantirish orqali viloyat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish va ularni eksport qilish muhim vazifalardan biridir.

Viloyatda faoliyat yuritayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalarining quvvatlari yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini viloyat aholisi ehtiyojlari uchun va qisman eksport qilish maqsadida qayta ishlash uchun yetarli emas. SHu sababli viloyatga qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash natijasida olinadigan sanoat mahsulotlari qisman mamlakatimizning boshqa mintaqalaridan import qilinadi. Vaholanki viloyatda mavjud qulay tabiiy-iqlim sharoitlari sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'p miqdorda ishlab chiqarish imkonini beradi.

Surxondaryo viloyatida yildan-yil meva sabzavotlarni yetishtirish hajmi ortib bormoqda, xususan, 2015 yilda sabzavot mahsulotlari yetishtirish hajmi 2001 yilga qaraganda 3 barobarga, ho'l meva mahsulotlari 2,1 barobarga, uzum 1,4 barobarga, kartoshka 2,6 barobarga, poliz mahsulotlari 2 barobarga ko'paygan. Respublika miqyosida bo'lgani singari viloyatda ham qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda dehqon xo'jaliklarining ulushi yuqori salmoqni tashkil etadi. Dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori kichik partiyani tashkil etishi sababli ularning qayta ishlovchi korxonalarini bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hamda dehqonlarning o'zlari yetishtirgan mahsulotlarini sotishdan oladigan daromadlarini oshirish uchun qayta ishlovchi korxonalar va dehqon xo'jaliklari orasida iqtisodiy munosabatlarni tashkil etish mexanizmini ishlab chiqish lozim. Bunda dehqon xo'jaliklari va sanoat korxonalarini o'rtasida bir martalik emas, balki doimiy iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishga erishish lozim.

3.3.1.-jadval. Oltinsoy tumanida 2013-2014-2015 yillarda barcha toifadagi xo'jaliklar bo'yicha meva, uzum, sabzavot, poliz, kartoshka ekinlarining joylashtirilishi, ishlab chiqarilishi tugrisida ma'lumot

Turlari	Ekin maydoni			Urtacha xosildorlik (tsentner)			Jami xosil (tonna)			Uruglikka (tonna)			Kayta ishlashga (tonna)		
	2013	2014	2015	2013	2014	2015	2013	2014	2015	2013	2014	2015	2013	2014	2015
Meva (bog)	920	940	941	76	76	80	6996	7105	7488						
sh.j - yosh bog'	179	14	14	0	0	0									
hosilli	741	926	941	94	77	80	6996	7105	7488						
Uzum	5211	5311	5486	40	54	60	21015	28851	32883				8450	10761	11890
sh.j - yosh tokzor	77	25	175	0	0	0									
hosilli	5134	5286	5311	41	55	62	21015	28851	32883				8450	10761	11890
Sabzavot	512	1174	806	541	250	387	27707	29354	31216	375	494	442	3520	1650	4000
sh.j pomidor	146	205	124	380	380	382	5548	7794	4742	82	105	70			
sabzi	51	104	68	440	220	332	2242	2288	2257	55	56	53			
bodring	13	27	15	420	272	405	546	734	607	46	55	51			
piyoz	183	437	319	450	258	335	8235	11276	10693	95	125	120	1300	1650	1550
karam	22	60	45	4272	585	2066	9399	3510	9299				2220		2450
baqlajon	14	121	60	30	7	12	42	89	71	10	12	11			
lavlagi	7	6,5	38	300	1348	158	210	876	602	20	35	25			
sholg'om, turp	63	124	128	250	222	234	1575	2753	2996	65	102	110			
sarimsoq piyoz	5	20	9	20	17	21	10	34	19	2	4	2			
Poliz	8	10	12	2153	2094	2039	1722	2094	2447	105	110	123	0	0	0
sh.j. qovun	3	3	4	2153	2177	2170	646	653	868	35	36	46			
tarvuz	4	6	7	2145	2035	1943	858	1221	1360	50	55	58			
qovoq	1	1	1	2180	2200	2190	218	220	219	20	19	19			
Kartoshka	595	646	620	176	192	223	10478	12413	13846	800	900	1100			
Jami	7246	8081	7865	94	99	112	67918	79817	87880	1280	1504	1665	11970	12411	15890

Manba: Oltinsoy tuman statistika bo'limi ma'lumotlari.

3.3.2.-jadval. (davomi.) Oltinsoy tumanida 2013-2014-2015 yillarda barcha toifadagi xo'jaliklar bo'yicha meva, uzum, sabzavot, poliz, kartoshka ekinlarining joylashtirilishi, ishlab chiqarilishi tugrisida ma'lumot.

turlari	Toshkent shaxriga (tonna)			Ijtimoiy soxa ob'ektlariga (tonna)			Ichki iste'molga (tonna)			Eksportga (tonna)		
	2009	2014	2015	2009	2014	2015	2009	2014	2015	2009	2014	2015
Meva (bog)	1961	2045	2100	724	730	778	3761	3790	3960	550	540	650
hosilli	1961	2045	2100	724	730	778	3761	3790	3960	550	540	650
Uzum	5200	6890	7100	150	250	453	4865	7650	9560	2350	3300	3880
sh.j - yosh tokzor												
hosilli	5200	6890	7100	150	250	453	4865	7650	9560	2350	3300	3880
Sabzavot	10599	9995	11293	1530	1814	1651	9853	14401	12858	1930	1000	1042
sh.j pomidor	2265	3125	1665	450	550	357	2751	4014	2650			
sabzi	245	250	248	150	153	154	1792	1829	1802			
bodring				35	45	32	465	634	524			
piyoz	3150	4150	4000	250	461	440	2490	3890	3840	950	1000	743
karam	4199	1500	4400	550	450	500	1450	1560	1650	980		299
baqlajon							32	77	60			
lavlagi				30	45	48	160	796	529			
sholg'om, turp	740	970	980	65	110	120	705	1571	1786			
sarimsoq piyoz							8	30	17			
Poliz	0	0	0	120	128	136	1497	1856	2188	0	0	0
sh.j. qovun				30	32	36	581	585	786			
tarvuz				60	66	70	748	1100	1232			
qovoq				30	30	30	168	171	170			
Kartoshka	4100	4200	4400	558	680	700	5020	6633	7646			
Jami	21860	23130	24893	3082	3602	3718	24996	34330	36212	4830	4840	5572

Manba: Oltinsoy tuman statistika bo'limi ma'lumotlari.

Meva, uzum, sabzavot, poliz va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklari hukumatimiz tomonidan yaratib berilgan imtiyozlardan unumli foydalangan holda o'zlari yetishtiradigan mahsulotlarini qayta ishlashni kengaytirishlari lozim. Bunda mahsulot pishib yetilganda o'zlarida yetishtirilgan va ushbu hududda yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash maqsadida zamonaviy texnologik liniyalarni olib kelib o'rnatish va unda tayyor sanoat ishlab chiqarishlari lozim.

SHu orqali o'z daromadlari ko'payishiga va shu bilan birga aholini ish bilan ta'minlashga erishadilar. Bitta fermerning iqtisodiy qudrati zamonaviy texnologiyalarni olib kelishga yetmagan holatlarda agrofimlar tashkil etish orqali mazkur faoliyatni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

3.3.3.-jadval.Oltinoy tuman qayta ishlash korxonalarining 2013-2014-2015-yillardagi moliyaviy xolati tugrisida MA'LUMOT

Kayta ishlash korxonalarining nomi	Jami daromad (mln sum)			Jami xarajat (mln.sum)			Sof foyda (mln sum)			Rentabellik darajasi (foiz)		
	2013 y	2014 y	2015 y	2013 y	2014 y	2015 y	2013 y	2014 y	2015 y	2013 y	2014 y	2015 y
"Bobur Mirzo" shu'ba korxonasi	31520	352666	180008	31034	351645	176508	486	1021	3500	9,8	1	3,2
"Musallas" xususiy agrofirma	424576	430571	280078	248355	339403	233275	176221	91168	46803	1,1	1	6,5
"Sulton SHarbat" MCHJ	33080	173978	436192	27972	80796	225549	5108	93182	210643	9,3	1	9,8
"EAST WEST SURXON" kushma korxonasi	226703	138186	458221	205220	129686	445193	21483	8500	13028	4,7	2	2

Viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, eksport salohiyati va samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi:

- qayta ishlash sanoati korxonalaridagi eskirgan asosiy vositalarni zamonaviy chet el asbob-uskunalari bilan yangilash, moderinizatsiyalash;
- tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur minitexnologiyalarni olib kelish va ularga servis xizmati ko'rsatuvchi tizimni barpo qilish;
- oziq-ovqat sanoati uchun xom ashyo yetkazib berishni takomillashtirish va bunda mahsulot yetkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli shartnomaviy munosabatlarni yo'lga qo'yish mexanizmini takomillashtirib borish;
- qishloq xo'jalik mahsuloti yetkazib beruvchi fermer va dehqon xo'jaliklarini bo'naklash mexanizmini yanada takomillashtirish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlashni yo'lga qo'yish uchun zarur infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish;
- agrofimlar tashkil etgan holda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashni kengaytirish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga e'tiborni kuchaytirish;
- oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, konservalar, meva sharbatlari ishlab chiqarishga asosiy o'rin ajratish va bu sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb etish lozim.

Umuman mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari iste'molimiz uchun zarur bo'lganidan ortiq yetishtirilmoqda. SHunday ekan, iste'moldan ziyod mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilishni tashkil etish va keskin rivojlantirish darkor.

Viloyatimizda o'ziga xos shunday qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladiki, ularni qayta ishlash juda mushkul. Qovun, tarvuz, sabzi, piyoz va sarimsoqpiyoz shunday mahsulotlar sirasiga kiradi. Bularni uzoq muddat saqlash imkoniyati ham o'ta cheklangan. SHu bois, bunday mahsulotlarning iste'molchilarini xorijdan topish lozim. Aks xolda ular boy beriladi.

Nazarimizda, bunday noxush vaziyatdan chiqishning asosiy yo'llaridan biri qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotuvi (realizatsiyasi)ning boshqarish jarayonlarini

takomillashtirish va qishloq xo'jaligi tarmog'iga investitsiyalar (maxalliy va xorijiy)ni jalb etishni jadallashtirishdir.

Etishtirilayotgan paxta, pilla va meva kabi mahsulotlarni o'zimizda qayta ishlab, tayyor mahsulot xoliga keltirishni jadallashtirish, qishloq joylardagi ayrim muammolar bartaraf etilishiga imkoniyat yaratadi. Bu boradagi maqsadga erishish uchun qishloq xo'jaligiga jalb etilayotgan investitsiyalarni keskin ko'paytirish kerak.

Bizningcha, investitsiyalarni samarali joylashtirish qo'yidagi muammolarni xal etishga xizmat kiladi:

- qishloq joylarda kichik ishlab chiqarish shaxobchalari kuriladi. Bu, uz navbatida, qishloqda kushimcha ish joylarini tashkil etish bilan bir katorda dexkonchilik madaniyatini xam oshiradi;

- to'g'ri investitsiyalarni jalb etish qishloq xo'jaligi tarmog'i va xududida zamonaviy texnika va texnologiyalar parki ko'payishiga olib keladi. Pirovardida, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kayta ishlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati kengayadi;

- xorijiy investitsiyalarni jalb etish xisobiga qurilgan korxonalar tufayli import o'rnini bosib, eksportga mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqarish uchun qulaylik yaratiladi.

- soliq to'lovchilar soni xam ko'payib, maxalliy va respublika byudjetining daromadi oshadi.

- qishloq joylarda yangi korxonalar tashkil etilishi esa infratuzilmaning qo'shimcha shaxobchalari paydo bo'lishiga olib keladi;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish valyuta zaxiralari mamlakatning o'zida qolishini ta'minlab, ularni jamiyat uchun o'ta zarur bo'lgan boshqa tadbirlarga sarflash imkoniyatini yaratadi.

Xullas, viloyatimizda qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish uchun yuqorida zikr etilgan muammolarni bartaraf etishga e'tiborni kuchaytirish zarur. Bu qishloq axolisining turmush darajasi va xayot farovonligi yanada oshishiga ijobiy ta'sir etadi.

Viloyat iqtisodiyotiga jalb etilgan jami investitsiyalar hajmida qishloq xo'jaligi tarmog'iga jalb qilingan investitsiyalar ulushi juda yuqori deb bo'lmaydi.

Lekin, bir qator omillar mavjudki, ularga asoslangan holda viloyat qishloq xo'jaligi investitsiyalarni yo'naltirish uchun qulay tarmoq degan xulosaga kelish mumkin.

Viloyatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda quyidagi yo'nalishlarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish zarur, ya'ni:

- ishlab chiqarish munosabatlari;
- yer munosabatlari va yerdan foydalanish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish, tayyorlov tizimlari;
- qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarini kreditlash tizimi va baholarni tartibga solish;
- moliyaviy operatsiyalarni erkinlashtirish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini taqsimlash va boshqalar.

YUqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, viloyat iqtisodiyoti agrar tarmog'iga investitsiyalarni jalb etish muhim strategik ahamiyatga ega. Chunki, viloyatimiz hududida subtropik mevalarni, ertapishar meva-sabzavotlarni yetishtirish imkoni mavjud. Bu esa viloyatimizning ushbu mahsulotlarni yetishtirishda boshqa hududlardan ustunligini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligida qayta ishlab chiqarish salohiyatini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, mahsulotlarni qayta ishlashda nodavlat sektorining ulushi 99 foizni tashkil etadi. Agrosanoat majmuasida esa aholini mehnatga layoqatli qismining 44 foizdan ko'prog'i band bo'lib, qishloq xo'jaligi sektori O'zbekiston aholisi uchun zarur bo'lgan oziq - ovqat mahsulotlarini qayta ishlab chiqish imkonini beradi.

Bozor munosabatlari har bir ishlab chiqaruvchidan qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobat-bardoshligini ta'minlash, uni qayta ishlash tizimini yo'lga qo'yish va tarmoq sama-radorligini oshirishni pirovard maqsadi qilib belgilashni talab etady. Bugungi kunda agrar sohada asosiy qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiruvchi sifatida shakllanayotgan fermer xo'jaliklarining aksariyat qismida sohani samarali yuritish va rivojlantirish uchun moliyaviy mablag'larning yetishmasligi kuzatilmokda. Ushbu masalani hal etishning asosiy yo'nalishlaridan

biri sohaga kiritilayotgan investitsiya mablag'lari hajmini oshirish, ko'lamini kengaytirish hisoblanadi.

Davlat buyurtmasi asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirayotgan korxonalariga imtiyozli kreditlar ajratish tartibi joriy etilgan bo'lib, bu yetishtirilayotgan mahsulotni xarid qilishni to'liq kafolatlaydi. Lekin, davlat buyurtmasiga kirmagan, ammo xorijga eksport qilish imkoniyati yuqori bo'lgan meva-sabzavotchilik mahsulotlari yetishtirishni ham imtiyozli kreditlar bilan ta'minlash, sohaga investitsiyalar jalb etish ko'lamini kengaytirish davr talabi hisoblanadi. Chunki, aksariyat meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari O'zbekiston Prezidentining 2006 yil 9 yanvardagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoniga asosan yangidan tashkil etilganligi sababli, xo'jalikni samarali yuritish uchun yetarli mablag'ga ega emas va moliyaviy ko'makka muhtoj, ikkinchidan, ko'pgina mevali bog' va tokzorlar ma'naviy jihatdan eskirgan bo'lib, ularni yangilash yoki to'ldirish talab etiladi. Uchinchidan, soha xususiyatlarini inobatga olgan holda tarmoqqa xizmat qiluvchi infratuzilma sub'ektlari hanuzgacha taraqqiy etmagan va yetarli darajada jihozlanmagan.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, investorlar tomonidan qishloq xo'jalik sohasiga, jumladan meva-sabzavotchilik tarmog'iga bevosita investitsiyalarning sust kelishiga asosiy sabab tarmoqning ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq tavakkalchilik xavfining yuqoriligi hisoblanadi. Bunday tavakkalchilik xavflari tarkibiga iqlim sharoitining yomonlashuvi, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning o'z majburiyatini bajarmasligi, asosiy jamg'armalar: xomashyo, elektr quvvati, xizmat ko'rsatishning yetishmasligi kabilar kiradi.

Raqobatbardosh mahsulot yetishtirishni ta'minlash uchun davlat tomonidan meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalarni qayta jihozlash ishlariga e'tibor qaratish hamda ularga ichki va tashqi investitsiyalar jalb etishda yanada qulayroq muhit yaratish, imtiyozlar berish zarur. Shu bois, yangidan tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga mulkni garovga qo'yish sharti bilan banklardan kredit olishga imkoniyatlar va sharoitlarini kengaytirish va shu asosda, ular

tomonidan yetishtiriladigan hosilni yoki umuman ekin maydonini garovga qo'ygan holda kreditlash tizimini kengroq yo'lga qo'yish maqsadga muvofikdir.

Investitsiyalar jalb etish qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlab, tayyor mahsulot yaratishga yo'l ochadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi. YUrtimizda yetishtiriladigan shirindan-shakar mevalarni qayta ishlangan holda chet elga eksport qilishga imkon beradi. Ayniqsa, uzoq muddat saqlash imkonini bermaydigan mevalar, sabzavotlar va poliz ekinlari (turli mevalar, pomidor, tarvuz va qovun, uzum va boshqalar)ni qishloq joylarining o'zida qayta ishlash, konservalashni yo'lga qo'ysak, qanchadan-qancha qishloq xo'jalik mahsulotlarining behuda zoe bo'lishi va transport mablag'lari isrofining oldini olgan bo'lardik.

Viloyatda yetishtiriladigan qorako'l terilaridan tayyor po'stin, meva va sabzavotlardan sharbat, konserva, pastalar ishlab chiqarish imkoniyatlari serob. SHuningdek, go'sht va sut mahsulotlaridan chet el standartlariga mos kolbasa, pishloq va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari bor. SHuningdek, paxta tolasini tayyor mahsulotga aylantirib, eks-port qilinganda iqtisodiy samarani 6-7 barobar ko'paytirish ehtimoli mavjud.

SHunday ekan, bugungi kunning eng dolzarb iqtisodiy vazifalaridan biri bu, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar ochish uchun investitsiyalar jalb etishdir.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida, ya'ni dehqon, fermer va shaxsiy tomarqa xo'jaliklariga yer maydonlari ajratishning keskin ko'paytirilishi evaziga o'lkamizda g'alla, kartoshka, meva-sabzavot, go'sht va sut kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmi sezilarli darajada ortdi. Hozirgi kunga kelib, oziq-ovqat mahsulotlari importini 3 baravar kamaytirishga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi "Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1047-sonli qarorining

ijrosini ta'minlash maqsadida Surxondaryo viloyatida ham muhim tadbirlar ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilayapti.

Keyingi yillarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish samaradorligi va salmog'ining oshishi natijasida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga erishilmoqda. Viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan bir qatorda eksport qilishga ham alohida e'tibor qaratilib kelinayapti.

HULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloqatlardan asosiy maqsad halqimizning turmush faravonligini yaxshilash va daromadlarini oshirib borishdan iborat. Iqtisodiyotimizda agrar soha asosiy o`rinni yegallashini inobatga olgan qolda shu o`rinda qishloq xo`jaligiga sanoatni yanada chuqurroq olib kirish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va dunyoga tayyor mahsulot etkazib beruvchi davlatlar qatoridan joy yegallashimiz zarur. O`zbekistonning halqaro meqnat taqsimotida ishtirok yetishidan maksimal darajada foyda olish, oqilona import tarkibini shakllantirish va eksport tarkibini diversifikatsiyalash, eksport tarkibida qo`shilgan qiymat darajasi yuqori tovarlar ulushini oshirish import o`rnini bosish siyosatidan eksportga yo`naltirilgan tashqi savdo strategiyasiga o`tishni taqozo yetadi. Bu yesa o`z navbatida eksport va import siyosatini yerkinlashtirishni, iqtisodiyotda raqobat muqitini barpo yetishni, iqtisodiyotning barcha sohalarida iqtisodiy va institucional islohatlarni chuqurlashtirishni ko`zda tutadi.

Garchi dunyoning ko`plab mamlakatlari rivojlanishining dastlabki bosqichlarida kuchli protekcionizm va import o`rnini bosishga yo`naltirilgan tashqi savdo siyosatini yuritgan bo`lsalarda, so`nggi yillarda mamlakatimizda olib borilgan import o`rnini bosish siyosati bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chihardi. Eksport hajmining jaqon bozori kon`yunkturasiga kuchli boq`liqligi natijasida barharor o`shish sur`atlarining ta`minlanmaganligi, kishi boshiga to`g`ri keladigan eksport hajmi va eksport kvotasining ko`plab rivojlanayotgan mamlakatlar ko`rsatkichlaridan sezilarli darajada orqadaligi fikrimiz dalilidir.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, import o`rnini bosish va eksportga yo`naltirilgan tashqi savdo siyosatini birgalikda qo`llash kutilgan natijalarga olib kelmaydi, chunki importni cheklash yo`lidagi har qanday chora-tadbirlar pirovard natijada eksport hajmining ham qisharishiga olib keladi. SHu sababli bugungi kunda O`zbekistonda eksportga yo`naltirilgan iqtisodiyot tarkibini shakllantirishda milliy ishlab chiharuvchilarning eksport faoliyatini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish muqim ahamiyatga yega.

Ekspart tarkibini takomillashtirish va respublikamizda eksportga yo`naltirilgan ishlab chiqarish turlarini barpo yetish, eksportga chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini ko`paytirish hamda halqaro bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish O`zbekiston Respublikasi qurumatining doimiy diqqat markazida bo`lib kelgan.

Viloyatda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, eksport salohiyati va samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi:

- qayta ishlash sanoati korxonalaridagi eskirgan asosiy vositalarni zamonaviy chet el asbob-uskunalari bilan yangilash, moderinizatsiyalash;

- tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur minitexnologiyalarni olib kelish va ularga servis xizmati ko`rsatuvchi tizimni barpo qilish;

- oziq-ovqat sanoati uchun xom ashyo yetkazib berishni takomillashtirish va bunda mahsulot yetkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli shartnomaviy munosabatlarni yo`lga qo`yish mexanizmini takomillashtirib borish;

- qishloq xo`jalik mahsuloti yetkazib beruvchi fermer va dehqon xo`jaliklarini bo`naklash mexanizmini yanada takomillashtirish;

- qishloq xo`jalik mahsulotlarini saqlashni yo`lga qo`yish uchun zarur infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish;

- agrofimlar tashkil etgan holda qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlashni kengaytirish;

- qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga e`tiborni kuchaytirish;

- oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlash, konservalar, meva sharbatlari ishlab chiqarishga asosiy o`rin ajratish va bu sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb etish lozim.

Qishloq xo`jaligida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni qayta ishlash, tayyor mahsulot sifatida eksport qilish uchun faqat institucional o`zgarishlarni amalga oshiribgina qolmay, balki bu sohaga keng hamrovli investitsiyalarni olib kirish lozim. Investitsiyalar qishloq xo`jaligini barharor rivojlantirishda muqim

omil bo`lib, u kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosini tashkil yetadi. Qishloq xo`jaligi sohasida samaradorlikka yerishish, meqnat unumdorligini oshirish, qo`l meqnatini qishartirish, mahsulot tannarhini kamaytirish, qishloq aholisi turmush darajasini yanada oshirishda, qolaversa, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va qishloq xo`jaligi mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatlarini oshirishda, mamlakatning oziq-ovqat ta`minotida investitsiyalarning o`rni va ahamiyati juda katta.

Mamlakatimiz mintaqalari tabiiy-iqlim sharoitiga ko`ra xilma-xil qishloq xo`jaligi mahsulotlarini etishtirish va ularni sanoatda mukammal qayta ishlash natijasida katta miqdorda qo`shimcha qiymatlar qosil qilish imkoniyatiga yega. O`zbekiston sharoitida qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini barharor rivojlantirishning ahamiyati shu bilan boq`liqki, respublikamizning deyarli barcha mintahalarida agrar soha etakchi rol` o`ynaydi. Aholining 63 %dan ko`proq`i qishloq joylarda istiqomat qiladi, ularning asosiy meqnati va daromadi qishloq xo`jaligi mahsulotlarini etishtirish bilan boq`liq. YA lpi ichki mahsulotning 29 %i, valyuta tushumining yarmidan ko`proq`i, ichki tovar aylanmasining 70 %dan ortiqi agrar sektor hissasiga to`g`ri keladi. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish qishloq joylariga sanoatni keltirish, qishloqlarda bandlikni va aholi daromadlarini oshirishda ahamiyati kattadir. Ayniqsa, qazilma boyliklari kam bo`lgan mintahalarda iqtisodiyotni barharor rivojlantirish qishloq xo`jaligi mahsulotlarini asosli qayta ishlashni muntazam oshirib borishga boq`liq.

Surxondaryo viloyati agrar yunalishga yega. kishlok hujaligining ishlab chikarishdagi ulushi 80 %ni tashkil yetib asosan paxta tolasi, meva sabzavot va boshqa kishlok hujaligi mahsulotlarini ishlab chikarishdan iborat. Mazkur holatni hisobga olib sungi yillarda ishlab chikarishni mahalliyashtirish dasturi asosida mahalliy hom ashyolarni qayta ishlash buyicha choralar qo`llanilmokda.

Sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash sohalarini rivojlantirish uchun bir qator takliflarni tavsiya qilamiz.

-investitsiyalarni samarali joylashtirish orqali qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash tizimini shakllantirish;

- qishloq joylarda kichik ishlab chiqarish shaxobchalari quriladi. Bu, o'z navbatida, qishloqda qo'shimcha ish joylarini tashkil etish bilan bir qatorda dehqonchilik madaniyatini ham oshiradi;

- to'g'ri investitsiyalarni jalb etish qishloq xo'jaligi tarmog'i va xududida zamonaviy texnika va texnologiyalar parki ko'payishiga olib keladi. Pirovardida, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati kengayadi;

- xorijiy investitsiyalarni jalb etish xisobiga qurilgan korxonalar tufayli import o'rnini bosib, eksportga mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqarish uchun qulaylik yaratiladi.

—Sabzavot yetishtirishda hududlar sharoitlarini inobatga olish;

—qishloq joylarda yangi korxonalar tashkil etilishi esa infratuzilmaning qo'shimcha shaxobchalari ochish;

—qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish valyuta zaxiralari mamlakatning o'zida qolishini ta'minlab, ularni jamiyat uchun o'ta zarur bo'lgan boshqa tadbirlarga sarflash imkoniyatini yaratadi.

Xullas, viloyatimizda qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish uchun yuqorida zikr etilgan muammolarni bartaraf etishga e'tiborni kuchaytirish zarur. Bu qishloq axolisining turmush darajasi va xayot farovonligi yanada oshishiga ijobiy ta'sir etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni. "Xalq so'zi". 1998 yil 6 iyun.
2. O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jaligida islohotlarning chuqurlashtirish"iga doir Qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami (I-II-qism). Toshkent "SHarq". 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjatlari. Toshkent "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" №2. 1999.
4. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 2017 yil 6-fevral.
5. O'zbekiston Respublikasining "Er kodeksi". O'zbekiston Respublikasi "Er kodeksi" va qishloq xo'jaligiga oid qonunlari. Toshkent "Adolat". 1999.
6. O'zbekiston iqtisodiy islohotlar bozor munosabatlari va mexanizmini rivojlantirish borasida qabul qilingan qonunlar to'plami. Toshkent "Adolat". 1991-2016.
7. Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2016 yil 29 dekabr № O'RQ-41
8. O'zbekiston Respublikasining Fermer xo'jaligi to'g'risida Qonuni. // Oliy majlis axborotnomasi. – T.: 2004. №9. – 22-35 b.
9. O'zbekiston Respublikasining "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida"gi Qonuni. "Xalq so'zi". 1995 yil 25 dekabr.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yangi meva-sabzavot mahsulotlari, kartoshka, poliz mahsulotlari va uzum xarid qilish yuzasidan davlat

buyurtmasi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida” 206-son Qarori. 2016 yil 15 iyun

11. «O'zagroeksportbank» aktsiyadorlik tijorat bankini tashkil qilish to'g'risida»gi Prezident Qarori 24.01.2017 yil [PQ-2740](#)

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yangi meva-sabzavot mahsulotlari, kartoshka, poliz mahsulotlari va uzum xarid qilish yuzasidan davlat buyurtmasi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida” 2016 yil 15 iyundagi 206-son Qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida Vazirlar Mahkamasining 271-son Qarori. 2017 yil 12 may

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Meva-sabzavot, kartoshka, poliz mahsulotlari va uzumni xarid qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-2717-son Qarori 2017 yil 6 yanvar

14. Tadbirkorlik sub'ektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori 2017 yil 1 fevral.

15. “Urgut», G'ijduvon, Qo'qon va Hazorasp erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 12.01.2017

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 29-oktyabrdagi “Erlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi farmoni.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6-oktyabrdagi “Fermer xo'jaliklari yer maydonlarini optimallashtirish to'g'risida”gi F-3077 sonli farmoyishi.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 oktyabrdagi “Fermer xo'jaliklarining yer uchastkalari hajmlarini yanada maqbullashtirish to'g'risida”gi F-3287 sonli farmoyishlari.

19. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda - T.: O'zbekiston, 1999.

20. Karimov I.A. “Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini bo’lishi darkor”. “Xalq so’zi”. 2006 yil 25 fevral.
21. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. T.: O’zbekiston. 2009.
22. Islom Karimovning 2014 yil 9 iyundagi «O’zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zaxiralari» mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutqi. // “Xalq so’zi” gazetasi, 2014 yil 15 iyun., www.press-service.uz/ru/news
23. Karimov I.A. “2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo’l ochib berish – ustuvor vazifamizdir” Vazirlar Mahkamasidagi ma’ruzasi. // “Xalq so’zi” 2015 yil. 17 yanvar.
24. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o’zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo’l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir.” Xalq so’zi. 17.01.2016
25. Mirziyoev SH.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so’zi» gazetasi. 14.01. 2017y.
26. Mahmudov U. Dehqon va fermer xo’jaliklari iqtisodiyoti. Ma’ruza matnlari. T.TDIU. 2014.
27. Salimov B.T. va boshqalar. Dehqon va fermer xo’jaliklari iqtisodi. T.TDIU. 2014.
28. Rashidov A., Ismayilova S. “Hamkorlik fermer xo’jaligi va lizing tashkiloti”. O’zbekiston qishloq xo’jalik jurnali. №5. 2006.

29. Badriev A., Ravshanov A. “Fermer va mehnat resurslarni” O‘zbekiston qishloq xo‘jalik jurnali. №11. 2014.
30. Burxanov A., Nazarov SH. “Fermer xo‘jaliklari muammolari”. O‘zbekiston qishloq xo‘jalik jurnali. №2. 2014.
31. D’yachenko V.S. Xranenie kartofelya ovoşı i plodov. M.:Agropromizdat.
32. Martinenko A.G., Rasulov A. Xranenie kartofelya, ovoşey i baxchevıx kultur v Uzbekistane. T.: «Uzbekiston».1969.
33. Rasulov A. Sabzavot va poliz mahsulotlarini saklash. T.Uzbekiston, 1980.
34. Trisvyatskiy M.A. i dr. Xranenie i texnologiya selskoxozyaıstvennyx produktov. M.:Kolos. 1983.
35. SHirokov Ye.P. Texnologiya xraneniya i pererabotki plodov i ovoşey. M.:Kolos. 1978.
36. Umurzoqov O.R., Toshboev A.J., Rashidov J., Toshboev A.A. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti”. Toshkent “Iqtisod-moliya”. 2014.
37. O‘zbekiston Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi matbuot xizmati “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnali. 2015 yil. 12 – son.
38. O‘zbekiston iqtisodiyoti". Axborot va taxliliy sharx. 2015 y.<http://www.agro.uz/uzb/iktisodivot/>.
39. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari.
40. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari.
41. <http://www.o`zland.o`z>.
42. www.ziyonet.uz sayti ma’lumotlari.

«Tasdiqlayman»
 Termiz davlat universiteti
 “Iqtisodiyot” kafedrası mudiri
 _____ i.f.n, N.X.Bekmurodov
 2016-yil 16-noyabr

BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA TOPSHIRIQ

Talaba _____ Saydaliyev Rustamjon Chorshanbi o`g`li
(Familiyasi, ismi, otasining ismi)

Yo`nalishi: _____ 5230100- “Iqtisodiyot”

1.Bitiruv malakaviy ishi mavzusi: Qishloq xo`jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va eksport tizimini takomillashtirish

Kektorning 2017 yil 14 noyabrdagi «347» sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan.

2. Malakaviy amaliyot joyi: _____

3. BMI rahbari: _____ Yarmatov SHarofiddin CHoriyevich
(Familiyasi, ismi, otasining ismi , ilmiy darajasi va unvoni)

4. Ish bo`yicha maslahatchi: _____
(Familiyasi, ismi, otasining ismi, ilmiy darajasi va unvoni)

5. Ishning maqsadi: _____

6. Bitiruv malakaviy ishi bo`yicha maslahatchilar:

Bo`limlar	Maslahatchi F.I.Sh.	Imzo, sana	
		Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
Kirish			
I- Qishloq xo`jaligini rivojlantirish bosqichlari va modernizatsiyalash jarayonlarini rivojlantirish asoslari			
1.1. Qishloq xo`jaligining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o`rni va ahamiyati..			
1.2. Qishloq xo`jaligi mahsulotlari marketingi va uning o`ziga xos xususiyatlari			
1.3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo`jaligi tarmoqlari rivojlanishining tabiiy-iqtisodiy sharoitlari			
II-Bob. Qishloq xo`jalik mahsulotlarini yetishtirish samaradorligini oshirish va qayta ishlash tizimini rivojlantirish.			
2.1. O`zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirilishini yanada takomillashtirish yo`llari			
2.2. Qishloq xo`jalik mahsulotlari yetishtirishda fermer ho`jaliklarining o`rni			
2.3. Sabzavot va meva mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilishda investitsiyalarni jalb yetishning ahamiyatini oshirish			
III-Bob. Iqtisodiyotini modernizatsiyalash jarayonida qishloq xo`jaligi tarmog`iga investitsiyalar jalb qilish			
3.1. Qishloq xo`jalik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish va unga ta`sir etuvchi omillar.			
3.2. Modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish tizimini rivojlantirish			
3.3. Sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash tizimini takomillashtirish yo`nalishlari va istiqbollari			
Xulosa			

7. Ishni bajarish uchun zarur bo'lgan materiallar:

a) Adabiyot manbalari:

b) Huquqiy aktlar:

8. Tasviriy materiallar:

9. Ishni topshirish muddati: 20 17 yil 20 may

Bitiruv ishi rahbari

(familiyasi, ismi, sharifi)

(imzo)

Kafedra mudiri

(familiyasi, ismi, sharifi)

(imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim

(familiyasi, ismi, sharifi)

(imzo)

Topshiriq berilgan kun:

20 16 yil 16 noyabr

IQTISODIYOT FAKULTETI
Iqtisodiyot kafedrasining
№ 22-sonli majlis bayonidan ko'chirma.

Termiz sh.

2017 yil “9” iyun

Qatnashdilar: kafedra a'zolari

Kun tartibi:

1. 5230600- “Iqtisodiyot” ta’lim yo’nalishi bakalavr darajasini olish uchun 4-kurs kunduzgi bo'lim talabalari tomonidan tayyorlangan Bitiruv malakaviy ishini Davlat Attestatsiya komissiyasiga himoyaga tavsiya etish to'g'risida:

Eshitildi:

Ushbu mavzu yuzasidan iqtisodiyot kafedrasini mudiri vazifasini vaqtincha bajaruvchi Sh.S.Ismoilov so'zga chiqib, 4-kurs kunduzgi bo'lim 5230100- “Iqtisodiyot” ta’lim yo’nalishi bitiruvchilari bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlab bo'lganligi uchun ularni Davlat Attestatsiya komissiyasida himoya qilishga tavsiya etish to'g'risidagi kafedra qarori bilan tanishtirib, talabani tanlagan mavzusi hozirgi kunning dolzarbligi bilan ajralib turushini takidlab o'tdi va o'z fikrlarini bayon qildi.

Saydaliyev Rustamjon Chorshanbi o'g'lining "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va eksport tizimini takomillashtirish" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishining mazmuni mohiyati, ishda oldiga qo'yilgan vazifalar, maqsadi hamda ilmiy yangiligi va talabani xulosa va takliflari bayoni ko'rib chiqildi.

Shundan so'ng kafedra dotsenti E.X. Avazovning fikrlari eshitildi. Unda talaba tomonidan tanlangan mavzuning bugungi kunda dolzarbligi, ishda keltirilgan takliflar amaliy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlandi. Ishni yozishda talaba muvaffaqiyatga erishish bilan birga ayrim juz'iy kamchiliklarga, jumladan, imloviy xatoliklar, orfografik xatoliklarga yo'l qo'yilganligi, lekin bu kamchiliklar bitiruv malakaviy ishining ilmiy saviyasiga ta'sir ko'rsatmasligini aytib o'tdi.

Ko'rilgan masala yuzasidan kafedra yig'ilishi

QAROR QILADI:

Ushbu masala yuzasidan kafedra mudiri vazifasini vaqtincha bajaruvchi Sh.S.Ismoilovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin. Saydaliyev Rustamjon Chorshanbi o'g'lining "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va eksport tizimini takomillashtirish" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini Davlat Attestatsiya komissiyasida himoya qilishga tavsiya etilsin.

Ushbu qarorning bajarilishi ilmiy rahbari: o'q. Sh.Yarmatov zimmasiga yuklatilsin.

Kafedra mudiri v.b.:

Sh.S.Ismoilov

Kotib:

S.J.Gadoyev

Termiz sh.

2017 yil « 6 » iyun

Qatnashdilar: kengash a'zolari.

KUN TARTIBI:

1. 5230100- "Iqtisodiyot" ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun 4-kurs kunduzgi bo'lim talabalari tomondan tayyorlangan Bitiruv malakaviy ishini Davlat Attestatsiya Komissiyasiga himoyaga tavsiya etish to'g'risida.

ESHITILDI:

Ushbu yig'ilishni Ijtimoiy- iqtisodiy fakulteti dekani i.f.n. A.E.Absamatov ochib, 4-kurs kunduzgi bo'lim 5230100- "Iqtisodiyot" ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlab bo'lganligi ularni Davlat Attestatsiya Komissiyasida himoya qilishga tavsiya etish to'g'risidagi kafedra qarori bilan tanishtirilganligini takidlab o'tdi va o'z fikrlarini bayon qildi.

Saydaliyev Rustamjon Chorshanbi o'g'lining "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va eksport tizimini takomillashtirish" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini yozishda talaba o'z oldiga qo'yilgan vazifalar, maqsadi, mazmun-mohiyati hamda ilmiy yangiligi va talabaning xulosa va takliflari eshitildi.

Shundan so'ng kengash a'zosi i.f.n, A. Avliyaqulovning fikrlari eshitildi. Unda talaba tomonidan tanlagan mavzuning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning bugungi bosqichida dolzarb ekanligi, Ishda keltirilgan takliflar amaliy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlandi. Saydaliyev Rustamjon Chorshanbi o'g'lining "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va eksport tizimini takomillashtirish" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishni yozishda muvoffaqiyatga erishish bilan birga ayrim kamchiliklarga, jumladan, imloviy xatoliklar, orfografik xatoliklarga yo'l qo'yilganligi lekin bu kamchiliklar ishning sifatiga ta'sir ko'rsatmasligini aytib o'tdi.

Ko'rilgan masala yuzasidan fakultet yig'ilishi

QAROR QILADI:

Ushbu masala yuzasidan Ijtimoiy-Iqtisodiyot fakulteti dekani i.f.n. A.E.Absamatovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Saydaliyev Rustamjon Chorshanbi o'g'lining "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va eksport tizimini takomillashtirish" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini Davlat Attestatsiya komissiyasida himoya qilishga tavsiya etilsin.

Fakultet kengashi raisi:

Ilmiy kotib:

i.f.n. A.E.Absamatov

O.Aliyarov

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
Bitiruv malakaviy ishini baholash me'zoni

OTMda talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi OO'MTV 2010 yil 25 avgustdagi 333 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan (2010 yil 26 avgustda Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan) Nizomning 13 - bandiga muvofiq ishlab chiqildi:

1. BMI ning hajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilish holati:

- a. talabga javob beradi – 12 ball,
- b. talabga qisman javob beradi – 8 ball,
- v. talabdan chetga chiqish holatlari mavjud – 6 ball.

2. BMI bajarishda ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanganlik darajasi:

- a. to'la – 12 ball,
- b. qisman – 10 ball,
- v. yetarli emas – 6 ball.

3. Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi:

- a. natija yangi – 13 ball,
- b. ilgari olingan – 7 ball,
- v. to'la ishonchli emas – 6 ball.

4. BMI da ishlab chiqarishga tavsiya berilganligi:

- a. bevosita ishlab chiqarishga tavsiya bor –12 ball,
- b. ijtimoiy sohada qo'llashga (ta'lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma'naviy ma'rifiy...) tavsiya qilingan - 10 ball,
- v. tavsiya yo'q – 8 ball.

5. Ishning ilmiy harakteri:

- a. ilmiy tadqiqotlar asosida – 13 ball,
- b. aralash shaklda – 10 ball,
- v. referativ harakterda – 7 ball.

6. Adabiyotlardan foydalanish mahorati:

- a. tulik va ijodiy foydalanilgan – 12 ball,
- b. yaxshi foydalanilgan -9-ball,
- v. faqat darslik va o'quv qo'llanmadan foydalanilgan – 8 ball.

7. Bitiruvchining nutqiga baho:

- a. a'lo – 13 ball,
- b. yaxshi – 9 ball,
- v. qoniqarli – 7 ball.

8. Berilgan savollarga javoblari:

- a. to'liq –13 ball,
- b. o'rta – 8 ball,
- v. qoniqarli – 7 ball.

9. BMI ga qo'yilgan yakuniy ball _____

Eslatma: Har bir band bo'yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi _____

F.I.SH. imzo

A'zolari _____

F.I.SH. imzo

F.I.SH. imzo

F.I.SH. imzo

F.I.SH. imzo

(muhr o'rni)

Sana " _____ " _____ 2017 y.